2-rasm. *Cu (I) ion o'tish emissiya spektr chiziqlarini Bolsman taqsimot grafigi. Qiyalik a) lazer nurlanish quvvati 20.2 mW bo'lganda T_1= 8825 K va b) lazer nurlanish quvvati 22.9 mW bo'lganda T_2=9012 K plazma elektron temperaturasi*

Lazer nurlanish quvvati oshgani sari plazma harorati ham oshadi, chunki energiya zarrachalarga uzatiladi va ionlanish kuchayadi. Biroq, bu bog'lanish to'g'ridan-to'g'ri emas, chunki energiya yo'qotish mexanizmlari va plazmaning boshqa xususiyatlari (masalan, zichlik, hajm) bu jarayonga ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. R. Bedilov, K. B. Beisembaeva, va I. Y. Davletov, “Spectra formation of multiply charged ions from Nd-doped glass plasma irradiated by a neodymium laser,” *Technical Physics*, vol. 47, no. 8, pp. 1019–1023, Aug. 2002, doi: 10.1134/1.1501684.

2. E. Fazio, B. Gökce, A. De Giacomo, M. Meneghetti, G. Compagnini, M. Tommasini, F. Waag, A. Lucotti, C. G. Zanchi, P. M. Ossi, M. Dell’Aglio, L. D’Urso, M. Condorelli, V. Scardaci, F. Biscaglia, L. Litti, M. Gobbo, G. Gallo, M. Santoro, S. Trusso, va F. Neri, “Nanoparticles engineering by pulsed laser ablation in liquids: Concepts and applications,” *Nanomaterials*, vol. 10, p. 2317, 2020.

3. G. S. Boltaev, M. Iqbal, S. R. Kamalov, M. Vapaev, I. Y. Davletov, va A. S. Alnaser, “Impact of plasma conditions on femtosecond laser-induced surface structures of Ti and Ni,” *Applied Physics A*, vol. 128, no. 6, p. 488, Jun. 2022, doi: 10.1007/s00339-022-05614-w.

4. A. I. Japakov, M. E. Vapaev, R. M. Bedilov, Z. T. Azamatov, va I. Y. Davletov, “Spectra of multiply charged ions in laser plasma formed from gas-containing targets,” *East European Journal of Physics*, no. 3, pp. 490–494, Sep. 2023, doi: 10.26565/2312-4334-2023-3-55.

5. H. R. Griem, *Principles of Plasma Spectroscopy*. Cambridge: Cambridge University Press, 1997. doi: 10.1017/CBO9780511524578.

6. A. Kramida, Y. Ralchenko, J. Reader, va NIST ASD Team, *NIST Atomic Spectra Database* (ver. 5.10). Gaithersburg: National Institute of Standards and Technology, 2022. Available: https://physics.nist.gov/asd (accessed Jan. 31, 2016).

LAZER NURLANISHI TA'SIRIDA MIS FOLGA YUZASIDA SHAKLLANGAN PLAZMANING ELEKTRON ZICHLIGINI ANIQLASH

M.M. Axmedov*, M.E. Vapayev, I.Y. Davletov
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
munisbek95@urdu.uz

Lazer va modda o'zaro ta'siri hozirgi zamon ilm-fanining yuqori energiyali fizikasi, materialshunoslik va nanofotonika sohalarida eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Ayniqsa, ultraqisqa impulsli lazerlar (femtosekund va pikosekund diapazonidagi) yordamida material sirtining lokal qizishi, erishi va bug'lanishi natijasida yuzada plazma hosil bo'lishi hamda kraterlar va nano/mikro tuzilmalar shakllanishi dolzarb tadqiqot mavzularidandir[1-3].

Lazer nurlanishi ta'sirida xosil bo'lgan plazmani o'rganishda elektronlar zichligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Elektronlar zichligini aniqlashda Shtark kengayish usulidan foydalanildi. Shtark kengayishi – bu plazmadagi elektr maydonlari ta'sirida spektr chiziqlarining kengayishi va siljishini ifodalashda muhim hodisa bo'lib, erkin elektronlar zichligini miqdoriy baholash imkonini beradi.



1-rasm. Cu folganing plazma emissiya spektri

Mis neytral atomlarining o'tish chiziqlarini o'rganish natijasida plazma parametrlari aniq tavsiflandi, bu esa lazer ablatsiyasi va unga bog'liq jarayonlarni chuqurroq tushunishga zamin yaratdi.



3-rasm. Lazer nurlanish quvvati 20.2 mW ta'sirida Cu sirtida hosil bo'lgan plazmaning λ=324.75 nm spektr chizig'ini Voight impulsi bilan moslashtirish.

Vodorodsimon bo'lmagan atomlar uchun elektron zichligi va spektr chiziqlari yarim kengligi (FWHM) o'rtasidagi bog'liqlik Shtark kengayishi orqali belgilandi[4]

$$\Delta\lambda_{\frac{1}{2}} = 2W\left(\frac{n_e}{10^{16}}\right)\overset{0}{A}. \quad (1)$$

$\Delta\lambda_{\frac{1}{2}}$=FWHM spektr yarim kengligi, n_e-elektron zichligi, **W** – elektron ta'sir parametri. Shtark kengayish usuli yordamida Cu I atom o'tishlariga mos keluvchi spektr to'lqin uzunliklari asosida elektron zichliklari aniqlandi (1-jadval). Spektr chiziqlari yarim kengligi (FWHM) Voigt impulsiga moslashtirilib topildi (3-rasm). Bir-biriga yaqin joylashgan atom o'tishlar ajratilib, alohida hisoblandi. Elektronlarning o'zaro ta'sir parametri **W** dan foydalanilib [5], elektronlar zichligi hisoblab chiqildi.

1-jadval

Atom/ion	*To'lqin uzunligi λ, (nm)*	*Elektron konfiguratsiyasi*	*FWHM (nm)*	***Elektron ta'sir kengligi** w (Å)*	*Elektrolar zichligi n_e, $(10^{18})cm^{-3}$*
Cu I	324.75	$3d^{10}4p \rightarrow 3d^{10}4s$	*0.89373*	0.00301	14.84
Cu I	327.39	$3d^{10}4p \rightarrow 3d^{10}4s$	0.70788	0.00301	11.76
Cu I	510.55	$3d^{10}4p \rightarrow 3d^{9}4s^{2}$	0.75101	0.043	0.87
Cu I	515.32	$3d^{10}4p \rightarrow 3d^{10}4d$	1.05062	0.19	0.27
Cu I	521.82	$3d^{10}4p \rightarrow 3d^{10}4d$	1.0102	0.22	0.23

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lian, B., Pan, K., Wang, L., Shi, L., Yao, J., & Guo, W. (2025). Research and Experimentation on Acoustic Monitoring Technology for Laser Drilling Penetration. *Micromachines*, *16*(4), 475.
2. Hayasaki, Y., & Miura, T. (2024). Femtosecond laser drilling controlled with laser-generated ultrasound pressure. *Applied Physics B*, *130*(12), 1-9.
3. Sheng, L., Cheng, X., Jiang, S., Zhao, C., Liu, J., Jing, C., ... & Jiao, J. (2025). Investigation on cutting of CFRP composite by nanosecond short-pulsed laser with rotary drilling method. *Science and Engineering of Composite Materials*, *32*(1), 20240047.
4. Ajith, A., Swapna, M. N. S., Cabrera, H., & Sankararaman, S. I. (2023, February). Comprehensive analysis of copper plasma: A laser-induced breakdown spectroscopic approach. In Photonics (Vol. 10, No. 2, p. 199). MDPI.
5. Sahal-Bréchot, S.; Dimitrijevi´ c, M.S.; Ben Nessib, N. Widths and Shifts of Isolated Lines of Neutral and Ionized Atoms Perturbed by Collisions with Electrons and Ions: 2014, 2, 225–252.

UGLEROD SIRTIDA HOSIL QILINGAN LAZER PLAZMANING PARAMETRLARI TADQIQI.

N.P.Babayazova*, M.E. Vapayev, I.Y. Davletov

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

nazokatbabayazova93@gmail.com

Hozirgi kunda metallar, qotishmalar, yarim o'tkazgichlar va uglerod asosidagi materiallar tarkibini tahlil qilishda LIBS usulidan foydalanish keng qo'llanilmoqda [1-3]. Ushbu usul lazer impulslari yordamida material yuzasida plazma hosil qilish va uning emissiya spektrlarini tahlil qilish orqali uning tarkibiy elementlarini aniqlash imkonini beradi [5]. Bugungi kunda uglerod va uning turli shakllari, xususan grafen, karbon nanotubalar va uglerod qora moddalari**,** quyosh batareyalarini ishlab chiqishda asosiy materiallardan biri sifatida ishlatilmoqda**.** Chunki uglerodning yuqori elektr o'tkazuvchanligi, nur yutish qobiliyati va yengil vazni quyosh energiyasini yuqori samaradorlik bilan yutish va elektr energiyasiga aylantirish imkonini beradi. Masalan, grafen asosidagi quyosh panellari oddiy kremniy asosidagi panellarga nisbatan ingichka, egiluvchan va yengil bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, uglerod asosidagi materiallardan foydalanish ekologik jihatdan ham xavfsiz bo'lib, ularni ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari atrof-muhitga kam zarar yetkazadi[5-6].

1-rasm. *LIBS va Uglerodning quyosh batareyalarida qo'llanilishi.*

Uglerod asosidagi plazmalar yuqori elektr o‘tkazuvchanlikka va keng nurlanish diapazoniga ega bo‘ladi. Uglerodli materiallarga lazer tushganda, uning atomlari va molekulalari ionlashadi va nurlanish yuz beradi. Ushbu nurlanishlar bir element uchun o‘ziga xos to‘lqin uzunligida sodir bo‘ladi [6]. Uglerod elementi uchun LIBS (Laser-Induced Breakdown Spectroscopy) texnikasi orqali olingan emissiya spektri quyidagi grafikda aks ettirilgan.



2-rasm. Uglerod plazmasining emissiya spektri.

Plazmaning asosiy parametrlaridan biri bo‘lgan elektron zichligi aniqlangach ($n_e \approx 3 \times 10^{16}$ cm^{-3}), plazma holatini tavsiflovchi hosila parametrlar ham hisoblanadi. Debay uzunligi λ_D plazmadagi zaryadlangan zarralarning elektrostatik maydonlari ta’sir radiusini aniqlaydi va [6] quyidagi formula bilan

hisoblanadi : $$\lambda_D = \sqrt{\frac{\varepsilon_0 k T_e}{n_e e^2}} \quad (1)$$

Hisoblash natijasida uglerod plazmasi uchun:

$$\lambda_D \approx 1.4 \times 10^{-6} \text{ m} = 1.4 \ \mu\text{m}$$

Plazma chastotasi (ω_p) erkin elektronlarning kollektiv tebranish chastotasi bo‘lib, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\omega_p = \sqrt{\frac{n_e e^2}{\varepsilon_0 m_e}} \quad (2)$$

Hisoblash natijasida uglerod plazmasi uchun:

$$f_p = \frac{\omega_p}{2\pi} \approx 1.56 \times 10^{12}\ \text{Hz}\ (3)$$

Bu parametrlar plazmaning barqarorligini, to'lqin tarqalishini va lazer-plazma o'zaro ta'sir jarayonlarini tushunishda muhimdir. Spektral tahlil uchun ishlatilishi mumkin.



3- rasm: Debay uzunligining elektron zichlikka bog'liqligi grafigi.

Quyidagi jadvalda Debay uzunligi $\lambda_D$ning elektron zichligi (n_e) ga bog'liqligi grafik asosida taqdim etilgan. Bu ma'lumotlar plazma fizikasi bo'yicha hisob-kitoblar va laboratoriya ishlari uchun foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L. J. Radziemski, Spectrochim. Acta B 57 (2002) 1109–1113.
2. A. W. Miziolek, V. Palleschi, Laser-Induced Breakdown Spectroscopy – Fundamentals and Applications, Cambridge University Press, 2006.
3. M. E. Vapayev et al., Ilmiy Axborotnoma 2 (2022) 119–124.
4. H. R. Griem, Plasma Spectroscopy, McGraw-Hill Book Company, New York, 1964.
5. Z. Cao et al., Nucl. Mater. Energy 24 (2020) 100786.
6. V. Palleschi, G. Cristoforetti, G. Legnaioli, E. Tognoni, New frontiers and challenges in LIBS applications: a review, Analytical and Bioanalytical Chemistry 406 (2014) 703–719.

2D Panjara tuzilishi asosida ikkinchi garmonik hosil bo‘lishining sonli tadqiqi

Alisher Rajabov

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Hamid Olimjon ko‘chasi 14, Urganch 220100, O‘zbekiston.

alisher.rajabov.2022@gmail.com

Optikada Gauss nurlar keng tarqalgan bo`lib, lazer texnologiyasi, optik tolalar va boshqa sohalarda qo`llaniladi. Ushbu ishda Gauss nur profilining shaxmat uslubida ishlangan nochiziqli foton kristaldan o`tishida amplituda va chastota o`zgarishlarini tahlil qilishimiz mumkin.

So‘nggi yillarda nolinear optika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar yorug‘lik chastotasini o‘zgartirish, yangi spektral diapazonlarni hosil qilish va yuqori samarali optik qurilmalar yaratishga qaratilgan. Bunda, ayniqsa, ikkinchi garmonik avlod (Second Harmonic Generation – SHG) jarayoni muhim o‘rin tutadi. SHG jarayonida asosiy lazer nurlanishining chastotasi ikki baravar oshib, yorug‘likning yarim to‘lqin uzunligi hosil qilinadi. Bu hodisa lazer texnologiyalarida, axborot uzatish tizimlarida hamda kvant optikada keng qo‘llaniladi.

SHG jarayonining samaradorligi fazaviy moslashuv shartiga bog‘liq. Fazaviy moslashuvni ta’minlash uchun turli usullar mavjud bo‘lib, ulardan eng samaralisi – optik panjara (grating) strukturalaridan foydalanishdir. Xususan, 2D panjara (ikki o‘lchamli grating) tuzilmalari fazaviy moslashuvni nafaqat bir yo‘nalishda, balki ikki yo‘nalishda ta’minlab, ikkinchi garmonik avlod intensivligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu ishda MATLAB muhitida yozilgan dastur yordamida 2D panjara asosida SHG jarayonining sonli modellashtirilishi amalga oshirildi. Hisoblashlar natijasida panjara tuzilishi, z-o‘q bo‘yicha panjara periodikligi, energiya taqsimoti va chiqishdagi maydon intensivligi grafigi olindi.

Natijalar panjara yordamida energiyaning samarali qayta taqsimlanishini hamda ikkilamchi garmonikning shakllanishini tasdiqlaydi.

Qurilgan modelda panjara "shaxmat doskasi" shaklida koʻrinadi. Bu yerda oq va qora kataklar fazaviy moslashuvni navbatma-navbat ta'minlovchi sohalarni ifodalaydi. Bunday panjara tuzilishi ikki oʻlchamda faza moslashuvini yaxshilab, SHG samaradorligini oshirish imkonini beradi. Panjara davriyligi y koordinata boʻyicha 8 ta elementdan tashkil topgan boʻlib, z-oʻq boʻyicha muntazam oʻsib boradi.



1 – rasm

Yuqoridagi 1 – rasmda **odi1** – asosiy toʻlqin (A1) intensivligi boʻlib, z boʻylab sekin kamayadi. . **odi2** – ikkinchi garmonik (A2) intensivligi, aksincha, oʻsib boradi.



2 – rasm

Yuqoridagi 2 – rasmda. **odi1 + odi2** – umumiy energiya yigʻindisi deyarli doimiy boʻlib qoladi. Bu energiya saqlanish qonuni bajarilishini va hisoblashlarning toʻgʻriligini isbotlaydi.



3-rasmda $|A2|^2$ ikkinchi garmonik intensivligi ham gaussga o'xshash shaklga ega, lekin amplitudasi ancha kichik. Bu panjara orqali asosiy to'lqindan ikkinchi garmonikga energiya samarali o'tishini ko'rsatadi.

Ushbu ishda ikkinchi garmonik avlod (SHG) jarayonining sonli modellashtirilishi amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, panjara asosidagi fazaviy moslashuv usuli SHG samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Modellash jarayonida asosiy to'lqin (A1) intensivligi z-o'qi bo'ylab asta-sekin kamayib borishi, ikkinchi garmonik (A2) intensivligi esa ortib borishi kuzatildi. Shu bilan birga, umumiy energiya yig'indisi (odi1 + odi2) deyarli o'zgarmay qolishi energiya saqlanish qonunining bajarilishini tasdiqlaydi.

Maydon intensivliklarining taqsimotlari ham muhim natijalarni ko'rsatdi. Asosiy to'lqin $|A1|^2$ va ikkinchi garmonik $|A2|^2$ gauss shaklida taqsimlandi. Bu natija panjara orqali o'tgan nur markaziy sohada maksimal qiymatga ega bo'lishini va energiyaning samarali tarzda qayta taqsimlanishini bildiradi. Ikkinchi garmonikning intensivligi kichikroq bo'lsa-da, bu uning asosiy to'lqindan hosil bo'layotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuningdek shuni ko'rsatadiki, fazaviy moslashuvni to'g'ri tashkil etish orqali ikkilamchi garmonik hosil qilish samaradorligini oshirish mumkin. Optik panjara yordamida amalga oshirilgan bu jarayon yuqori samarali chastota ikki baravar oshiruvchi qurilmalarni loyihalashda qo'llanishi mumkin. Bunday qurilmalar lazer texnologiyalari, spektral diapazonlarni kengaytirish, axborot uzatish tizimlari va kvant optikada keng amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, olib borilgan modellashtirish ishlari panjara strukturalaridan foydalanib ikkilamchi garmonik avlod jarayonini chuqur o'rganish va amaliy qurilmalarga tadbiq etish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] G. N. V. Pion, M. P. Mateo, "Laser-Induced Breakdown Spectroscopy for Chemical Mapping of Material," *Appl. Spectrosc. Rev.*, vol. 48, no. 0570–4928, pp. 357–383, 2013, doi: 10.1080/05704928.2012.717569.

[2] C. Aragón and J. A. Aguilera, "Characterization of laser induced plasmas by optical emission spectroscopy: A review of experiments and methods," *Spectrochim. Acta Part B At. Spectrosc.*, vol. 63, no. 9, pp. 893–916, Sep. 2008, doi: 10.1016/j.sab.2008.05.010.

[3] Shubho Mohajan, Nicholas F. Beier, and Amina E. Hussein. Investigating crater formation in nanosecond laser ablation of aluminum foils Appl. Phys. 136, 023102 (2024); doi: 10.1063/5.0212660

TEXNOLOGIYA ASRIDA KVANT KOMMUNIKATSIYALARI, KVANT KOMPYUTERLARI VA ULARNING ISTIQBOLI

Z.Z. Xodjimatova
Andijon davlat texnika instituti, Andijon, O'zbekiston
e-mail: xodjimatovazulayxo@gmail.com

Raqamli transformatsiya davrida insoniyat ilm-fan va texnologiyalarda yangi bosqichga qadam qo'ydi. Kvant texnologiyalari, xususan kvant kommunikatsiyalari va kvant kompyuterlari, XXI asr ilm-fanining eng dolzarb yo'nalishlari hisoblanadi. Ularning rivojlanishi axborot xavfsizligi, hisoblash texnikasi va ishlab chiqarish sohalarida tub burilish yasamoqda.

Kvant kommunikatsiyalari – bu axborot almashinuvi va uni himoya qilishda kvant mexanikasi qonunlariga asoslangan yangi avlod texnologiyalaridir. Asosiy ustunligi shundaki, uzatilayotgan ma'lumotni hech qanday klassik kriptografik usul bera olmaydigan darajada mutlaq xavfsizlik bilan himoyalaydi[1,2].

Asosiy prinsiplari:

1. Kvant kalitlarini taqsimlash (QKD – Quantum Key Distribution) – ikki tomon (masalan, A va B) o'zaro maxfiy kalit almashadi. Bu jarayon fotonlarning kvant holatlari orqali amalga oshiriladi. Agar uchinchi tomon (E) aralashishga harakat qilsa, fotonlarning kvant holati buziladi va darhol aniqlanadi.
2. No-klonlash teoremasi – kvant holatini nusxalash mumkin emas. Demak, josuslik qilish yoki kalitni yashirincha ko'paytirib olish imkonsiz.
3. O'lchashning buzuvchi xususiyati – kvant zarrachani o'lchash jarayonning o'zini o'zgartiradi. Shu sababli maxfiylik kafolatlanadi.

Amaliy natijalar quidagilardan iborat:

1. "Micius" sun'iy yo'ldoshi (Xitoy, 2017 y.) orqali 1200 km masofada kvant kalit almashinuvi amalga oshirildi. Bu tarixda birinchi marta global kvant aloqa tajribasi sifatida qayd etildi.

2. Yevropa Ittifoqi "EuroQCI" (European Quantum Communication Infrastructure) loyihasini boshlagan bo'lib, kelgusida butun qit'ani qamrab oluvchi kvant internetini yaratishni maqsad qilgan.

3. AQSh va Yaponiya ham milliy kvant aloqa tarmoqlarini yo'lga qo'yish bo'yicha faol ishlamoqda.

Ilmiy va amaliy qo'llanish sohalari

Milliy xavfsizlik**:** diplomatik, harbiy va hukumat aloqalarini mutlaq darajada himoya qilish.

Moliyaviy tizimlar**:** banklararo tranzaksiyalar va onlayn to'lovlarni xavfsiz amalga oshirish.

Sog'liqni saqlash: tibbiy ma'lumotlarni sir saqlash.

Bulutli hisoblash: kvant tarmoqlari orqali ma'lumot uzatishda yuqori darajadagi maxfiylik.

Kvant kommunikatsiyalarining eng yirik maqsadi – global kvant internetini barpo etishdir. Bu internetda:

Kvant kalitlari orqali uzatilgan barcha ma'lumotlar mutlaq xavfsiz bo'ladi;

Kvant kompyuterlar o'zaro bog'lanib, murakkab masalalarni jamoaviy hisoblash imkoniyatiga ega bo'ladi;

Zamonaviy kriptografiya butunlay yangi bosqichga ko'tariladi.

Kvant kommunikatsiyalari bugungi kunda tajriba bosqichida bo'lsa-da, tez orada klassik aloqa tizimlarini siqib chiqarishi kutilmoqda. Bu texnologiya axborot xavfsizligini tubdan o'zgartiradi, davlatlararo munosabatlar va xalqaro iqtisodiy hamkorlikda hal qiluvchi rol o'ynaydi[3].

Quyida kvant texnologiyalarini tasvirlovchi grafik va chizmalar keltirilgan:



1-rasm. Klassik va kvant kompyuter tezliklarining taqqoslanishi.

Kvant kompyuterlari hisoblash jarayonlarini kvant bitlari (kubits) orqali bajaradi. Kubitlar superpozitsiya va kvant bog'lanish (entanglement) hodisalari tufayli bir vaqtning o'zida ko'plab holatlarni ifodalay oladi. Kvant kompyuterlari klassik kompyuterlar uchun imkonsiz bo'lgan murakkab masalalarni qisqa vaqt ichida yechishi mumkin. Shor algoritmi yordamida katta sonlarni faktorlash, Grover algoritmi yordamida ma'lumot qidirishni tezlashtirish bunga misol bo'la oladi[4].

Quyida kvant texnologiyalarini tasvirlovchi grafik va chizmalar keltirilgan:

Amaliy qo'llanilishi:

Kvant texnologiyalarining amaliy imkoniyatlari juda keng:

- Farmatsevtikada yangi dori vositalarini ishlab chiqishda molekulyar modellashtirish;
- Transport va logistika sohasida optimal yo'l tarmoqlarini ishlab chiqish;
- Sun'iy intellekt va mashina o'qitishni yangi bosqichga ko'tarish;
- Energetika va materialshunoslikda samaradorlikni oshirish.



2-rasm. Kubitning kvant holati Bloch sferasi modeli orqali ifodalangan

Texnologiya asrida kvant kommunikatsiyalari va kvant kompyuterlari ilm-fan va jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelgusida kvant internetining shakllanishi va kvant kompyuterlarning amaliyotga keng joriy etilishi insoniyatning axborot xavfsizligi, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Nielsen M. A., Chuang I. L. Quantum Computation and Quantum Information. Cambridge University Press, 2010.

[2] Bouwmeester D., Ekert A., Zeilinger A. The Physics of Quantum Information. Springer, 2019.

[3] Preskill J. Quantum Computing in the NISQ era and beyond. Quantum, 2018.

[4] Gisin N., Thew R. Quantum communication technology. Nature Photonics, 2007.

ZAMONAVIY OPTIK TOLA VA OPTOELEKTRONIKA TEXNOLOGIYALARINING QO’LLANILISHI

Z.M.Soxibova
Andijon davlat texnika instituti, “MICHA” kafedrasi dotsenti
Andijon, O‘zbekiston
e-mail: zarbek90@mail.ru

Optoelektronika texnologiyasi - bu fotonik texnologiya va elektron texnologiyalarning kombinatsiyasi natijasida hosil bo’lgan yangi texnologiya. Optoelektronika yorug’likni elektr signallariga va aksincha aylantiradigan qurilmalar va tizimlarni o’rganish va qo’llanishni o’z ichiga oladi. Optik tolalar quyosh batareyalarida, optoelektronikaning zamonaviy texnologiyalarida va global ishchi kuchida hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Optik tolali va optoelektronika texnologiyalarining dinamik rivojlanishi iqtisodiyot hamda sanoatning ko’plab tarmoqlarida optik tolali va optik tolali datchiklarning tobora ko’proq qo’llanilishiga olib keldi: elektrotexnika va telekommunikatsiyalar, sanoat va robototexnika, tibbiyot va oziq-ovqat sanoati. Optik tolali texnologiya sohasidagi yechimlar asosan o’lchash va nazorat qilish uskunalari sohasida, shuningdek, uzatish vositasi shaklida qo’llaniladi. **O**ptik tolali sensor bu o’lchash yo’lining boshida joylashtirilgan transduser yoki transduserlar to’plamidan boshqa narsa emas. Ushbu transduserlar o’lchangan miqdorning qiymatini aniqlashi va uni chiqish signalining parametrlarini o’zgartirishga aylantirishi mumkin. Optik tolada oqayotgan yorug’lik to’lqinining ichki modulyatsiyasi tashqi omil to’g’ridan-to’g’ri optik tola bilan o’zaro ta’sir qilganda sodir bo’ladi. Biroq, tashqi modulyatsiya optik toladan olingan yorug’lik to’lqiniga ta’sir qiladi.

Optik tolali datchikning rivojlanishi [1] optoelektron va optik tolali aloqa sanoati bilan bog’liq texnologiyaning asosiy foydalanuvchisi bo’lgan. O’tgan o’n yillardan beri turli xil qurilmalar, shu jumladan optik tolali giroskoplar, harorat, bosim va tebranish sezgichlarini va kimyoviy zondlar optik tolali datchiklar texnologiyasini ishlab chiqish bosqichi takomillashdi. Optik tolali datchiklarning imkoniyati akustika, elektr va magnit maydonlarini o’lchash tarmoqlarida namoyon bo’ladi [2]. Optik tolali datchiklarning yutug’i shundaki, ular harorat, bosim, tezlanish, aylanish, namlik kabilarni aniqlovchi, kimyoviy o’lchovlarni amalga oshiruvchi asboblar vazifasini bajara oladi. Dielektrik xususiyati tufayli ular yuqori kuchlanishli, yuqori haroratli yoki korroziyali muhitda ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, bu datchiklar aloqa tizimlari bilan aloqada bo’ladi va masofadan boshqarish imkoniyatiga ega bo’ladi.



a)



b)

1-rasm. Optik tolali sensorlarning turlari. Ichki (a)va tashqi (b) qurilmalari

Optik tolali sensorlar robototexnika va avtomatlashtirish sohasidagi zamonaviy ilovalarda qo'llaniladi. Optik tolali texnologiya an'anaviy optik yechimlarga qaraganda beqiyos yaxshi bo'lib chiqdi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat: uni bezovta qiladigan EM maydonlariga sezgir bo'lmagan yorug'lik to'lqinlarining uzatilishi, minimal yo'qotishlar, shuningdek, modulyatsiyalangan yorug'lik nurlarining keng diapazonidan foydalanish imkoniyati [3-4].

Optik tolali datchik- bu o'lchangan ob'ektning holatini o'lchanadigan yorug'lik signaliga aylantiruvchi datchik. Optik tolali datchikning ishlash prinsipi shundaki, yorug'lik manbasidan tushadigan yorug'lik nurini optik tolalar orqali modulyatorga yuboradi va modulyatorda tashqi o'lchangan parametrlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazib, yorug'likning yorug'lik intensivligi, to'lqin uzunligi kabi optik xususiyatlarini hosil qilib, chastota, faza, qutblanish holati va boshqalar aniqlanadi. U o'zgaradi va modulyatsiya qilingan optik signalga aylanadi, so'ngra optik tola orqali optoelektronik qurilmaga yuboriladi va o'lchov parametri demodulatordan so'ng olinadi. Butun jarayonda yorug'lik nurlari optik tolalar orqali kiritiladi, so'ngra modulator orqali o'tgandan keyin chiqariladi. Optik tolaning vazifasi birinchi navbatda yorug'lik nurini uzatish, ikkinchidan optik modulyator vazifasini bajaradi [5].

Xulosa-hozirgi paytga kelib optik tolaga asoslangan texnologiya va ilovalarning rivojlanishi juda tez rivojlanib bormoqda. Shunday qilib, u o'lcham va shakldagi o'zgarishlarni va optik (sinishi indeksi, rejimni konvertatsiya qilish) o'zgarishlarning tabiati va kattaligiga qarab katta yoki kichik darajada o'zgaradi. Aloqa ilovasi har doim ishonchli bo'lishi va uzatiladigan signallarga har xil ta'sirini kamaytirish juda muhim. Boshqa tomondan, optik tolali datchiklarda sezilarli joyni tekshirish va tashqi ta'sirga javoban ataylab kuchaytiriladi, natijada optik nurlanishning o'zgarishi tashqi buzilishning o'lchovi sifatida ishlatilishi mumkin.

Adabiyotlar

[1] Kashyap, R., "Photosensitive Optical Fibers: Devices and Applications", Op. Fiber Tech.,Vol.1, 1994.

[2] R. Narayanaswamy, O. S. Wolfbeis, Optical Sensors: Industrial, Environmental and Diagnostic Applications, 2004.

[3] P. Ficocelli, "Fiber optic Thermal Monitoring Systems for SAGD", PTAC Technology Information Session, March, 2008

[4] Keiser, G. (1991). Optical Fiber Communications. (2ed), McGraw-Hill, ISBN 0070336172, NewYork USA.

[5] Ghatak, A. & Thyagarajan, K. (2000). "An Introduction to Fiber Optics", Cambridge University Press, ISBN 0521571200, New York USA.

TEXNOLOGIYA ASRI: KVANT ALOQA VOSITALARI VA KVANT KOMPYUTERLARI.

F.Sultonova -Andijon davlat texnika instituti katta o’qituvchisi
feruzakhonsultonova3@gmail.com

Dunyo bo’ylab bejizga XXI asrni “Axborot va texnologiyalar asri” deb nomlashmaydi. Insoniyat taraqqiyoti tobora yangi bosqichlarga ko‘tarilib, ilgari imkonsizdek tuyulgan g‘oyalar haqiqatga ylanmoqda. Bugungi kunda fan va texnika oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri — hisoblash quvvatini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlashdir. Shu bois, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va kompaniyalari kvant texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga katta e’tibor qaratmoqda. Ularning eng muhim yutuqlari sifatida kvant aloqa vositalari va kvant kompyuterlarini ko‘rsatish mumkin.

Kvant texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanish omillari. Kvant texnologiyalari XX asr boshlarida shakllangan kvant mexanikasi nazariyalariga asoslanadi. Maxsus nurlanish nazariyasi, Geisenbergning noaniqlik prinsipi, Shredinger tenglamalari kabi ilmiy yutuqlar elektronlar, fotonlar va boshqa mikro zarralarning noodatiy xususiyatlarini ochib berdi. Bugungi kunda kvant mexanikasi nazariyalari amaliy texnologiyalar asosiga aylanib, quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

Kvant hisoblash (Quantum Computing);

Kvant aloqa (Quantum Communication);

Kvant simulyatsiya;

Kvant sensorlari va metrologiyasi.

Bu yo‘nalishlar orasida hisoblash va aloqa tizimlarining kvant texnologiyalariga asoslanishi jamiyat va iqtisodiyot uchun eng muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi kutilmoqda.

Kvant aloqa vositalari: an’anaviy aloqa tizimlarida yuborilgan signallar shifrlansada, ularni maxsus algoritmlar yordamida buzish mumkin.

Shu sababli axborot xavfsizligi global miqyosda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Kvant aloqa voaitalari esa bu muammoni mutlaqo yangi darajada hal qiladi. Kvant mexanikasida mavjud superpozisiya va noaniqlik prinsipi asosida uzatilayotgan fotonlarning holatini yashirincha o'lchash mumkin emas. Har qanday tashqi aralashuv signaldagi o'zgarish orqali darhol aniqlanadi. Bu esa kelajakda mutlaq xavfsiz aloqa tarmoqlarini yaratish imkonini beradi.

Amaliy misol: 2016-yilda Xitoy "Micius" nomli kvant sun'iy yo'ldoshini orbitaga chiqarib, dunyoda birinchi marta uzoq masofaga xavfsiz kvant aloqa kanalini o'rnatdi. Bu tajriba kelajakdagi kvant interneti uchun asosiy poydevor bo'ldi.

Kvant kompyuterlari: hisoblash quvvatida yangi bosqich. Klassik kompyuterlar 0 va 1 raqamlariga asoslangan bo'lsa, kvant kompyuterlari kubitlardan foydalanadi. Kubitlarning o'ziga xosligi shundaki, ular bir vaqtning o'zida bir nechta holatda bo'lishi mumkin (superpozitsiya) va ular o'zaro chalkashlik (entanglement) orqali bog'lanadi. Buning natijasida kvant kompyuterlari oddiy kompyuterlar uchun imkonsiz bo'lgan hisob-kitoblarni nihoyatda tez bajaradi.

Ilmiy va amaliy imkoniyatlari:

- Kriptografiya: an'anaviy shifrlash tizimlarini qisqa vaqtda buzish; yangi, yanada ishonchli kvant shifrlash usullarini yaratish.
- Kimyo va biologiya: murakkab molekulalarni modellashtirish orqali yangi dori vositalari yaratish.
- Sun'iy intellekt: katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashni tezlashtirish.
- Logistika va iqtisodiyot: optimal resurs taqsimoti masalalarini tez hal qilish.

Amaliy misol: 2019-yilda Google kompaniyasi "Sycamore" kvant protsessori yordamida klassik superkompyuter 10 ming yil davomida bajaradigan hisobni 200 soniyada amalga oshirdi. Bu hodisa "kvant ustunligi" (Quantum Supremacy) deb nomlanib, fan tarixida muhim bosqich bo‘ldi.

Fan va texnologiyaga ta’siri. Kvant texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat hisoblash va aloqa tizimlarini, balki butun jamiyatning rivojlanish paradigmasini o‘zgartiradi.

Tibbiyotda yangi dorilar va diagnostika usullari yaratiladi.

Kosmik tadqiqotlarda murakkab jarayonlarni tez hisoblash imkoniyati tug‘iladi.

Iqtisodiyotda xavfsiz moliyaviy tranzaksiyalar amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvida axborot xavfsizligi eng yuqori darajaga ko‘tariladi.

Xulosa. XXI asr ilm-fanida kvant texnologiyalari eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Kvant kommunikatsiyalari insoniyatni mutlaq xavfsiz aloqa tizimlari bilan ta’minlasa, kvant kompyuterlari hisoblash quvvatini keskin oshiradi. Hozirgi bosqichda bu texnologiyalar hali to‘liq amaliyotga joriy etilmagan bo‘lsa-da, ularning kelajakdagi ta’siri beqiyos bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nielsen M. A., Chuang I. L. *Quantum Computation and Quantum Information*. Cambridge University Press, 2010.

2. Bouwmeester D., Ekert A., Zeilinger A. *The Physics of Quantum Information*. Springer, 2012.

3. Preskill J. *Quantum Computing in the NISQ era and beyond*. Quantum 2, 2018.

4. Arute F. et al. *Quantum supremacy using a programmable superconducting processor*. Nature, 574, 2019.

5. Xitoy Fanlar akademiyasi nashrlari. *Quantum Experiments at Space Scale (QUESS)*, 2016.

POLIMER NANOSTRUKURALARDA GRAFEN HOSIL BO'LISHINING TERMIK VA LAZERLI STIMULYATSIYA MEXANIZMLARI

J.O. Sadullayev, M.E. Vapayev, I.Y. Davletov
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
e-mail: jurabek.s@urdu.uz

Ushbu ishda polimer materiallar ichida yuqori harorat va lazer energiyasining ta'siri ostida grafen qatlamlarining sintezi jarayonlari o'rganilgan. Termik stimulyatsiya jarayonida polimer molekulalarining yuqori haroratda karbonizatsiyalanishi va rekristallanishi natijasida ikki o'lchamli grafen strukturalari hosil bo'ladi. Tadqiqotlar bu jarayonlarning ilmiy asoslarini aniqlash va yangi yuqori samarali grafen asosidagi nanostrukturalar yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Ushbu ishda pikosoniyali lazer spektrining turli energiya oqimlarida, PI sirtida temperature o'zgarishini COMSOL Multiphysics dasturiy ta'minoti vositasida modeli qurilgan, mavjud texnologiyalar va lazer-polimer o'zaro ta'sir mexanizmlarini yanada chuqurroq anglashga qaratilgan. Lazer parametrlari va PI yuzasidagi sirt termal effekti o'zgarishlari batafsil tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlar lazer texnologiyalaridan foydalangan holda PI bazasidagi materiallarning funksional xususiyatlarini boshqarish, ularning elektron qurilmalardagi ilovalarini optimallashtirish uchun asos bo'lishi mumkin[1-3].

Ushbu tadqiqotda poliimid (PI) yuzasida pikosoniyali lazer spektri yordamida yuzaga keladigan termal o'zgarishlarni aniqlash maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot jarayoni COMSOL Multiphysics dasturiy ta'minoti yordamida modellashtirish asosida olib borildi. Simulyatsiya jarayonida pikosoniyali lazerning turli energiya oqimlari va ularning PI yuzasiga ta'siri o'rganildi. Lazer va materialning o'zaro ta'siri mexanizmi modellashtirilgach, PI yuzasida yuzaga kelgan temperaturaning vaqt va joy bo‘yicha taqsimoti tahlil qilindi.

Natijalar polimerlarning lazer bilan ishlov berilishi jarayonlarini optimallashtirish va elektron qurilmalardagi PI asosidagi materiallarning sifatini yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar shaklida qo‘llanilishi mumkin.
Ushbu tadqiqotning asosiy metodlari va vositalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

COMSOL Multiphysics dasturi orqali issiqlik tarqalishini modellashtirish;

Lazer impulsi parametrlarini aniqlash va ularni modellashtirishga kiritish;

PI materialinin issiqlik va fizik xususiyatlarini hisobga olish;

Termal ta’sir va uning yuzaning mikrostrukturalariga ta’sirini tahlil qilish.

1-jadval. Lazerli ishlov berish parametrlari

Belgilanishi	*Qiymati*	*Lazer nurlanishini parametrik kattaliklari*
f	10[kHz]	Chostatasi
E_p	125-160 [mkJ]	Impuls energiyasi
P_w	50[fs]	Impuls davomiyligi
D	150 [mkm]	Nur diametri
ε	0.8	Yutulish koeffitsiyenti
x_r	100[mkm]	Yo’naltiruvchi nuqta lazer nurining markazini ifodalaydi
x_d	100 [mkm]	Gauss lazer nurining standart og‘ishi
v	700 mm/s	Lazerli skanerlash tezligi

2-jadval. Polimid materialining dastlabki parametrlari

Belgilanishi	*Qiymati*	*Termal kattaliklar*
T_m	723 [K]	Erish temperaturasi
T_v	1173 [K]	Bug'lanish harorati
L_m	250 [J/g]	Erishning yashirin issiqligi
L_v	5000 [J/g]	Bug'lanishning yashirin issiqligi
β	5e-5 [1/K]	Termal kengayish koeffitsienti
γ	-3e-4 [N/m/K]	Sirt tarangligining harorat hosilasi
h_1	17 [W/m^2/ K]	Issiqlik uzatish koeffitsienti
ΔT	30 [K]	Egri chiziqning yarmi kengligi
T_a	293.15 [K]	Atrof-muhit harorati
T_i	293.15 [K]	Dastlabki harorat
H	193[µm]	Oddiy balandligi
W	750 [µm]	Oddiy kenglik
A	0.8	Lazer nurini yutish koeffitsienti

Natijalar va tahlil. Modellashtirish uchun polimidning parametrlari COMSOLE dasturiga kiritilgan. Kiritilgan parametrlar 2-jadvalda keltirilgan.



3-Rasm. *(a) 0,7 J/sm², (c) 0,9 J/sm² lazer oqimlari uchun o'zgaruvchan to'qnashuvlar bilan to'rtta impulsli nurlanish paytidagi harorat o'zgarishlarini tasvirlaydi.*

Poliimid (PI) yuzasida lazer energiyasi oqimining 0.7 J/sm² dan 0.9 J/sm² gacha o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan haroratning maksimal qiymati, 2000 K dan 2100 K gacha ko'tarilishi polimer sirtida yuzaga keladigan fizik-kimyoviy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu ko'tarilgan haroratlarda PI yuzasida grafen hosil bo'lishi va karbonizatsiya jarayonlari faol amalga oshadi.

Pikosoniyali lazer spektrining 0.7 J/sm² va 0.9 J/sm² energiya oqimlari ostida polimid (PI) sirtida yuzaga kelgan maksimal haroratlarning 2000 K va 2100 K ga ko'tariilishi natijasida yuzaga kelgan jarayonlar tizimi murakkab termik va kimyoviy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu harorat diapazonida PI sirtida karbonizatsiya va grafen qatlamlarining sintezi uchun zarur bo'lgan energiya sharoiti yaratiladi.

2000 K atrofida yuzaga kelgan harorat karbonizatsiyani boshlash va polimer molekulalarining termik parchalanishini faollashtirish uchun yetarli hisoblanadi. Bu jarayonda polimid molekulalaridagi kislorod va boshqa elementlar yo'qolib, yadro uglerod atomlari zichligining oshishi va qayta tashkil etilishi sodir bo'ladi. Bu termik jarayonlar natijasida yuqori sifatli, qattiq va ikki o‘lchamli grafen qatlamlari yuzaga keladi, ular nanometr o‘lchamda sirt bo‘ylab tarqaladi.

Natijada, pikosoniyali lazer spektrining optimal energiya oqimi va intensivligi PI sirtida yuqori sifatli grafen hosil bo‘lishini ta’minlab, elektron qurilmalardagi materiallarning barqarorligi va ishlash muddatini uzaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqot lazer asosidagi materiallarni modifikatsiyalash texnologiyalarini rivojlantirish va yangi avlod nanoelektronika vositalarini yaratishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Himmelbauer, T., et al., "Modification of Polyimide Surface Topography by UV Laser Pulses with Pulse Durations between 140 ns and 5 s," Applied Surface Science, vol. 285, pp. 209-217, 2013.
2. Dyer, C. K., et al., "Formation of Stable Conical Microstructures on Polyimide Surfaces Using UV Nanosecond Lasers," Journal of Applied Physics, vol. 110, no. 8, 2011.
3. Chuang, C., et al., "Saturation Phenomena in Picosecond UV Laser Ablation of Polyimide," Journal of Laser Applications, vol. 27, no. 3, 2015.
4. R. Geremia, D. Karnakis, and D. P. Hand, "The role of laser pulse overlap in ultrafast thin film structuring applications," *Appl. Phys. A*, vol. 124, no. 9, p. 641, Sep. 2018, doi: 10.1007/s00339-018-2045-z.

LAZER PLAZMASI HOSIL BO‘LISHIDA YUZAGA KELADIGAN FIZIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH

Vapayev Murodbek Ergashovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti. Urganch 220100, O‘zbekistan
murodbek.v@urdu.uz

Buguni kunda lazer nurlanishini moddalar bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida yuzaga keladigan fizik jarayonlarni aniqlash va fizik ma’nolarini tushinishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqori quvvatli, qisqa impulsli lazer nurlanishi bilan qattiq agregat holatdagi moddalarga ta’sir qilish orqali plazma hosil bo‘lishi va shu plazmaning optik husosiyatlarini o‘rganish, moddani sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilishga imkoniyat beradi. Lazer nurlanishi bilan sirtga ishlov berish, sirtni yangi optik, o‘tkazuvchanlik, namlanish kabi fizik husosiyatlarini ochishi bilan nanotexnologiyada keng qo‘llanilmoqda



1-rasm. Lazer pazmasini hosil bo‘lishi va sirt morfologiyasini o‘zgarishining fizik modellari. [1][2]

Lazer plazmasini hosil bo‘lishidagi fizik jarayonlarni modellashtirish (1-rasm) , samarali plazma hosil bo‘lishi uchun lazer parametrlarini optimallashtirish, plazma harorati va zichligini nazorat qilish, elementlarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish uchun lazer spektroskopiyasidek (LIBS) analitik usullarni takomillashtirish kabi asosiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, u materiallarni qayta ishlash usullarini, shu jumladan lazerli ablatsiyasi va nanostrukturalarni shakllantrishni yaxshilaydi. Bundan tashqari, modellashtirish litografiya uchun samarali plazma manbalarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlaydi, ilg'or tezlatgichlar uchun plazma dinamikasini tushunishni osonlashtiradi va keng ko'lamli fizik tajribalar o'rniga bashoratli simulyatsiyalarni amalga oshirish orqali eksperimental xarajatlarni kamaytiradi. Ushbu yutuqlar birgalikda lazerdan foydalanish spektroskopiya, materialshunoslik, nanotexnologiya va sanoatni taraqqiyotga olib keladi.

Adabiyotlar

[1] H. Tang *et al.*, "Confinement of laser plasma expansion with strong external magnetic field," *Plasma Phys. Control. Fusion*, vol. 60, no. 5, p. 055005, May 2018, doi: 10.1088/1361-6587/aab2e6.

[2] H. D. Vora, S. Santhanakrishnan, S. P. Harimkar, S. K. S. Boetcher, and N. B. Dahotre, "One-dimensional multipulse laser machining of structural alumina: evolution of surface topography," *Int. J. Adv. Manuf. Technol.*, vol. 68, no. 1–4, pp. 69–83, Sep. 2013, doi: 10.1007/s00170-012-4709-8.

PARAMETRIC SENSITIVITY OF HFO_2-BASED MEMRISTORS: COMSOL–MATLAB MODELING OF I–V CHARACTERISTICS

A.Q.Hasanov[1], Z.A.Avezmuratova[2], D.R.Rajapov[3], E.Sh.Xaitbayev[3], D.Q.Ismoilov[4]

[1,2,3]Urgench state pedagogical institute,Urgench, Uzbekistan

[4]Urgench state university named after Abu Rayhan Biruni,Urgench,Uzbekistan

asrorbek02@yahoo.com

Abstract

HfO_2-based memristors are promising candidates for next-generation non-volatile memory and neuromorphic computing. Their switching behavior, however, is highly variable due to sensitivity to material, thermal, and geometric parameters. In this study, we develop a free-energy–based numerical model of resistive switching using a hybrid COMSOL Multiphysics–MATLAB LiveLink framework. The model self-consistently solves coupled electrostatic and thermal fields and determines stable filament configurations through free-energy minimization.

1. Introduction

Earlier ion-drift and tunneling models captured partial aspects of the switching mechanism but lacked predictive accuracy [1-3]. A thermodynamic free-energy framework [5] has provided a more consistent description by incorporating both electronic and thermal contributions. Building on this approach, we employ a hybrid COMSOL Multiphysics–MATLAB LiveLink implementation to systematically analyze how electrical conductivity (EC) and specific heat capacity (SHC) govern resistive switching in HfO_2 memristors.

2. Methods

Resistive switching was described as a sequence of phase transitions governed by free-energy minimization. The total free energy of the system was expressed as:

$$F = \iiint \rho C_p \Delta T dV + \frac{1}{2}\iiint \epsilon |E|^2 dV + 2\pi r h \sigma_s + \pi r^2 h \Delta\mu$$

where ρ is density, C_p is specific heat capacity, ΔT the temperature rise, ϵ dielectric permittivity, E electric field, r and h filament radius and length, σ_s interfacial energy, and Δμ the chemical potential difference. These terms represent thermal, electrostatic, surface, and chemical contributions, respectively. Minimization of F with respect to filament radius (SET) or gap length (RESET) yields stable states [4].

The simulated device was a TiN/Hf/HfO_2/TiN stack with oxide thickness 5-10 nm and lateral radius 10 nm under axisymmetric geometry. COMSOL solved electric and thermal fields at each voltage step, and results were transferred to MATLAB via LiveLink. MATLAB minimized the free-energy functional and returned stable filament/gap configurations. Device current was then computed from the effective filament cross-section, and voltage sweeps in both polarities were used to reconstruct I–V loops.

Figure 1. The



Figure 2. The experimental IV of HfO

Electrical transport was solved using:

$$\nabla \cdot \boldsymbol{J} = 0, \quad \boldsymbol{J} = \sigma \boldsymbol{E}, \quad \boldsymbol{E} = -\nabla V,$$

and thermal transport with Joule heating was described by:

$$\rho C_p \frac{\partial T}{\partial t} - \nabla \cdot (k \nabla T) = \boldsymbol{J} \cdot \boldsymbol{E}$$

where *k* is thermal conductivity.

These PDEs were implemented in COMSOL Multiphysics.

geometry of device. based memristor

Figure 1 illustrates the geometry of the simulated device, while **Figure 2** presents the experimental I–V characteristics of HfO_2-based memristors reported in the literature [1]. These experimental data serve as a reference for validating our numerical results.

3. Results and Discussion

Figure 3 shows the simulated I–V characteristics of HfO_2 memristors for different values of oxide electrical conductivity (EC). Increasing EC significantly reduces the SET voltage and steepens the ON-state current rise. Physically, higher conductivity enhances local Joule heating at lower voltages, thereby lowering the energy barrier for filament nucleation. The RESET transition also shifts, but to a smaller extent, indicating that RESET is influenced by both conduction and heat dissipation. Importantly, at high EC values the hysteresis window narrows, suggesting that excessive conductivity compromises the stability between ON and OFF states. Figure 4 illustrates the influence of the specific heat capacity (SHC) of HfO_2 and sub-stoichiometric HfO_{2-x} (The unit is J/(kg*K)). Larger SHC values delay SET switching and increase threshold voltages, while lower SHC accelerates switching at reduced voltages. This occurs because higher SHC increases the thermal inertia of the oxide: more energy is required to raise the local temperature sufficiently for vacancy migration and filament growth. In contrast, low SHC allows rapid temperature rise under Joule heating, resulting in earlier switching. The RESET process also broadens at higher SHC values, reflecting slower thermal relaxation.





Figure 3. Simulated I–V curves for different values of electrical conductivity (EC) in HfO_2.

Figure 4. Simulated I–V curves for different values of specific heat capacity (SHC) in HfO_2 and HfO_{2-x}.

5. Conclusion

The study shows that electrical conductivity (EC) and specific heat capacity (SHC) are decisive factors in resistive switching. Higher EC lowers SET voltages by enhancing Joule heating, while higher SHC delays switching through thermal buffering. Their interplay explains both efficiency and variability observed in experiments. Controlling oxide conductivity and heat capacity is therefore as critical as ionic mobility for achieving stable and reproducible memristor performance.

References

[1] D. Niraula and V. G. Karpov, *Comprehensive numerical modeling of filamentary RRAM devices including voltage ramp-rate and cycle-to-cycle variations*, J. Appl. Phys. **124**, 174502 (2018). https://doi.org/10.1063/1.5042789

[2] D. Niraula and V. G. Karpov, *Heat transfer in filamentary RRAM devices*, IEEE Trans. Electron Devices **64**, 4106–4113 (2017). https://doi.org/10.1109/TED.2017.2741782

[3] D. Ielmini, *Modeling the universal set/reset characteristics of bipolar RRAM by field- and temperature-driven filament growth*, IEEE Trans. Electron Devices **58**, 4309–4317 (2011).

[4] V. G. Karpov and D. Niraula, *Free energy approach to filamentary RRAM switching*, Phys. Rev. Applied **8**, 024028 (2017). https://doi.org/10.1103/PhysRevApplied.8.024028

OPTOELEKTRONIKA TEXNOLOGIYASINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

T.A.Sobirova
Andijon davlat texnika instituti, O‘zbekiston
sobirovatursunoy319@gmail.com

Optoelektronika texnologiyasi - bu fotonik texnologiya va elektron texnologiyalarning kombinatsiyasi natijasida hosil bo'lgan yangi texnologiya hisoblanadi. Bular optik aloqa, optoelektron displey, yarimo'tkazgichli yoritish, optik saqlash, lazerlar va boshqa qo'llash sohalarini o'z ichiga olgan materiyadagi yorug'lik va elektronlarning gigant o'zaro ta'sirini va uning energiya konversiyasini o'rganish bilan bog'liq texnologiya axborot va aloqaning asosiy texnologiyalaridir.

Kundalik hayotda eng keng tarqalgan narsa bu LED displeydir. Ko’p LED mahsulot seriyasi mavjud. Foydalanish muhitiga ko’ra, u ikki toifaga bo’linadi: ichki biologi va tashqi biologi; Yashil va ko’k (RGB) uch rangli to’liq rangli ekran va boshqalar; displeyni boshqarish usuliga ko’ra, u aloqa ekrani va video biologi ekraniga bo’linadi. Bundan tashqari, LED displeylar chiziqli ekranlar, nuqta matritsali ekranlar, nuqta matritsali raqamli gibrid ekranlar va yo’l harakati o’zgaruvchan ma’lumot taxtalari kabi foydalanish xususiyatlariga ko’ra tasniflanishi mumkin. Turli xil ko’rsatkichlarga ega bo’lgan LED displeylarning har xil turlari moddiy tarkibi, ishlab chiqarish jarayoni va nazorat qilish texnologiyasi jihatidan juda farq qiladi va texnik ma’nodagi farq ham aniq [1].

LEDlar ko’pincha jamiyatimizning ish va hayotida qo’llaniladi:

- Qimmatli qog’ozlar savdosi, moliyaviy ma’lumotlar displeyi. Ushbu sohada ishlatiladigan LED biologi ekrani eng katta talabga ega bo’lib, LED biologi ekrani bozor ulushining deyarli 50 foizini tashkil qiladi va hali ham katta talab mavjud.

- Aeroportlar, stansiyalar va portlarda yo‘lovchilarga yo‘l-yo‘riq ko'rsatuvchi ma'lumotlarni ko'rsatish. Aeroport parvozi dinamik ma'lumotlarini ko'rsatish. Mening mamlakatimning fuqarolik aviatsiyasi aeroporti qurilishida biologi ekranlari uchun juda aniq talablar mavjud va LED biologi ekranlari parvozlarni ko'rsatish tizimlari uchun birinchi tanlovdir. Asosiy korpus sifatida LED displeyli axborot va radioeshittirish tizimi, poezdning kelishi va jo'nashini eslatish tizimi va chiptalar haqida ma'lumot tizimidan iborat bo'lgan yo'lovchi tashish markazining avtomatlashtirish tizimi texnologik rivojlanishning muhim qismiga aylandi va mening mamlakatimning temir yo'l stantsiyalari va portlarini o'zgartirish.

- Reklama vositalari. Reklama vositasi sifatida bitta katta ichki va tashqi LED displeyga qo'shimcha ravishda, klasterli LED displeyli biologi tizimlari va poezdning LED displeyli biologi tizimlari ham qabul qilindi va targ'ib qilindi.

- Performans va biologi. Keng ko'lamli LED displeylar ommaviy va siyosiy maqsadlarda jonli video eshittirishlar uchun tobora ko'proq foydalanilmoqda, jonli efirda va biologi ma'lumotlarini tarqatishda muhim rol o'ynaydi [2].

Hozirgi vaqtda optoelektronik texnologiya jadal rivojlanmoqda va ko'plab yangi chegara yo'nalishlari paydo bo'ldi, masalan, o'ta aniqlikdagi optika, hisoblash optikasi, mikro-nanooptika va boshqalar "va "kosmosni aniqlash", "okeanlarni aniqlash", "fotoelektrik biologi", "tibbiy salomatlik", "aqlli shahar" va boshqa sohalar keng ko'lamli ilovalarga ega bo'lib, ular milliy xavfsizlikni saqlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rag'batlantirish va ijtimoiy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sun'iy biologic kiberxavfsizlikni, tasvirni aniqlash dasturini, onlayn xarid qilish tajribasini va raqamli ravishda amalga oshiriladigan har qanday boshqa ilovalarni keskin yaxshilashi mumkin bo'lgan mashinani o'rganish vositalarining asosiy elementidir. Smart soatlar, ko'zoynaklar va tibbiy monitorlar kabi aqlli qurilmalar televizor va maishiy texnika kabi odamlarning kundalik hayotining muhim qismiga aylanib bormoqda. Odamlar ushbu aqlli qurilmalarga kunlik minimal qadamlar soniga rioya qilishlari, keraklidan kamroq kaloriya iste'mol qilishlari va ekran vaqtini cheklashlari uchun ishonishadi [3].

Rasm. Optroelektronika mahsulotlari.

Kelgusi yechimlar ushbu qurilmalarni yanada aqlli qiladi. Yo'naltirilgan tadqiqotga muhtoj bo'lgan ikkita yo'nalishga mobil qurilmalar uchun chipli o'lchovli integratsiyalangan spektrometrlar (spektrometrlar yorug'lik intensivligi-dagi o'zgarishlarni o'lchaydigan va tahlil qiluvchi asboblar) va robotli jarrohlik ilovalari uchun miniatyura 3D sensorlar va tasvirlash echimlarini o'z ichiga oladi. Optik ilovalar front-end zondlash va ishlab chiqarishga qaratilgan. Sanoat sohasida xarajatlarni pasaytirish, samaradorlikni oshirish va aqlli ishlab chiqarish talablarini qondirish uchun butun ta'minot zanjiri mustaqil nazoratini amalga oshirish biolog bilan birga sanoat ko'rish va sanoat kabi ilg'or mahsulotlarni qo'llashni jadallashtirish kerak. Sanoat stsenariylarida lazer uskunalari.

Chiplar ishlab chiqarish sohasidagi eng yirik kompaniyalar mijozlar talabini qondirish va chiplarning navbatdagi global taqchilligini oldini olish uchun bir nechta mintaqalarga yirik investitsiyalar e'lon qilishdi. 2022 yilda chip ishlab chiqarish sanoatining xarajatlari biolog ko'rsatkich bo'lib, global chip ishlab chiqaruvchilar to'liq yillik kapital xarajatlar uchun 150 milliard dollardan ko'p sarflashadi [4].

Optoelektronika texnologiyasi harbiy dasturlarda katta salohiyatga ega, ba'zilari paydo bo'ldi, ba'zilari hali ham kontseptual tadqiqot bosqichida va men ko'proq ishlab chiqilmaganidan qo'rqaman. Misol uchun, lazerlar tug'ilganda harbiylar tomonidan o'ylangan va tez orada tadqiqotga sarmoya kiritgan lazer qurollari. 1983 yilda AQSh prezidenti Ronald Reygan "Yulduzli urushlar" rejasini taklif qildi va lazer quroli ustuvor energiya quroli sifatida katta miqdorda sarmoya kiritildi. Lidar tadqiqotlari uzoq tarixga ega. Ko'plab prototiplar va tajribalar, shuningdek, ko'plab ilmiy tadqiqot mahsulotlari mavjud. Lazerlar va tegishli texnologiyalarning rivojlanishi bilan turli xil harbiy Lidarlar paydo bo'lishi kutilmoqda. Masalan, 3D tasvirlash lidar, kimyoviy va biologik urush agentlarini aniqlash radarlari, nishonni aniqlash lidarlari va boshqalar [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Груздев В. Е. *Оптоэлектроника: основы и приложения*. Москва: Радио и связь, 2016.

[2] Хашимов Ф. Ф. *Yarimo'tkazgichli optoelektron qurilmalar*. Toshkent: Fan, 2018.

[3] Baharuddin, M. A., et al. "Recent Advances in Optoelectronic Devices for Next-Generation Communication Systems." *Journal of Optical Communications and Networking*, 2022.

[4] O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi. *Optoelektronika va fotonika texnologiyalarining istiqbollari*. Toshkent, 2020.

[5] Yariv, A., & Yeh, P. *Photonics: Optical Electronics in Modern Communications*. Oxford University Press, 2007.

KVANT TEXNOLOGIYALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH OMILLARI

T.A.Sobirova

Andijon davlat texnika instituti, O'zbekiston

sobirovatursunoy319@gmail.com

Bugungi kunda kvant kommunikatsiyalari va kvant kompyuterlari nafaqat ilmiy doiralar, balki global iqtisodiyot, milliy xavfsizlik va raqamli jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynay boshladi. Kvant texnologiyalarning rivojlanishiga quyidagi omillar turtki bo'ldi:

- Raqamli texnologiyalarning murakkablashishi va yangi hisoblash quvvatlariga ehtiyoj.
- Global axborot xavfsizligini mustahkamlash zarurati.
- Nanotexnologiya va yuqori aniqlikdagi tajribalar asosida kvant effektlarini boshqarish imkoniyati.

Kvant kommunikatsiyalari kvant kriptografiyasi prinsiplari asosida shakllanadi. Ularning asosi bo'lib kvant superpozitsiyasi va kvant chalkashligi (entanglement) hodisalari xizmat qiladi. Kvant kommunikatsiyalari QKD (Quantum Key Distribution) – kvant kalitlarini taqsimlash orqali mutlaq xavfsizlikka ega aloqa kanallarini yaratish, kvant internet – kelajakda kvant tugunlari orqali global xavfsiz axborot tarmog'ini shakllantirish, harbiy va davlat sirlarini himoyalash – klassik kriptografiyani buzib bo'ladigan sharoitlarda ham barqarorlik ta'minlash maqsadida qo'llaniladi [1].

Xitoyning 2016-yilda uchirilgan Micius sun'iy yo'ldoshi dunyodagi birinchi kvant aloqa tarmog'i loyihasidir. Kvant kompyuterlarning asosiy elementi kubит bo'lib, u klassik bitdan farqli ravishda "0" va "1" holatlarda bir vaqtda bo'lishi mumkin. Kvant kompyuterlari - kvant hisoblashlarga asoslangan zamonaviy kompyuterlardir. Kvant kompyuterlari, masalan, kriptografiyada juda keng qo'llanadigan katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish kabi ma'lum bir muammo va masalalarni oddiy kompyuterlariga nisbatan ancha tez bajaradi.

Mashhur amerikalik fizik Richard Feynman hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kvant hodisalaridan foydalanishni XX asrning oʻrtalaridayoq taklif qilgan edi, ammo oʻsha paytda bunday kompyuter, albatta, faqat chiroyli futuristik nazariya edi.

Deyarli barcha ma'lum kompyuterlar Tyuring nazariyasidan foydalanadi va aynan Benioff Tyuring kvant mashinasini yaratish mumkinligini nazariy jihatdan birinchi boʻlib asoslab bergan. Rus fizigi Yuriy Ivanovich Manin ham kelajakda ishlab chiqilishi mumkin boʻlgan kubit kompyuteriga oʻz hissasini qoʻshgan — kvant hisoblashlar gʻoyasini taklif qilgan va kengaytirgan. Ammo ishga yaroqli birinchi prototipni yaratish uchun oʻn yildan koʻproq vaqt kerak boʻldi. 1997-yilda olimlar Isaak Chuang, Nil Gershenfeld va Mark Kubinets hisoblashlarni bajara oladigan kvant kompyuterining taqdimotini oʻtkazdi. U Shor algoritmi va yadro-magnit rezonansi tamoyillariga asoslangan. Kvantning birinchi modeli taqdim etilgandan soʻng koʻplab taniqli ilmiy va texnologik tashkilotlar oʻz prototiplarini ishlab chiqishni boshladi. Har bir olim va muhandislar jamoasining maqsadi kvant ustunligiga erishish edi. Kvant ustunligi — oddiy kompyuter yordamida bajarib boʻlmaydigan vazifalarga kvant kompyuteri yordamida yechim topish. Kvant ustunligi amallarning yuqori tezlikda bajarilishi ekanini tushunish kerak [2].

Bugungi kunga kelib kvant hisoblashlar shunchaki chiroyli "kelajak manzarasi" emas. Dunyodagi yetakchi texnologik kompaniyalar eng qiyin vazifalarni muvaffaqiyatli bajara oladigan mashinalarini taqdim etmoqda. Kvant hisoblash mashinalari poygasi ba'zida qurollanish poygasini eslatib yuboradigan darajada keskinlashadi. Har bir jamoa yanada kuchli va takomillashgan modelni taqdim etib, boshqalarni "quvib oʻtishga" harakat qilmoqda. Rossiya texnologiya sanoati 2024-yilning fevral oyida "Rosatom"

20 kubitli kompyuterni taqdim etdi. Uning aniqligi 95% ni tashkil etadi [3].



Rasm. Kvant kompyuteri.

Kvant kompyuterining keng qo'llanishiga to'sqinlik qilayotgan yana bir muammo — **dekogerensiya**. Zarrachalar odatdagi tashqi sharoitda o'z xususiyat-larini osongina yo'qotadi va bu hisoblash jarayonini buzadi. Atrof-muhit haroratining o'zgarishi vazifalarning bajarilishiga xavf soladi, shuning uchun olim va muhandislar kompyuterlarni tashqi dunyodan ajratishga majburdir. Hozircha buning uchun kuchli sovutishdan foydalaniladi: hech bir narsa zarrachalarni superpozitsiyadan chiqarib yubormasligi uchun tizim ichidagi harorat sun'iy ravishda mutlaq nolga tushiriladi. Olimlar kvant kompyuterlarini takomillashtirishni davom ettirmoqda, shunday ekan ular yanada ixcham va oddiy bo'lishi ehtimoldan yiroq emas [4].

Olimlarning barcha sa'y-harakatlari, kashfiyotlar, qozonilgan yutuqlarga qaramay, kvant hisoblash hali ham ommabop variant bo'la olmadi. Bu ko'proq qiziqarli texnologik yangilik bo'lib, uning asosiy salohiyati kelajakda namoyon bo'ladi. Ammo kun sayin kelajak tobora yaqinlashib kelmoqda. Masalan, Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo'limidagi A.V.Rjanov nomidagi yarimo'tkazgichlar fizikasi instituti direktori Aleksandr Vasilyevich Latishevning fikriga ko'ra, qattiq tanali yarimo'tkazgich qurilmalarga o'tish kvant hisoblashni ekzotikadan samarali vositaga aylantiradi. Supero'tkazgichlarda ishlaydigan kvant kompyuterlari maxsus harorat sharoitlariga, murakkab va noqulay boshqaruv tizimlariga muhtoj. Aleksandr Vasilyevichning so‘zlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda mikroelektronika qattiq tanali nanofotonika bilan tobora birlashib bormoqda. Nanofotonika — fotonlarning nanometrli obyektlar bilan o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan fizik hodisalarni o‘rganadigan faol rivojlanayotgan fan. Bu fanning amaliy jihati qattiq tanali va organik lazerlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq.

Yarimo‘tkazgichlar fizikasi institutida kvant hisoblashlar bazasini yaratish borasida ishlar olib borilmoqda. Masalan, bu yerda kvant kompyuterining kubitlari sifatida sovutilgan yakka atomlar ishlatiladi. Rubidiy atomi bilan muvaffaqiyatli tajribalar o‘tkazishga erishilgan. Kelajakda “ommaga” chiqarish uchun kvant mashinasini yaratishni soddalashtirish va uni arzonlashtirish imkoni tug‘iladi [5].

Texnologiya asrida kvant kommunikatsiyalari va kvant kompyuterlari insoniyatni yangi sivilizatsion bosqichga olib chiqmoqda. Ularning amaliy qo‘llanilishi axborot xavfsizligi, hisoblash quvvatlari va ilmiy izlanishlarda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ularni rivojlantirish katta ilmiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] G‘ulomov A., Usmonov A. Zamonaviy fizika va kvant texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2022.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Kvant texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari. – Toshkent, 2021.

[3] The Year of Quantum: From concept to reality in 2025 — McKinsey Quantum Technology Monitor, 2025.

[4] Progress Toward Practical Areas of Quantum Technology — CSIS (Center for Strategic & International Studies), 2025.

[5] Quantum technologies need big investments to deliver on their big promises — Jian-Wei Pan, Nature, 2025.

"YORUG'LIKNING ASOSIY TARKIBI"

Katta o'qituvchi Xoliqov Alimardon Sultonovich

Andijon davlat texnika instituti

holikovsinsiltana@gmail.com

(tel: +998 97 834 8505)

Yorug'lik manbai, bu biz uchun sodda qilib aytganda Quyosh hisoblanadi. Inson hayoti uchun eng yaqin va eng zararli yorug'lik tabiatidagi energiya turlari ichida ba'zi nurlar (rentgen va h.o) hisoblanadi. Uzoq yillar davomida yorug'likning xossalari va ularni xosil qiladigan manbalarning xususiyatlari borasida bir qator ilmiy jumboqlarga duch kelingan.

Fotometriyada quyidagi kattaliklardan foydalaniladi:

– energetik kattaliklar: bunda yorug'likning energetik xarakteristikalari uning qabul qiluvchiga ta'sirini e'tiborga olinmay qaraladi;

– yorug'lik xarakteristikalari: bunda yorug'likning ko'zga yoki boshqa qabul qiluvchilarga fiziologik ta'siri e'tiborga olinib, uning kuchi aynan shu ta'sirga asosan baholanadi.

Yorug'lik nurlarini o'rganish borasida buyuk ingliz fizigi Issak N'yuton ham bir qanca ishlarni amalga oshirgan va ajoyib natijalarga erishgan. N'yotonning bu yorug'lik xossalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishga Dekart (1620-1630 yillar) o'tkazgan tajriba sabab bo'ldi va e'tiborini tortdi.



U yorug'likni shisha prizmaga yo'naltirgan va prizmadan 5 cm uzoq'likda ekran vazifasini bajaruvci oq qog'ozda yorug'lik ikkiga (qizg'ish va sariq) ajralganini ko'rgan. Sh bilan Dekart yorug'likning sinish qonunini ifodalab berdi.

Bu tajribani kuzatgan N'yuton asosiy e'tiborini prizma va ekran vazifasini bajargan oq qog'z oralig'idagi ya'ni, obektlar orasidagi masofaga qaratdi. N'yuton o'z tajribasida qorong'ulashtirilgan xonaga tirqish orqali yorug'lik nurini kiritdi va unga prizmani tutdi. Prizma va ekran (devor) oraliginin 5-6 metrgacha uzoqlashtirdi. Shunda prizmadan chiqayotgan nur ekran(devor)da 7 xil rangga ajraganligini kuzatdi. Yorug'lik prizmadan o'tganda paydo bo'lgan har xil ranglar to'plamini N'yuton spektr (lotinca spectrum- ko'rish) deb atadi. (1-rasm)

Asosiy ranglar va ularning xususiyatlari

Qizil (≈700 nm) – eng katta to'lqin uzunligiga ega, energiyasi kichikroq. Issiqlikni ko'proq ifodalaydi.

To'q sariq (≈620 nm) – iliqlik va yorqinlik ramzi.

Sariq (≈580 nm) – ko'zga eng sezilarli ranglardan biri.

Yashil (≈530 nm) – tabiatda eng ko'p uchraydigan rang, ko'z uchun eng qulay.

Ko'k (≈470 nm) – sokinlik va sovuqlik ramzi.

Havo rang (indigo) (≈440 nm) – qisqa to'lqinli yorug'lik.

Binafsha (≈380 nm) – eng kichik to'lqin uzunligiga ega, energiyasi eng katta.

N'yuton tirqishni qizil rangli shisha bilan berkitganda devorda faqat qizil rang dog'ini, yashil shisha bilan berkitganda devorda faqat yashil dog' bo'lishini kuzatdi. Shu bois u nurlarning sinishini ham o'rgandi. Buning sababini N'yuton bilmasada lekin, bu tajribada oq rang murakkab rang ekanligini ko'rsatdi. Spektr (ranglar dastasi) 7 xil rangdan iborat ekan: qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsha. N'yuton oq rang murakkabligini isbotlovchi ko'plab tajribalarni o'tkazgan. Bu tajribalarning zamonaviy taxlilini quyidagicha tushintirish mumkun; birinchi prizmadan o’tib ranglarga ajralgan yorug’lik yo’liga birinchi prizmaga nisbatan 180^0 ga burilgan ikkinchi prizma qo’yilsa, bu prizma yig’uvci linza vazifasini bajarib, undan chiqayotgan yorug’lik dastasi to’plangan nuqta oq rangga aylanadi.

XVII asrning oxorida yorug’likning tabiati haqida ikkita o’zaro qarama-qarshi nazariya maydonga keldi: bulardan biri Nyuton yaratgan ko’rpuskuliyar nazariya va ikkinchisi: Gyuygensning to’lqin nazariyasidir. Yoruqlikning ko’rpuskuliyar nazariyasiga binoan, yorug’lik juda kata tejlik bilan tarqaluvchi juda kichik moddiy zarralar (korpuskulalar) oqimidan iboratdir. Yorug;likning rang ta’siri ko’rpuskulalarning oqimi bilan tushuntirilgan: Eng yirik ko’rpuskulalar qizil ranglinurni, eng maydalari esa binafsha rangli nurni hosil qiladi.

1873- yilda ingliz olimi J. Maksvell yorug’likning $c=3*10^8$ m/s tezlik bilan tarqaladigan elektromagnit to’lqinlardan iborat ekanligini nazariy jixatdan isbotladi. Bu nazariyani H. Hertz tajriba yo’li bilan tas-diqlab berdi.

Bu soxada nemis fizigi Vilgelm Vin ning qo’lga kiritgan yutuqlari juda samaralidir. 1893-yilda u o’zining qizigan jism nurlanishini *spektrlar bo’yica* taqsimlanishi to’g’risidagi ilmiy ishlarini e’lon qildi. V. Vin qizigan jismlarning temteraturasi ortishi bilan nurlanish rangi ham o’zgara borishini matematik ifodalar bilan ko’rsatib berdi.

Yoruglikni o’rganish bo’yica buyuk nimis Albert Eynshteyn 1905-yilda dadil qadam qo’ydi. Taniqli fizik M. Plank yorug’likni alohida-alohida portsiyalardan iborat ko’rinishda tarqalishi to’g’risidagi fikrni olg’a surgan bo’lsa, A. Eynshteyn yorug’likni kvant tizimiga ega ekanligini va bu narsa yorug’lik kvanti oqimi (fotonlar)dan iboratligini ko’rsatib berdi.

1928- yilda Hindistondagi Kalkutta universiteti ilmiy xodimi Candrasekxara Raman o’z shogirdlari bilan yorug’likning turli moddalardan o’tgandan keying spektri tarkibini o’rganish davomida asosiy spektrdagi qizil va ko'k ranglarga yaqin joyda yangi spetr ciziqlari paydo bo'lganligini aniqlagan. Keyinchalik bu fizik hodisa <<Raman effekti>> deb nomlangan.

Yorug'likning yangi xossalarini o'rganish borasidagi kashfiyotlar e'tiborsiz qolmadi. 1911-yil V. Vin, 1918-yil M. Plank, 1921-yil A. Eynshteyn, 1923-til R. Milleken, 1927-yil A. Kompton va 1930-yil C. Ramanlar yorug'likning xossalarini o'rganish bo'yicha yaratgan buyuk kashfiyotlari ucun fizika sohasidagi Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Yorug'lik bilan bog'liq yangi kashfiyot va ixtirolar yaratish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Duntoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham bu borada katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu yorug'likni o'rganish borasida yozilgan ilmiy maqola, yorug'lik xossalari va tabiatiga qiziquvci o'quvchilarning o'qib o'rganishlari ucun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. О.Ахмаджонов. «Физика» курси II кисм. Электр ва магнетизм. Т. Ўқитувчи, 1981 yil.

2. А.А.Детлаф, Б.М.Яворский. "Курс физики". М.1989.

3. Т.И.Трофимова. Курс физики. М. 1985 г.

4. Физическая энциклопедия. Под редакцией А.М. Прохорова. Москва, 1990 й.

5. Физический энциклопедический словарь. Под редакцией А.М.Прохорова. Москва, 1983 г.

DESIGN AND ANALYSIS OF A PHOTONIC CRYSTAL FIBER-BASED BIOSENSOR FOR REFRACTIVE INDEX DETECTION

[1]D.R.Jumanazarov, [1]A.R.Khaydarboyev, [2]A.Q.Khasanov, [3]B.U.Allaberganova, [1]N.N.Ismailova

[1]Urgench State University after named Abu Rayhan Biruni

[2]Urgench state pedagogical institute

[3] Academic Lyceum of the Urgench Branch of the TMA

ahaydarboyev@gmail.com

Abstract. This paper explores the design and analysis of a photonic crystal fiber (PCF)-based biosensor for refractive index (RI) detection. The study emphasizes structural modifications and their effects on key optical properties such as confinement loss and dispersion. Utilizing COMSOL Multiphysics for simulations [8], the results demonstrate the sensor's capability for RI detection, particularly for analytes with an RI of 1.39. Graphical representations of the confinement loss and dispersion relationship are provided to illustrate the findings[1].

Figure 1. Cross-sectional view of the sensor



Figure 3. The dispersion relationship fundamental core mode as a function of wavelength for an analyte with a RI value of 1.39

I. Introduction. Photonic crystal fibers (PCFs) have become pivotal in sensing applications due to their versatile design and ability to guide light effectively. PCF-based biosensors are especially useful in detecting changes in the RI of analytes, which is critical for biochemical, environmental, and industrial applications[2,3]. This paper presents a modified PCF structure designed to improve sensitivity and reduce loss, with a focus on its geometrical and material parameters (Figure 1).

II. Sensor Structure. The biosensor is based on a hexagonal PCF structure with an asymmetric arrangement of air holes and a designated analyte channel. The structural modifications include variations in the air hole diameters and spacing to optimize light guidance and interaction with the analyte region. The dimensions and arrangement of the air holes directly influence the confinement of the fundamental core mode, which is critical for accurate RI detection. Key parameters defining the PCF structure are summarized in Table 1. These include the dimensions of the air holes, the pitch (spacing between air holes), and the analyte channel's location [4].

Table 1. Key Geometrical Parameters

Parameter	Value	Description
Air hole radius	2.0 µm	Radius of air holes in the cladding
Pitch (Λ)	5.5 µm	Distance between adjacent air holes
Analyte channel	Center	Region for RI measurement

III. Simulation Results

The fundamental core modes for x and y polarizations were simulated and analyzed using COMSOL Multiphysics. The results indicate strong confinement of light within the core, with minimal leakage into the surrounding cladding. This confinement is essential for enhancing the sensor's accuracy and sensitivity (Figure 2).



Figure 2. The fundamental core mode for both x and y polarizations

For the purpose of modeling the dispersion of the supplementary material, fused silica, the Sellmeier dispersion formula has been used (1):

$$n(\lambda) = \sqrt{1 + \frac{B_1\lambda^2}{\lambda^2 - C_1} + \frac{B_2\lambda^2}{\lambda^2 - C_2} + \frac{B_3\lambda^2}{\lambda^2 - C_3}} \qquad (1)$$

The dispersion relationship of the fundamental core mode as a function of wavelength was examined for an analyte with an RI of 1.39. The results, depicted in Figure 1, highlight the wavelength-dependent phase velocity of the core mode, demonstrating the sensor's ability to detect subtle RI variations (Figure 3). Confinement loss was evaluated to quantify the attenuation of the guided mode. Figure 2 shows the confinement loss spectrum, where a distinct trend is observed for the analyte with an RI of 1.39. The modified structure exhibits reduced confinement loss compared to earlier designs, showcasing the effectiveness of the structural adjustments [5] (Figure 3). The simulation results demonstrate that the modified PCF structure effectively confines the fundamental core mode while maintaining low confinement loss. The dispersion relationship further validates the design's suitability for RI detection. These findings suggest that the proposed sensor can be employed in various applications requiring high sensitivity and precision.

IV. Conclusion. A PCF-based biosensor with structural modifications was designed and analyzed for RI detection. The study focused on the fundamental core mode and dispersion relationship, achieving promising results for an analyte with an RI of 1.39. Future work could involve experimental validation and extending the design for multi-parameter sensing.

6. References

1. Russell, P. St. J. "Photonic Crystal Fibers." *Science*, vol. 299, no. 5605, 2003, pp. 358–362.
2. Knight, J. C., et al. "Photonic Band Gap Guidance in Optical Fibers." *Science*, vol. 282, no. 5393, 1998, pp. 1476–1478.
3. Saitoh, K., & Koshiba, M. "Numerical Modeling of Photonic Crystal Fibers." *IEEE Journal of Quantum Electronics*, vol. 38, no. 7, 2002, pp. 927–933.
4. Md. Arafat Rahman., et al. "A Photonic Crystal Fiber Based Asymmetric Slotted Structured Highly Sensitive Refractive Index Plasmonic Biosensor. *Journal of Sensor Technology*, 2022, 12, 1-17.
5. Kumar, N., et al. "Refractive Index Sensors Based on Photonic Crystal Fibers: A Review." *Optical Fiber Technology*, vol. 19, no. 3, 2013, pp. 327–335.

KVANT HISOBLASH VA SPAM FILTRLASH ALGORITMLARI

I.X.Normatov[1], M.N.Atajonov[2]

[1]Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

[2] Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O‘zbekiston

e-mail: muzaffar19910627@gmail.com

Annotatsiya: Spam xabarlar zamonaviy raqamli muhitdagi asosiy xavfsizlik muammolaridan biri bo‘lib, millionlab foydalanuvchilarning ma’lumot xavfsizligiga tahdid soladi. Hozirda spamni aniqlash uchun an’anaviy sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlari qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, kvant hisoblash texnologiyalarining rivojlanishi bu sohada sifat jihatdan yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ushbu tezis kvant hisoblashning spam filtrlash algoritmlariga ta’siri va potensialini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: spam, superpozitsiya, kvbit, Deep Learning, Machine Learning, QML algoritmlar.

Kvant hisoblash — bu an’anaviy (klassik) kompyuterlarning cheklovlarini yengib o‘tishga qaratilgan yangi avlod hisoblash paradigmasi bo‘lib, **kvant** mexanikasi qonunlariga asoslanadi. Uning asosiy maqsadi: ma'lumotlarni qayta ishlash va hisoblash jarayonlarini tezlashtirish [1].

1-jadval

Kvant kompyuterlari va klassik kompyuterlar husus iyatlari

Xususiyat	Klassik kompyuter	Kvant kompyuter
Birlik elementi	Bit (0 yoki 1)	Qubit (0 va 1 holatda bir vaqtda)
Hisoblash printsipi	Deterministik	Ehtimollik asosida

		(probabilistik)
Parallelizm	Cheklangan	Eksponentsial darajada
Misol	Core i7 protsessori	IBM Quantum, Google Sycamore

Spam xabarlar — zamonaviy aloqa tizimlarida eng ko‘p uchraydigan xavflardan biri. Bu xabarlar orasida phishing (firibgarlik), zararli dasturlar, reklama yoki aldovli havolalar bo‘lishi mumkin. Hozirgi paytda spamni aniqlashda an’anaviy mashina o‘rganish (ML) usullari qo‘llaniladi. Lekin, kvant hisoblash va ayniqsa Quantum Machine Learning (QML) bu sohaga yangi imkoniyatlar olib kelmoqda.

QML — bu kvant hisoblash texnologiyalari bilan birlashtirilgan mashina o‘rganish algoritmlari majmuasidir. Unda klassik kompyuter o‘rniga kvant kompyuter ishlatiladi yoki aralash (gibrid) yondashuv qo‘llaniladi [2,3].

QML asosiy afzalliklari:

- Ko‘p o‘lchamli (high-dimensional) ma’lumotlarni tezda tahlil qilish.
- Noaniq yoki shovqinli ma’lumotlar ustida ishlashga qobiliyat.
- Parallelizm orqali hisoblash tezligini oshirish.

QML yondashuvlari spam filtrlashda qanday ishlaydi?

Misollar:

2-jadval

QML yondashuvlari spam filtrlash

QML modeli	Qisqacha tavsif	Afzalliklari
Quantum Support Vector Machine	Spam va no-spam xabarlarni kvant fazoda tasniflaydi	Ko‘p o‘lchamli tasniflashda tezroq

(QSVM)		ishlaydi
Quantum k-Nearest Neighbors (Qk-NN)	O'xshash e-mail xabarlarni taqqoslaydi	Aniq spamlarni tez topadi
Quantum Neural Networks (QNN)	Spamni kontekst asosida aniqlash uchun chuqur o'rganishni ta'minlaydi	So'zlar o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tushunadi

QML modelining ishlash bosqichlari (spam misolida):

- Ma'lumotlarni tayyorlash. E-mail xabarlar matnli formatda olinadi va vektorlashtiriladi (TF-IDF yoki Word Embedding orqali).
- Qubitga kodlash (Encoding). Ma'lumotlar kvant holatiga o'tkaziladi (Amplitude encoding, Angle encoding, va h.k.).
- QML modelini qurish. QSVM, QNN yoki QkNN algoritmlaridan biri tanlanadi.
- Modelni o'qitish va sinovdan o'tkazish. Ma'lumotlar asosida model o'qitiladi va keyin yangi xabarlarni tasniflashda sinovdan o'tkaziladi.
- Natijalarni baholash. Aniqlik (accuracy), chaqqonlik (precision), yodga olish (recall), F1-score orqali baholanadi.

Afzalliklar va istiqbollar:

- Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan tez ishlash.
- Spam xabarlar ichidagi gizli yoki yangi naqshlarni aniqlash.
- Noaniqlik bilan samarali ishlash.

Xulosa: Kvant mashina o'rganish (QML) texnologiyalari spam xabarlarni aniqlashda yangi bosqichni boshlab beradi. Ularning parallel hisoblash, ko'p o'lchamli tahlil va noaniqlik ustida ishlash qobiliyatlari yordamida spam filtrlash tizimlari:

- Yangi spam shakllariga moslashuvchan bo'ladi,

- Katta xatoliklar ehtimolini kamaytiradi,
- Foydalanuvchi xavfsizligini kuchaytiradi.

Kelajakda QML asosidagi tizimlar korxonalar va ijtimoiy platformalarning asosiy xavfsizlik mexanizmi bo'lib xizmat qilishi mumkin [4].

Adabiyotlar

[1] Michael A. Nielsen & Isaac Chuang "Quantum Computation and Quantum Information", Cambridge University Press, 2010.

[2] **Peter Wittek "***Quantum Machine Learning: What Quantum Computing Means to Data Mining"* Academic Press, 2014

[3] Schuld, M., Sinayskiy, I.,"An introduction to quantum machine learning" *Contemporary Physics*, 56(2), 172–185.

[4] www.quantum-computing.ibm.com

KVANT MASHINA O'RGANISH (QUANTUM MACHINE LEARNING) VA SPAM FILTRLASH

M.N.Atajonov

Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O'zbekiston

e-mail: muzaffar19910627@gmail.com

Spam xabarlar — zamonaviy raqamli muloqot tizimlarida keng tarqalgan va foydalanuvchilarga jiddiy xavf tug'diradigan noxush holatlardan biridir. Spamlar orasida zararli dasturlar, firibgarlik havolalari, yolg'on reklama va ma'lumot o'g'riligi singari turli tahdidlar mavjud. Bugungi kunda bu muammoni hal etishda sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Biroq, ushbu klassik yondashuvlar katta hajmdagi va murakkab tuzilmali ma'lumotlar bilan ishlashda cheklovlarga ega.

Shu sababli, kvant hisoblash texnologiyalari bilan integratsiyalashgan Kvant mashina o'rganish (Quantum Machine Learning, QML) texnikasi yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ushbu tezisda QML konsepsiyasi va uning spam filtrlashdagi potentsiali tahlil qilinadi.

Kvant mashina o'rganish tushunchasi

QML — bu klassik mashina o'rganish algoritmlarining kvant kompyuterlar asosida ishlab chiqilgan modifikatsiyasidir. U kvbitlar, superpozitsiya, kvant dolanma (entanglement) va interferensiya kabi kvant mexanikasi tamoyillaridan foydalanadi.

QML'ning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

- Parallel hisoblash imkoniyati orqali ko'p o'lchamli ma'lumotlarni tez tahlil qilish.
- Noaniq va shovqinli ma'lumotlar bilan samarali ishlash.
- Murakkab naqshlarni aniqlashda an'anaviy modellardan tezroq ishlash.

Spam filtrlashdagi hozirgi yondashuvlar

Spamni aniqlashda klassik mashina o'rganish algoritmlaridan foydalaniladi:

- Naive Bayes, Logistic Regression
- Support Vector Machines (SVM)
- Random Forest, Deep Neural Networks (DNN).

Ular asosan e-mail matnini vektorlashtirish (TF-IDF, bag-of-words, embedding) orqali o'rganiladi. Biroq, bu yondashuvlar katta o'lchamli ma'lumotlar bilan ishlaganda hisoblashga ko'p vaqt talab qiladi va yangi turdagi spamlarni aniqlashda zaiflikka ega [1,2].

QML modellarining spam filtrlashda qo'llanilishi.

1-jadval

Spam filtrlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy QML algoritmlari

Model	Vazifasi
Quantum Support Vector Machine (QSVM)	Spam va no-spam xabarlarni tasniflash
Quantum k-Nearest Neighbors (QkNN)	O'xshashlik asosida spamni aniqlash
Quantum Neural Networks (QNN)	Murakkab matn naqshlarini aniqlash

Ushbu modellar kvbitlar asosida ishlaydi va spam xabarlarni aniqlashda klassik modellar bilan teng yoki undan yuqori aniqlikka ega bo'lishi mumkin.

Afzalliklar:

- Tezlik: Katta ma'lumotlar ustida tezroq ishlaydi.
- Aniqlik: Murakkab spam naqshlarini samarali ajratadi.
- Moslashuvchanlik: Yangi spam turlariga oson moslasha oladi [3].

Kvant mashina o'rganish texnologiyalari — spam xabarlar muammosiga qarshi kurashda istiqbolli va kuchli yechimdir. Kvant fazoda ishlovchi modellar orqali spamni aniqlash samaradorligi ortadi, aniqlik va tezlik esa an'anaviy yondashuvlardan ustun bo'ladi. Kelajakda QML texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, spamga qarshi kurashda **intellektual va kvantga asoslangan xavfsizlik tizimlari** asosiy vositaga aylanishi kutilmoqda [4,5].

Adabiyotlar

[1] Nielsen, M. A., & Chuang, I. L. (2010) "*Quantum Computation and Quantum Information*" Cambridge University Press.

[2] Wittek, P. (2014) "*Quantum Machine Learning: What Quantum Computing Means to Data Mining*" Academic Press

[3] Schuld, M., & Petruccione, F. (2018) "*Supervised Learning with Quantum Computers*" Springer.

[4] https://qiskit.org/textbook/

[5] https://docs.pennylane.ai

IKKI ELEMENTLI LAZER PLAZMASI KO'P ZARYADLI IONLARINI TADQIQ QILISH

A.I Japaqov*, M.E Vapayev, I.Y. Davletov

Urganch davlat universiteti. 220100. Urganch sh. X.Olimjon, 14 uy.

*azamat@urdu.uz

Hozirgi kunda lazer nurlanishi ta'sirida vakuum sharoitida bir va ikki elementli nishonlar sirtida hosil bo'lgan plazmaning mass-spektrlarini tahlil qilish orqali, plazma ko'p zaryadli ionlarining hosil bo'lish va kengayish bosqichlarida, nishon tarkibiga qarab, ko'p zaryadli ionlarning ionlashuvi, rekombinatsiyasi va tezlashuvining fizik jarayonlarini o'rganish juda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj, ko'p zaryadli ionlarning hosil bo'lishi va inertsial kengayishining ushbu fizik jarayonlarining samaradorligi ko'p zaryadli ionlarning chiqishi, zaryadi, energiyasi va fazoviy taqsimotini aniqlaydi. Tadqiqotda olingan natijalar ikki elementli lazer plazmasida ion oqimining hosil bo'lish jarayonlarini tushuntirish imkoniyatini beradi.

Ushbu ishida lazerli ionlashgan mass-spektrometriya usuli yordamida tajriba yo'li bilan bir elementli (C, Cu,Ti, Zr) va yengil gaz atomlari kiritilgan ikki $(CH_2)_n$, Cu[H], Eu_2O_3) va ko'p elementli Ti[H,N], Zr[H,N] nishonlardan hosil bo'lgan lazer plazmasi ko'p zaryadli ionlarining shakllanishiga lazer nurlanishi parametrlari va nishon tarkibining ta'siri o'rganildi. Shuningdek, lazer plazmasi ko'p zaryadli ionlarining hosil bo'lishida sodir bo'ladigan fizik jarayonlarga nishonning tarkibi va lazer nurlanishi parametrlarining bo'gliqligi aniqlandi. Bu o'z navbatida ko'p zaryadli ionlar hosil bo'lish samaradorligini oshirishga hamda lazer nuri parametrlarini optimallashtirish va nishon tarkibini o'zgartirish orqali yuqori zaryadli ionlar intensivligini boshqarish imkonini beradi.

Olingan mono- va ikki elementli lazer plazmasining yo‘naltirilgan ion nurlari plazma lazerlarini, ko‘p zaryadli o‘tishga asoslangan lazerlarni yaratishga va yuqori tartibli garmonikalar hosil qilish uchun asos bo‘lishi hamda ulardan murakkab element tarkibiga ega bo‘lgan moddalarni lazerli-energiya-massa-analizatori sifatida, rentgen va neytron nurlarining, ko‘p zaryadli ionlarning samarali lazerli manbalari sifatida foydalanish mumkin. Shu bilan birga, lazer nurlanishidan foydalangan holda yuqori intensivlik va energiyaga ega yuqori fokusli ion nurlarini yaratish imkoniyati ham ko‘rsatildi. Bu ularni turli xil texnik va texnologik maqsadlarda qo‘llash imkonini beradi, masalan: yupqa qavatlarni cho‘ktirish, sirt qatlamlarini lazer bilan toblash, radiatsiyaviy bardoshlilikni aniqlash va boshqalar.

GRAVITATSION LINZALAR, QORA TUYNUKLAR VA PLAZMA TA'SIRINING OLIY TA'LIMDA TALABALARGA TUSHUNTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Absalamov Tolib Turaboyevich[1], Matyoqubov Hikmatjon Shuhratovich[2], Avezmuratova Zebo Allayorovna[3], Jumaniyozova Maryamjon[4], Matniyozov Zokir Matyazovich[5], Xudoynazarova Durdona Ulug'bek qizi[6], Jumaniyozov Muzaffar Xushnudbekovich[7] Ro'ziyeva Mohigul Raxmatjon qizi[8]

[1,2,3,4,5,6,7,8]Urganch davlat pedagogika instituti, O'zbekiston, 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy

e-mail: zokir.matniyozov@gmail.com, tolib.77777@mail.ru

Annotatsiya. Biz mukammal suyuqlik qorong'i materiyasi mavjud bo'lgan holda, qora tuynuk atrofidagi bir xil va notekis taqsimlangan plazmaning gravitatsion zaif linzalashishga ta'sirini o'rgandik. Tadqiqotlarimizda olingan natijalar, ta'lim jarayonida turli pedagogik strategiyalarni qo'llashda qarama-qarshi ta'sirlarni tushunishning ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, mukammal suyuqlik qorong'i materiyasi va plazma parametrlarining ta'siri, zaif maydon rejimida o'quvchilarni yangi bilimlarga yo'naltirishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni tushunishga yordam beradi. Mukammal suyuqlik qorong'i materiyasi tasvir manbalarining umumiy kattalashishini pasaytirganidek, o'qituvchilar yangi mavzularni o'rgatishda, ba'zan ba'zi konseptsiyalarni soddalashtirish va murakkablashtirish zaruriyatini his qilishadi. Plazma esa teskari ta'sir ko'rsatib, kattalashishni oshirganidek, ta'limda turli metodlar va usullar orqali o'quvchilarning bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zilar: qora tuynuk, tortishish linzalari, zaif maydon rejimi, mukammal suyuqlik qorong'i materiya, pedagogik strategiyalar

Kirish. 1916-yilda Albert Eynshteyn tomonidan kashf etilgan umumiy nisbiylik nazariyasining eng muhim elementlaridan biri qora tuynuk soyasi va tortishish linzalarining (kuchli va zaif maydon rejimida) ta’siri hisoblanadi. Bu ta’sir fazo-vaqt egriligi tufayli tortishish obyekti yaqinida yorug‘lik nurlarining og‘ishiga asoslanadi. Umumiy nisbiylikdagi klassik tortishish linzalari keng miqyosda o‘rganilgan va sharhlarda batafsil tavsiflangan [1].

Pedagogik strategiyalarga kelsak, bu jarayonni o‘quvchilarga tushuntirishda yuqori darajadagi ilmiy mantiqni qo‘llash zarur. Masalan, egri fazo-vaqtdagi fotonlarning harakatini o‘rgatish jarayonida, o‘qituvchilar o‘quvchilarga tortishish linzalarining qanday ishlashini va bu jarayonning ilmiy nazariyalar bilan qanday bog‘lanishini ko‘rsatishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarga murakkab ilmiy tushunchalarni tushunishda yordam beradi va ularni chuqurroq o‘rganishga rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, ixcham obyekt atrofidagi plazma muhiti elektromagnit to‘lqin bilan o‘zaro ta’sir qilishi va natijada yorug‘lik nurlarining trayektoriyasiga ta’sir qilishi mumkin.

Xususan, Riflarda. [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12] olimlar turli fazo-vaqt metrikalaridagi fotonlar harakatini o‘rganishgan va ularning ba’zilari plazmaning tortishish kuchi bilan birga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. foton harakati. Bundan tashqari, dolzarb mavzulardan biri vakuumda kuchli tortishish linzalari; yaqinda kuchli linzalarning nazariy tahlili Riflarda turli fazo-vaqt geometriyalari uchun bir nechta mualliflar tomonidan o‘rganiladi. [13, 14, 15].

Qorong‘i materiya yoki qorong‘i energiya mavjudligiga ba’zi dalillar mavjud va standart kosmologik modelga ko‘ra [16] bizning koinotimiz asosan 68% qorong‘i energiya, taxminan 27% qorong‘i materiya va 5% barion moddalarni o‘z ichiga oladi [16]. Qorong‘i materiya barion bo‘lmagan materiyadir. Shunday qilib, qorong‘i energiya yoki qorong‘i materiya ixcham obyektlar yaqinidagi astrofizik jarayonlarga ta'sir qiladimi degan savol tug'ilishi mumkin.

To'g'ri, qorong'i materiya ko'rinmas, shuning uchun uni sinab ko'rish qiyin, lekin biz qorong'i materiya yoki qorong'i energiyaning ta'sirini kuzatishdan his qilishimiz mumkin. Shu vaqtdan boshlab, qorong'i materiya qora tuynuk fizikasi xususiyatlarini o'rganish uchun juda muhimdir. Ma'lumki, qora tuynuk atrofida qorong'i materiya yoki qorong'i energiya ham mavjud, shuning uchun biz Koinotdagi qora tuynuk atrofida zarrachalarning harakatini o'rganganimizda, ularning hissasi har doim juda muhim va qiziqarli bo'ladi. Eng so'nggi parchalanishda qorong'i energiya kvintessensiyasi bilan o'ralgan qora tuynuk batafsilroq ko'rib chiqiladi [17]. Kvintessensiya bilan o'ralgan qora tuynuk atrofidagi fazoviy vaqtning boshqa xususiyatlari Riflarda o'rganilgan. [18, 19].

Qorong'i materiya uchun muqobil model [16] da taklif qilingan, bu yerda kvintessens skalyar maydoni mukammal suyuqlik qorong'i materiya sifatida qabul qilinadi. Mukammal suyuqlik qorong'i materiya bilan o'ralgan qora tuynuk yechimi metrik funksiyalarda paydo bo'ladigan logarifmik atamani $\lambda \ln(r/|\lambda|)$ o'z ichiga oladi, bu parametr orqali qorong'i materiyaning o'zgarmas hissasiga mos keladi. Qorong'i materiya zaif o'zaro ta'sir qiluvchi massiv zarrachalar orqali hosil bo'ladi, degan fikrdan keyin Rif. [20], u logarifmik atamani o'z ichiga olgan shunga o'xshash qora tuynuk yechimi olingan.

Mukammal suyuqlik qorong'i materiya bilan o'ralgan qora tuynuk atrofidagi fazo vaqtining xususiyatlari [21] da o'rganilgan. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqotning asosiy hisasi plazma muhiti mavjudligida ixcham obyekt atrofida foton harakati yordamida qorong'i materiya uchun mukammal suyuqlik qorong'i materiya modelini sinab ko'rishdir. Gravitatsion linzalar tufayli yorug'lik burilish burchagining kuzatiladigan xususiyatlari ixcham obyekt atrofidagi qorong'i materiyani tavsiflovchi model va nazariyaga cheklovlarni olishga yordam beradi. Binobarin, bu bizga qorong'i materiyaning tabiatini va qorong'i materiyaning ta'siri bilan bog'liq astrofizik jarayonlarni tushuntirishga yordam beradi. Xususan, ushbu maqolada biz mukammal suyuqlik qorong'i materiya bilan o'ralgan qora tuynuk atrofidagi foton harakatini ko'rib chiqdik.

Mukammal suyuqlik qorong'i materiyaning yorug'lik egilishiga ta'sirini tahlil qilib, biz Mukammal suyuqlik qorong'i materiya ning mavjudligi yorug'lik burilishini kamaytirishga olib kelishini aniqladik. Bu mukammal suyuqlik qorong'i materiyaning fotonlarga salbiy tortishish ta'siri sifatida talqin qilinishi mumkin, chunki mukammal suyuqlik qorong'i materiya markaziy obyekt va fotonlarni o'rab oladi. Mukammal suyuqlik qorong'i materiya va markaziy obyektning fotonlariga tortishish ta'siri bir-biriga qarama-qarshidir. Ish quyidagicha tartibga solinadi: Bo'l. 1 Biz Shvartsshild qora tuynugida mukammal suyuqlik qorong'i materiya mavjudligida plazmaning burilish burchagiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. ichida. Biz mukammal suyuqlik qorong'i materiyaning turli parametrlari uchun tasvirni kattalashtirishni o'rganamiz.

Nihoyat, Biz olingan natijalarimizni muhokama qilamiz. Biz yorug'lik tezligini va tortishish doimiyligini (G = c = 1.) orqali aniqlaydigan birliklardan foydalandik.

1. Plazma borligida gravitatsion zaif linzalanish

Gravitatsion zaif linzalar, yorug'lik nurlarining tortishish kuchi ta'sirida egilishi hodisasi bo'lib, asosan qora tuynuklar va boshqa gravitatsion obyektlar atrofida kuzatiladi. Plazma borligi bu jarayonga qo'shimcha murakkablik kiritadi. Plazma, o'zining elektromagnit xususiyatlari bilan, yorug'lik nurlarining yo'nalishini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa tortishish linzalarining kuchini o'zgartirishi mumkin.

Pedagogik strategiyalarni ko'rib chiqishda, o'quvchilarga plazma va tortishish linzalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushuntirishda aniq vizual materiallar va modellarni ishlatish zarur. Masalan, plazmaning gravitatsion linzalashishga ta’sirini o‘rgatishda, o‘quvchilarga elektron simulyatsiyalar yoki vizual yordamchilar orqali plazmaning yorug‘likning yo‘nalishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatish samarali bo‘ladi.

Bu metodlar o‘quvchilarning ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglashlariga yordam beradi va murakkab ilmiy jarayonlarni soddalashtirishga imkon yaratadi.

1.1. Mukammal suyuqlik qorong‘i materiyada o‘lchov maydoni bilan minimal birlashtirilgan tortishish nazariyasi uchun harakat

Mukammal suyuqlik qorong‘i materiyasidagi o‘lchov maydoni bilan minimal birlashtirilgan tortishish nazariyasida harakat, o‘zining ilmiy ahamiyati bilan talabalar uchun murakkab, ammo qiziqarli mavzu hisoblanadi.

Ushbu nazariya, qora tuynuklar va boshqa gravitatsion obyektlar atrofidagi kuchli gravitatsion ta’sirlar bilan bog‘liq hodisalarni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonni pedagogik strategiyalar yordamida tushuntirishda, o‘qituvchilar o‘quvchilarga tortishish kuchlarining o‘zgarishi va o‘lchov maydonining roli haqidagi tushunchalarni yaxshilab yetkazishlari kerak. Masalan, ilmiy modellar yoki simulyatsiyalar orqali, o‘quvchilar o‘lchov maydonidagi harakatlarni vizual tarzda kuzatishlari mumkin.

Bu usul o‘quvchilarning ilmiy konsepsiyalarni tezroq va samaraliroq anglashlariga yordam beradi. Mukammal suyuqlik qorong‘i materiyadagi o‘lchov maydoni bilan minimal birlashtirilgan tortishish nazariyasi uchun quyidagicha yoziladi [17]

$$\mathcal{Z} = \int dx^4 \sqrt{-g}\left(\frac{1}{16\pi G} R + \mathcal{L}_{DM}\right) \qquad (1)$$

Bu yerda $g = \det(g_{ab})$ metrik tensorning determinanti, R esa Ricci skalyari, G esa Nyutonning tortishish doimiysi va $\mathcal{L}_{DM}$ mukammal suyuqlik qorong'i materiya uchun Lagranj zichligi.

Shvartsshild koordinatalarida (t, r, θ, φ) mukammal suyuqlik qorong'i materiyaga botgan statik va sferik simmetrik qora tuynukni tavsiflovchi metrik [20] tomonidan berilgan.

$$ds^2 = -f(r)dt^2 + f(r)^{-1}dr^2 + r^2 + r^2 d\Omega^2 \quad (2)$$

Dan

$$f(r) = 1 - \frac{2M}{r} + \frac{\lambda}{r} ln \frac{r}{|\lambda|} \quad (3)$$

Bu yerda M qora tuynukning massasi va λ parametri qorong'i materiyaning zichligi va bosimi bilan bog'liq [20].

Quyida ko'rsatilgandek aniqlangan zaif maydonning taxminiyligini ko'rib chiqamiz:

$$g_{\alpha\beta} = \eta_{\alpha\beta} + h_{\alpha\beta} \quad (4)$$

Bu yerda $\eta_{\alpha\beta}$ yassi geometriyaning ifodasi va $h_{\alpha\beta}$ quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan tekis fazo-vaqt geometriyasining egilishidir[5]:

$$\eta_{\alpha\beta} = diag(-1,1,1,1) \quad (5)$$

$$h_{\alpha\beta} \ll 1,\ h_{\alpha\beta} \to 0\ keyin\ x^i \to \infty \quad (6)$$

$$g^{\alpha\beta} = \eta^{\alpha\beta} - h^{\alpha\beta},\ h^{\alpha\beta} = h_{\alpha\beta} \quad (7)$$

Bu yerda biz Shvartsshild fazoviy geometriyasida mukammal suyuqlik qorong'i materiya ishtirokida plazmaning tortishish burilish burchagiga ta'sirini o'rganamiz.

Plazma muhiti ishtirokidagi burilish burchagining asosiy ifodasini ko'rib chiqing [5, 8]

$$\hat{\alpha}_k = \frac{1}{2}\int_{-\infty}^{\infty}(h_{33} + \frac{h_{00}\omega^2 - K_e N(x^i)}{\omega^2 - \omega_2^2})_k dz \quad (8)$$

bu yerda $N(x^i)$ plazmadagi zaryadlangan zarrachalar konsentratsiyasi, ω va ω_e mos ravishda foton va plazma chastotalari. $K_e = \frac{4\pi e^2}{m_e}$ plazma zarrasining doimiy qiymati.

Boshqa tomondan, yuqordagi tenglamani boshqa ko'rinishda [5] sifatida qayta yozish mumkin:

$$\hat{\alpha}_b = \frac{1}{2}\int_{-\infty}^{\infty} \frac{b}{r}\left(\frac{dh_{33}}{dr} + \frac{1}{1-\omega_e^2/\omega^2}\frac{dh_{00}}{dr} - \frac{K_e}{\omega^2-\omega_2^2}\frac{dN}{dr}\right) dz \qquad (9)$$

$\hat{\alpha}_b$ qiymati ham manfiy (ixcham obyektga qarab) va musbat (ixcham obyektdan uzoqda) bo'lishi mumkin.

Kuchsiz maydon rejimida mukammal suyuqlik qorong'i materiya bilan o'ralgan ixcham obyektdan katta masofada r masofada fazoviy vaqt ko'rsatkichi quyidagicha ifodalanishi mumkin.

$$ds^2 = ds_0^2 + \left(\frac{R_s}{r} - \frac{\lambda}{r} ln\frac{r}{|\lambda|}\right) dt^2 + \left(\frac{R_s}{r} - \frac{\lambda}{r} ln\frac{r}{|\lambda|}\right) dr^2 \qquad (10)$$

bu yerda $ds_0^2 = -dt^2 + dr^2 + r^2(d\theta^2 + sin^2\theta d\phi^2)$ tekis fazodagi chiziq elementi va biz $R_s = 2M$ yozuvidan foydalandik.

Tenglamani hisoblash uchun. (7) dekart koordinatalaridagi h_{ab} komponentlarini ko'rinishda qayta yozish mumkin

$$h_{00} = \left(\frac{R_s}{r} - \frac{\lambda}{r} ln\frac{r}{|\lambda|}\right) \qquad (11)$$

$$h_{ik} = \left(\frac{R_s}{r} - \frac{\lambda}{r} ln\frac{r}{|\lambda|}\right) n_i n_k \qquad (12)$$

$$h_{33} = \left(\frac{R_s}{r} - \frac{\lambda}{r} ln\frac{r}{|\lambda|}\right) cos^2\mathcal{X} \qquad (13)$$

bu yerda yangi $cos^2\mathcal{X} = z^2/(b^2 + z^2)$ va $r^2 = b^2 + z^2$ yozuvlari kiritiladi. h_{00} va h_{33} ning hosilasini osongina hisoblash va olish mumkin.

$$\frac{dh_{33}}{dr} = -\frac{3z^2R_s}{r^4} - \frac{\lambda z^2}{r^4} + \frac{3\lambda z^2 ln\left(\frac{r}{|\lambda|}\right)}{r^4} \qquad (14)$$

$$\frac{dh_{00}}{dr} = -\frac{\lambda}{r^2} + \frac{\lambda ln\left(\frac{r}{|\lambda|}\right)}{r^2} - \frac{R_S}{r^2} \qquad (15)$$

Endi burilish burchagi ifodasini quyidagi shakldа ajratish mumkin [8]:

$$\hat{\alpha}_b = \hat{\alpha}_1 + \hat{\alpha}_2 + \hat{\alpha}_3 \qquad (16)$$

bilan

$$\hat{\alpha}_1 = \frac{1}{2}\int_{-\infty}^{\infty} \frac{b}{r}\frac{dh_{33}}{dr} dz \qquad (17)$$

$$\hat{\alpha}_2 = \frac{1}{2}\int_{-\infty}^{\infty} \frac{b}{r}\left(\frac{1}{1-\omega_e^2/\omega^2}\frac{dh_{00}}{dr}\right) dz \qquad (18)$$

$$\hat{\alpha}_3 = \frac{1}{2}\int_{-\infty}^{\infty} \frac{b}{r}\left(-\frac{K_e}{\omega^2-\omega_e^2}\frac{dN}{dr}\right) dz \qquad (19)$$

Bu yerda yangi belgilar $\hat{\alpha}_1, \hat{\alpha}_2\ va\ \hat{\alpha}_3$ mos ravishda tortishish, bir xil va bir jinsli plazma muhiti ta'sirida burilish burchagi hissasiga to'g'ri keladi.

Plazma muhitining burilish burchagiga ta'sirini o'rganish uchun biz (10) tenglamadan foydalanamiz.

1.2 Burilish burchagiga bir jinsli plazmaning ta'siri

Bu yerda $\hat{\alpha}_{uni1}\ va\ \hat{\alpha}_{uni2}$ bir jinsli plazma tufayli burilish burchagiga hissa sifatida talqin qilinishi mumkin va plazmaning bir xil taqsimlanishi tufayli $\hat{\alpha}_{uni3} = 0$ (10), (9) va (12) tenglamalardan foydalanib, bir xil plazma va mukammal suyuqlik qorong'i materiya bilan o'ralgan ixcham obyekt atrofidagi fotonlar uchun burilish burchagi formulasini osongina olish mumkin:

$$\hat{\alpha}_{uni} = -\left(\frac{\lambda}{b} + \frac{\lambda ln\frac{1}{|2\lambda|}}{b} - \frac{R_S}{r}\right) - \left(\frac{\lambda ln\frac{1}{|2\lambda|}}{b} - \frac{R_S}{r}\right)\left(\frac{\omega^2}{\omega^2-\omega_e^2}\right) \qquad (20)$$

1-rasmda Mukammal suyuqlik qorong'i materiya va plazma parametrlarining turli qiymatlari uchun burilish burchagining fotonlarning b parametriga bog'liqligi ko'rsatilgan.

2-rasmda burilish burchagi shaklining plazma va qorong'i materiya parametrlarining sobit qiymatlari uchun bog'liqligi ko'rsatilgan.

[1] Urganch davlat universiteti, Fizika kafedrasi, Urganch, O'zbekiston

e-mail: x-mahkam@urdu.uz

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda kremni asosidagi ikki o'tishli vertikal quyosh elementi (VTJ) samaradorligining qurilma balandligiga bog'liqligi TCAD Sentaurus dasturiy taminoti yordamida kompyuter modellashtirish asosida o'rganildi. Qurilma samaradorligini belgilovchi asosiy parametrlar – qisqa tutashuv toki zichligi (Jsc), ochiq kontur kuchlanishi (Voc), to'ldirish faktori (FF) va umumiy samaradorlik (η) balandlikka bog'liqligi tahlil qilindi. Natijalar samaradorlikning balandlikka nisbatan no-monoton bog'lanishga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kirish

Quyosh elementlarini rivojlantirishdagi asosiy maqsad – samaradorlikni oshirish bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdir. Shu sababli turli yangi yarimo'tkazgich materiallari taklif etilgan, jumladan organik yarimo'tkazgichlar va perovskitlar. Ular arzonligi va tayyorlash jarayonining soddaligi bilan ajralib turadi, ammo yuqori qarshilik, past o'tkazuvchanlik va tashuvchilarning past harakatchanligi kabi kamchiliklarga ega [1–3]. Perovskitlar istiqbolli bo'lsada, namlik, kislorod va ultrabinafsha nurlanishga sezgirligi, qo'rg'oshin tarkibi hamda yuqori haroratdagi beqarorligi ularni amaliy qo'llashni cheklaydi [4–7].

Shu bois e’tibor yana kremni asosidagi quyosh elementlariga qaratilmoqda. Kremni eng ko‘p o‘rganilgan va amalda keng ishlatiladigan yarimo‘tkazgich bo‘lib, ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi tufayli uning narxi pasayib bormoqda. Ayniqsa, ko‘p-o’tishli kremni asosidagi quyosh elementlari yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda [8,9]. Vertikal ko‘p-o‘tishli qurilmalar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki qimmat material sarfini ham kamaytiradi [10].

Qurilma balandligining samaradorlikka ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar mavjud, biroq ular cheklangan yorug’lik diapazonda olib borilgan [11]. Ushbu tadqiqotda esa Kremni asosidagi ikki o‘tishli vertikal quyosh elementlarining balandlikka bog‘liq xossalari keng yorug’lik diapazonda va turli quyosh konsentratsiyalari ostida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodikasi

O‘rganilgan kremni asosidagi ikki o‘tishli vertikal quyosh elementi (VTJ) tuzilishida ikkita p–n o‘tish ketma-ket ulanib, ular orasidagi bo’g’lanish tunnel o‘tish orqali ta’minlanadi. Tunnel o‘tish kuchli legirlangan p++–n++ qatlamlari asosida shakllantirilgan. Qurilmaning umumiy balandligi 5 μm dan 600 μm gacha o‘zgartirildi. Geometrik parametrlar va legirlanish konsentratsiyalari quyidagicha tanlandi: $p+ = 5\cdot10^{18}$ cm^{-3}, $n+ = 1\cdot10^{19}$ cm^{-3}, $n = 1\cdot10^{14}$ cm^{-3}, $p++ = 2\cdot10^{20}$ cm^{-3}, $n++ = 1.1\cdot10^{20}$ cm^{-3}. Qatlam qalinliklari mos ravishda W_{p+} = 5 μm, W_n = 185 μm, W_{n+} = 5 μm, W_{p++} = 0.02 μm va W_{n++} = 0.014 μm qilib olingan.

Hisoblash jarayonlari TCAD Sentaurus dasturi yordamida ikki o‘lchamli (2D) raqamli modellashtirish asosida bajarildi. Modellashtirishda drift-diffuziya transport modeli, legirlanishga bog‘liq harakatchanlik modellari hamda Shockley–Read–Hall (SRH) rekombinatsiya mexanizmlari qo‘llanildi. Tunnel o‘tish orqali tok o‘tishini hisoblash uchun Band-to-Band Tunneling (BTB) modeli ishlatildi. Bundan tashqari, qamralgan holatlar orqali tunnellanishni tavsiflovchi Schenk modeli SRH rekombinatsiya mexanizmi bilan integratsiya qilindi.

Qurilmada qo'llangan fizik modellar kalibrlash jarayonida eksperimental natijalar bilan taqqoslandi va yaxshi moslik kuzatildi. Faol ish rejimida tunnel o'tish kuchlanish yo'qotishi juda kichik bo'lib, ohmik kontakt kabi xususiyat namoyon etdi.

Natijalar va muhokama

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, balandlik ortishi bilan qurilma samaradorligi astasekin kamayadi, lekin "sakrash" tarzidagi no-monoton o'zgarishlar kuzatiladi (3-rasm). Bunday o'zgarishlar asosan qisqa tutashuv toki zichligi Jsc ning balandlik bo'yicha keskin kamayishi bilan bog'liq. Voc ham balandlik oshishi bilan kamayadi, FF esa uncha katta o'zgarish ko'rsatmaydi.

$$\eta = \frac{J_{SC} \cdot V_{OC} \cdot FF \cdot H}{P_{in} \cdot W} \quad (1)$$

Formuladan ko'rinadiki, samaradorlikning kamayishiga asosiy sabab Jsc ning keskin pasayishidir. Bunga qurilma balandligi ortishi bilan tok oqimi yo'nalishiga perpendikulyar kesim yuzasining ortishi sabab bo'ladi.



(a)



(b)



(c) (d)

3-rasm. Quyosh elementining samaradorligi (a), qisqa tutashuv toki va tok zichligi (b), ochiq kontur kuchlanishi (c) va to‘ldirish faktori (d) balandlikka bog‘liq holda (1 Quyosh yoritilishda).

Turli yorug‘lik konsentratsiyalarida ham samaradorlikning balandlikka bog‘liqligi sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, balandlik 20 µm dan kichik bo‘lganda samaradorlik 1 Quyosh sharoitida yuqori bo‘lib, 1000 Quyosh ostida pasayadi (7-rasm). Bu holat yuqori konsentratsiyada tashuvchilar zichligi ortishi va rekombinatsiyaning kuchayishi bilan bog‘liqdir.



7-rasm. Samaradorlikning balandlikka bog‘liqligi turli quyosh konsentratsiyalarida.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kremni asosidagi ikki o‘tishli vertikal quyosh elementining samaradorligi qurilma balandligiga kuchli bog‘liq. Samaradorlik balandlik ortishi bilan pasayadi, biroq ayrim balandliklarda "sakrash" tarzidagi oshishlar kuzatiladi. Kichik balandliklarda (20 μm dan kam) past konsentratsiyali yoritish samaradorligi yuqoriroq natija beradi, yuqori konsentratsiyada esa rekombinatsiya jarayonlari kuchayib, samaradorlik kamayadi.

Shunday qilib, kremni asosidagi VTJ quyosh elementlarida balandlikni optimal tanlash samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu natijalar yuqori samarali mikrometr o‘lchamdagi quyosh elementlarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

[1] A. Kokil, K. Yang, and J. Kumar, J. Polym. Sci. Part B Polym. Phys., 50, 1130 (2012). https://doi.org/10.1002/polb.23103

[2] S. Griggs, A. Marks, H. Bristow, and I. McCulloch, J. Mater. Chem. C, 9, 8099 (2021). https://doi.org/10.1039/D1TC02048J

[3] L. Abusen, *Environmental Stability Studies of an Organic Semiconductor*, Ph.D. thesis, The University of Manchester, 2021.

[4] V. Nalini, G. N. Nagy, A. Rahaman, S. K. Kalpathy, T. Thomas, S. T. P. Sumangala, and M. U. Kahaly, Mater. Adv., 5, 6426 (2024). https://doi.org/10.1039/D4MA00574K

[5] R. Guo, D. Han, W. Chen, et al., Nat. Energy, 6, 977 (2021). https://doi.org/10.1038/s41560-021-00912-8

[6] G. Tumen-Ulzii, C. Qin, T. Matsushima, M. Leyden, U. Balijapalli, D. Klotz, and C. Adachi, Sol. RRL, 4, 2000305 (2020). https://doi.org/10.1002/solr.202000305

[7] Z. Peng, A. Vincze, F. Streller, V. M. Le Corre, K. Zhang, C. Li, J. Tian, C. Liu, J. Luo, Y. Zhao, A. Späth, R. Fink, T. Heumüller, A. Osvet, N. Li, M. Stolterfoht, L. Lüer, and C. J. Brabec, Energy Environ. Sci., 17, 8313 (2024). https://doi.org/10.1039/D4EE03869J

[8] A. E. Atamuratov, B. Q. Jumaboyev, A. Yusupov, A. E. Abdikarimov, and A. G. Loureiro, Proc. Int. Conf. Inf. Sci. Commun. Technol. (ICISCT), 2022. https://doi.org/10.1109/ICISCT55600.2022.10146907

[9] A. E. Atamuratov, B. Q. Jumaboyev, A. E. Abdikarimov, A. Yusupov, and A. G. J. Loureiro, Proc. 14th Spanish Conf. Electron Devices (CDE), Valencia, Spain, pp. –, Jun. 6–8, 2023. https://doi.org/10.1109/CDE58627.2023.10339414

[10] A. Gover and P. Stella, IEEE Trans. Electron Devices, vol. ED-21, no. 6, pp. 351–356, Jun. 1974. https://doi.org/10.1109/T-ED.1974.17927

[11] G. Sahin and G. Kerimli, Results Phys., 8, 257 (2018). https://doi.org/10.1016/j.rinp.2017.12.021

O'ZBEKISTON MAKTAB VA UNIVERSITETLARIDA KVANT KOMPYUTERLARI TA'LIMI VA TADQIQOTLARIDAGI DOLZARBLIGI

Sh.I.Atajanov[1], N.I.Atajanova[2], H.Sh.Karimov[1], D.U.Xudoynazarova[1], U.V.Palyazova[1]

[1]*Urganch Davlat Pedagogika Instituti, Gurlan 1, 220100, Urganch, Uzbekiston*

[2]*Gurlan tumani, 1-umumta'lim maktabi matematika va informatika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida − xususan maktab va oliy ta'lim muassasalarida − kvant kompyuterlari sohasidagi bilimlarning dolzarbligi, mavjud salohiyat, kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va infratuzilma masalalari tahlil qilinadi. Hozirda butun dunyo kvant texnologiyalari, sun'iy intellekt va yuqori unumdor hisoblash tizimlariga o'tayotgan bir davrda, O'zbekiston ham bu sohalarda yetishmovchiliklarga qaramay, dastlabki qadamlarni qo'ymoqda. Maqolada xorijiy tajriba, milliy ta'lim siyosati, ilmiy loyihalar va istiqbolli yo'nalishlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kvant kompyuter, ta'lim, O'zbekiston, STEM, universitet, informatika, ilmiy-tadqiqot, IT, yuksak texnologiyalar

Kirish. Kvant hisoblash texnologiyalari XXI-asrning eng muhim ilmiy-texnik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Kanada va Yaponiya kabi davlatlar kvant texnologiyalarini strategik ustuvor yo'nalish deb e'tirof etgan va ularni ta'lim hamda tadqiqotga keng joriy qilmoqda. O'zbekistonda bu yo'nalish endi-endi shakllanmoqda. 2023-yildan boshlab, ayrim universitetlarda kvant fizikasiga oid kurslar taklif etila boshladi, biroq maktablarda bu tushunchalar umuman mavjud emas. Shunday ekan, quyidagi tahlillar O'zbekistonda kvant kompyuterlariga oid ta'lim va tadqiqotlar qanchalik dolzarb ekanligini asoslashga, mavjud muammolarni aniqlashga va istiqbolli yechimlarni taklif qilishga qaratilgan.

1-jadval

Tadqiqot usullari	**Tadqiqot natijalari**
Adabiyotlar tahlili	kvant kompyuterlari ta'limiga oid xalqaro maqolalar, loyiha hujjatlari, davlat strategiyalari o'rganildi.
So'rovnomalar	Toshkentdagi 3 ta universitet (M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, TATU, INHA universiteti) va 5 ta maktab o'qituvchilari o'rtasida mini-so'rovnoma o'tkazildi.
Taqqoslov tahlili	O'zbekiston ta'lim tizimi va xorijdagi tajriba (AQSh, Estoniya, Hindiston) taqqoslab o'rganildi.
SWOT tahlil	mavjud imkoniyatlar, zaif tomonlar, xavf va imkoniyatlar baholandi.

Kvant kompyuterlariga hozirgi kunda ishlatilayotgan sohalari:

Farmatsevtika, kriptografiya (shifrlash va xavfsizlik), sun'iy intellekt (AL), moliyaviy modellash (stock market simulation), iqlim modellashtirish (climate forecasting)

Xalqaro misollar:

IBM Quantum – kvant kompyuterlarga ochiq onlayn kirish platformasi (ibm quantum experience) orqali o'quvchilar va talabalar amaliyot o'tay olishadi.

Qiskit Global Summer School – butun dunyo bo'ylab o'tkaziladigan bepul onlayn kvant darslar.

Xitoy va Hindistonda – maktab darajasida STEM fanlariga kvant asoslari integratsiya qilinmoqda.

O'zbekistonda hozirgi kvant faoliyat holati Universitet va maktablar kesimida.

2-jadval

O'zMU	Fizika fakultetida kvant fizika fanlari mavjud, lekin kvant kompyuterlari bo'yicha maxsus kurs mavjud emas
TATU	Informatika va kriptografiya yo'nalishlarida kvant algoritmlari tilga olinadi, lekin chuqur kurslar mavjud emas
INHA	Sun'iy intellekt va algoritmlar doirasida kvant hisoblash mavzulari yuzaki o'rganiladi

3-jadval

Maktablarda	Fizika va informatika fanlarida kvant tushunchalari (superpozitsiya, kvant to'lqin) umuman yo'q yoki juda soddalashtirilgan.
	O'quv dasturlarida zamonaviy texnologiyalar haqida bilimlar yetarli emas.
	STEM yo'nalishi bo'yicha ilg'or sinflar bor, lekin kvant hisoblash yo'nalishi hali integratsiya qilinmagan.

Dolzarblik asoslari

4-jadval

Ta'lim sifatini oshirish	**Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash**	**Ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish**
Talabalarda zamonaviy texnologiyalarga qiziqish kuchayadi.	Kvant kriptografiya, AL, ma'lumotlar xavfsizligi kabi sohalarda mahalliy mutaxassislar	Kvant algoritmlari, fizikaviy modellashtirish va shifrlash kabi sohalarda ilmiy maqolalar, grantlar va

	yetishmovchiligi mavjud.	startaplar paydo bo‘lishiga zamin yaratiladi.
Informatika va fizika fanlariga amaliy yondashuv paydo bo‘ladi.	Yaxshi tayyorgarlikka ega yoshlar xorijiy dasturlarga osongina moslasha oladi.	
Global IT-kompaniyalar bilan integratsiyalash imkoniyati.		

O‘zbekiston ta’limidagi muammolar

1. Kadrlar yetishmasligi – kvant fizika, kvant hisoblash bo‘yicha yetarli o‘qituvchi yo‘q.

2. Moddiy-texnik baza – laboratoriya, simulyator, virtual muhitlar mavjud emas.

3. Darsliklar va metodika – o‘zbek tilida kvant kompyuterga oid o‘quv materiallar yo‘q.

4. Talabalarning tayyorgarligi – kvant tushunchalar uchun chuqur matematika va fizika asoslari talab qilinadi.

5. Raqamli tengsizlik – tuman va chekka hududlardagi maktablarda internet, kompyuter resurslari cheklangan.

Muammolarga yechim va takliflar:

Ta’lim dasturi: 10–11-sinflarda "Kvant texnologiyalar asoslari" fani kiritilishi. Universitet darajasi: "Kvant kompyuterlar", "Kvant algoritmlari" kabi kurslar yaratilishi. Kadrlar tayyorlash: IBM, Google, MIT, Qiskit orqali onlayn o‘quv kurslaridan o‘qituvchilarni o‘tkazish. Virtual infratuzilma:

IBM Quantum Experience, Qiskit, Microsoft Azure Quantum platformalari orqali laboratoriyalar. Ilmiy loyihalar: Magistr va PhD kabi ilmiy bosqichlarida kvant fizika yoki hisoblash bo'yicha tadqiqotlarni rag'batlantirish. Hamkorlik aloqalari: Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya universitetlari bilan qo'shma kurslar, dual diplomlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Arute, K.Arya, R.Babbush, D.Bacon, J.C.Bardin, R.Barends, & H.Neven, (2019). *Quantum supremacy using a programmable superconducting processor*. Nature, 574(7779), 505–510. https://doi.org/10.1038/s41586-019-1666-5

2. S.Musayev (2023). *Kvant hisoblash va uning O'zbekistonda ilmiy rivoji*. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Axborotnomasi, 4(85), 45–52.

3. IBM Quantum. (2023). *IBM Quantum Experience: Learn and run quantum programs*. https://quantum-computing.ibm.com (Dunyo bo'yicha kvant kompyuterlarni o'rganish uchun bepul onlayn platforma)

4. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of Uzbekistan. (2022). *Raqamli ta'lim strategiyasi – 2030*. Tashkent. (O'zbekistonda IT, STEM va kvantga oid davlat strategiyasini belgilovchi hujjat)

5. Qiskit Team. (2022). *Qiskit Global Summer School Curriculum*. https://qiskit.org/learn/summer-school/

ZAMONAVIY FIZIKADA KVANT KOMMUNIKATSIYALARI VA KVANT KOMPYUTERLARI: ILMIY NAZARIYA VA AMALIY TADBIQLAR

Sh.I.Atajanov[1], H.Sh.Karimov[1], N.I.Atajanova[2]

[1]*Urganch Davlat Pedagogika Instituti, Gurlan 1, 220100, Urganch, Uzbekiston*

[2]*Gurlan tumani, 1-umumta'lim maktabi matematika va informatika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Kvant mexanikasining zamonaviy amaliy qo'llanmalari – kvant kommunikatsiyasi va kvant kompyuterlari fizikasining nazariy asoslari, matematik modellari va tajriba asosidagi rivoji yoritilgan. Asosan, kubitlar, superpozitsiya, o'zaro chalkashlik (entanglement), kvant teleportatsiyasi va Shor algoritmi kabi fundamental fizik tushunchalar atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, kvant texnologiyalarining O'zbekistonda ilmiy rivojlanish istiqbollari va fizika ta'limi uchun ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Kubit, superpozitsiya, entanglement, kvant mexanikasi, kvant kriptografiyasi, kvant holatlari, interferensiya, kvant algoritmlari, kvant ustunligi, kvant fizika ta'limi.

Kirish. Kvant fizikasining XX asrda paydo bo'lgan nazariy asoslari hozirgi kunda real texnologik yechimlarga aylanish bosqichida. Kvant mexanikasiga asoslangan qurilmalar – xususan, kvant kompyuterlari va kvant kommunikatsiyalari – fizik olimlar nazariyasi asosida real hayotga kirib kelmoqda. Fizika fanining zamonaviy yo'nalishi sifatida, kvant texnologiyalar nafaqat yangi ilmiy izlanishlar manbai, balki kompyuter texnikasi, tibbiyot, kriptografiya va telekommunikatsiya sohalarining asosiy tayanchi bo'lmoqda [1].

Kvant kommunikatsiyasining fizik asoslari

Kubitlar va kvant holatlari: Kvant axborotning asosiy birligi – bu kubit (quantum bit) bo'lib, klassik bitdan farqli o'laroq, kubit **superpozitsiya holatida** mavjud bo'ladi:

$$|\psi\rangle = \alpha\,|0\rangle + \beta|1\rangle, \quad |\alpha|^2 + |\beta|^2 = 1 \tag{1}$$

Bu holat kubitni istalgan kombinatsiyada aniqlash imkonini beradi. Bu interferensiya, superpozitsiya va o'zaro chalkashlik (entanglement) fenomenlari yordamida amalga oshadi.

Kvant o'zaro chalkashlik (Entanglement)

Entanglement: Bu ikkita kubit bir-biridan masofada joylashgan bo'lsa ham, o'zaro bog'langan holatda bo'lishi bo'lib, ulardan birini o'lchash ikkinchisining holatini ham aniqlaydi:

$$|\Phi^+\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}}(|00\rangle + |11\rangle) \tag{2}$$

Bu hodisa **EPR paradoksi** va **Bell tengsizliklari** orqali nazariy jihatdan isbotlangan bo'lsada, hozirda u tajriba asosida (Aspect, 1982; Yin, 2017 larda) ham tasdiqlangan [3].

Kvant kalit taqsimoti: Kvant kriptografiya fizik qonunlarga tayanadi: o'lchash kvant holatni o'zgartiradi. Shuning uchun kvant kalit taqsimoti (BB84 protokoli) orqali yuborilgan fotonlar kalit sifatida uzatilganda, agar ularni uchinchi shaxs o'qishga urinib ko'rsa, kvant holat buziladi va bu aniqlanadi [2].

BB84 protokolida Ali va Vali tasodifiy polarizatsiyalangan fotonlar orqali kalit hosil qiladi. Agar uchinchi ismli shaxs (josus) signalga aralashsa, **xatolik darajasi oshadi** va kalit rad etiladi.

Kvant kompyuterlari fizikasi:

1. Kvant darvozalari kvant kompyuterda klassik mantiqiy darvozalar o'rniga **kvant darvozalari** (Hadamard, CNOT, Pauli-X, Y, Z) ishlatiladi. Masalan: **Hadamard darvozasi** superpozitsiya hosil qiladi:

$$H|0\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}}(|0\rangle + |1\rangle) \tag{2}$$

2. Shor algoritmi va fizik tahdid Shor algoritmi 1994-yilda kvant algoritm sifatida taqdim etilgan bo'lib, sonlarni faktorizatsiya qilishni

eksponensial tezlikda bajaradi. Bu algoritmning kuchsizlanishiga olib keladi [5].

3. Kvant ustunligi jihatidan 2019-yilda Google kompaniyasi 53 kubitli Sycamore protsessori yordamida klassik superkompyuter 10 ming yilda bajaradigan vazifani 3daqiqa 20 soniyada bajardi [1].

Bu kvant ustunlik holati – fizik eksperiment asosida tasdiqlangan kvant kuchi sifatida tarixga kirdi.

Kvant texnologiyalarining fizik ta’limda o‘rni:

O‘zbekiston uchun kvant texnologiyalarining fizik jihatdan o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Bu bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi: Fizika ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr va magistrlik dasturlariga **kvant informatika** kurslarini joriy etish

Oliy ta’lim muassasalarida fotonika, kvant optikasi kabi laboratoriyalar yaratish. Yurtimizda ilmiy-eksperimental markazlar tashkil etish orqali yosh fiziklar salohiyatini oshirish. Kvant kommunikatsiyalari va kvant kompyuterlari – bu zamonaviy fizikada nazariya va amaliyot qovushgan muhim yo‘nalishdir. Bu texnologiyalar kvant mexanikasining fundamental qonunlari – superpozitsiya, entanglement, o‘lchashning buzilishi – kabi tushunchalarga tayanadi. O‘zbekiston fizika sohasi uchun bu texnologiyalarni chuqur o‘rganish – xalqaro ilmiy maydonda raqobatbardosh bo‘lish uchun muhim qadam bo‘ladi. Bu borada ta’lim, fan va texnologik infratuzilmani rivojlantirish – bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] F.Arute, K.Arya, R.Babbush. *Quantum supremacy using a programmable superconducting processor*. Nature, 574(7779), (505–510). 2019.

[2] H. C.Bennett, G.Brassard. *Quantum cryptography: Public key distribution and coin tossing*. Theoretical Computer Science – 1984.

[3] J.Yin *Satellite-based entanglement distribution over 1200 kilometers*. Science, 356(6343), (1140–1144) – 2017.

[4] A.M.Nielsen, L.I.Chuang. *Quantum Computation and Quantum Information*. Cambridge University Press – 2000.

[5] W.P.Shor *Polynomial-Time Algorithms for Prime Factorization and Discrete Logarithms on a Quantum Computer*. SIAM J. Comput – 1997.

KVANT MEXANIKASI HAQIDA TUSHUNCHA

Katta o'qituvchi Xoliqov Alimardon Sultonovich

Andijon davlat texnika instituti

holikovsinsiltana@gmail.com

(tel: +998 97 834 8505)

Ma'lumki, klassik mexanikaga asosan har bir zarra aniq trayek- toriya bo'yicha harakatlanadi va zarralar oqimida hech qanday to'lqin jarayon ro'y bermaydi. Ammo tajribalar zarralarning to'lqin xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ularning tabiatini klassik mexanika to'g'ri tavsiflay olmaydi. Zarralarning hamma xususiyatlarini aks ettiradigan nazariya ularning to'lqin xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Bunday nazariya E. Shredinger, V. Geyzenberg, P. Dirak va boshqa olimlar tomonidan 1926- yilda **yaratilgan kvant mexanika** (uni **to'lqin mexanika** deb ham yuritiladi) hisoblanadi.

Kvant mexanikada atomlar, molekulalar va ularning kollektivi, xususan, kristallar, shuningdek, atom yadrolari va elementar zarralar fizikasi o'rganiladi. Bunda o'rganiladigan mikrodunyo obyektlarining o'lchami $10^{-8} \div 10^{-15}$ m tartibida. Agar zarralar $\vartheta \ll c$ tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa, bunda c-yorug'likning vakuumdagi tezligi, u holda ***norelativistik kvant mexanika*** qo'llaniladi: agar bo'lsa, u holda ***relyativistik kvant mexanika*** qo'llaniladi.

Kvant mexanika asosida atomlar energiyasi o'zgarishining diskret xarakteri haqidagi Plank, fotonlar haqidagi Eynshteyn tasavvurlari, ma'lum sharoitlarda mikrodunyo zarralarining holatini xarakterlovchi ba'zi fizik kattaliklar (masalan, impuls va energiya)ning kvantlanganligi haqidagi ma'lumotlar yotadi.

Kvant mexanikada eng muhim g'oya shundan iboratki, yorug'lik uchun o'rnatilgan xossalarning korpuskulyar-to'lqin ikkilanmaligi universal xarakterga ega ekanligidir. Bu ikkilanmalik impulsga ega istalgan zarralarda namoyon bo‘ladi, ularning harakati qandaydir to'lqin jarayon bilan birga sodir bo‘ladi.

Kvant mexanikada fazoda vaqtning berilgan momentida zarraning holati **to'lqin funksiya** yoki **psi-funksiya** deb ataluvchi va y harfi bilan belgilanuvchi funksiya orqali tavsiflanadi. Bu funksiya koordinatalar va vaqtning funksiyasi hisoblanib, 1926- yilda Shredinger taklif etgan va uning nomi bilan ***Shredinger tenglamasi*** deb ataladigan tenglamaning yechimidan iboratdir.

Klassik mexanika asosida yotuvchi Nyuton harakat tenglamalari keltirib chiqarilmagani kabi, Shredinger tenglamasi ham keltirib chiqarilmaydi va postulat sifatida qabul qilinadi. Shredinger tenglamasining to'g'riligi atom va yadro fizikasida bu tenglama yordamida olingan kvant mexanika xulosalarining tajriba natijalariga yaxshi mos kelishi bilan isbotlanadi.

To'lqin funksiya va bu funksiya bilan tavsiflanadigan zarra orasidagi munosabat yorug'lik to'lqini bilan foton orasidagi munosabatga o'xshaydi. To'lqin tasavvurga asosan, biror sirtning yoritilganligi yorug'lik to'lqini amplitudasining kvadratiga proporsionaldir. Korpuskulyar nuqtayi nazardan yoritilganlik fotonlar oqimining zichligiga proporsionaldir. Demak, yorug'lik to'lqini amplitudasining kvadrati bilan fotonlar oqimining zichligi orasida to'g'ri proporsionallik mavjud: ***to'lqin amplitudasining kvadrati sirtning berilgan nuqtasiga fotonning kelib tushish ehtimolini aniqlaydi.***

Elementar zarralar uchun ham xudda shunday mulohaza yuritish mumkin: ***fazoning biror nuqtasi uchun to‘lqin funksiya modulining kvadrati fazoning shu nuqtasida zarraning bo‘lish ehtimolligini aniqlaydi.***

To'lqin funksiya mikroobyektlar holatining asosiy xarakteristikasi hisoblanadi. Bu funksiya vositasida shu funksiya tavsiflaydigan holatda turuvchi mikroobyektni xarakterlovchi fizik kattaliklarning o'rtacha qiymatlari hisoblab topiladi.

Shunday qilib, kvant mexanika statistik xarakterga ega bo'lib, u zarralarning haqiqiy tabiatini ochib beradi. Kvant mexanika bo'yicha zarraning fazodagi o'rnini yoki zarraning harakat trayektoriyasini aniqlash mumkin emas, chunki aniq trayektoriya bo'yicha bo'lgan harakat bilan to'lqin xususiyatlarini hech qachon birgalikda qarab bo'lmaydi. Kvant mexanikaga ko'ra faqat zarraning fazoning turli nuqtalarida qanday ehtimollikda bo'lishini to'lqin funksiya yordamida oldindan aytib berish mumkin.

Shunday ekan, bu holda elektronning ma'lum tezlik bilan ha- rakat qiladigan orbitasi to'g'risidagi tasavvur o'rinli bo'lmaydi, binobarin, atomda elektronni ma'lum trayektoriya bo'yicha harakatlanuvchi zarra deb tasavvur qilish qat'iy emas. Lekin shunga qaramay, elektronlarning atomda ma'lum orbitalar bo'yicha harakatlanishi haqidagi faraziyadan ma'lum darajada foydalanish mumkin. Ko'p hollarda bu faraziya taxminan to'g'ri natijalarga olib keladi.

Kvant fizikasi ko'plab texnologik yutuqlarga olib keldi va boshqa ta'lim sohalariga, jumladan kimyo, biologiya va materialshunoslikka ta'sir ko'rsatdi. Kvant fizikasining amaliy qo'llanilishiga bir nechta misollar: Lazerlar: Lazerlar - bu stimulyatsiya qilingan emissiya deb ataladigan jarayon orqali yorug'lik chiqaradigan qurilmalar. Lazerlarning rivojlanishi kvant mexanikasi tamoyillari tufayli mumkin bo'ldi.

Tranzistorlar: Tranzistorlar - bu kalit yoki kuchaytirgich sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan elektron qurilmalar. Tranzistorlarning rivojlanishi kvant mexanikasi tamoyillari tufayli mumkin bo'ldi.

Xulosa shunday, kvant mexanikada atomdagi elektron orbitasi deganda, elektronlarning eng katta ehtimollik bilan bo'lishi mumkin bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rni tushuniladi. Xususan, normal holatdagi vodorod atomi uchun radiusi

$$r_n = n^2 \frac{\varepsilon_0 h^2}{\pi m_0 e^2}$$

formula bilan aniqlanadigan birinchi doiraviy Bor orbitasi shunday orbitadan iboratdir.

Foydalanilga adabiyotlar

1. A.P. Rimkevich. Fizikadan masalalar to'plami. T., «O'qituvchi», 1991.
2. V.S. Volkenshteyn. Umumiy fizika kursidan savol va masalalar to'plami. T., «O'qituvchi», 1982.
3. Umumiy fizika kursidan masalalar to'plami. M.S.Sedrik tahriri ostida, T., «O'qituvchi», 1991.
4. Храмов Ю.А. Физики. Биографический справочник. М., «Наука», 1983.
5. Yosh fizik. Ensiklopedik lug'at. T., 1989.
6. II.C. Kydрясues. Kurs istorii fiziki. M., «Prosveshcheniye», 1982. 19. Raxmatov M.N. Vatanimiz fiziklari. T., «O'qituvchi», 1983.

KO'P O'TISHLI QUYOSH ELEMENTLARIDA QO'LLASH UCHUN KREMNIY TUNNEL O'TISHINI MODELLASHTIRISH

A.E. Atamuratov[1], B.Q. Jumaboev[1], M.M. Khalilloev[1], D. Sh. Satimova[1], E. Sh. Xaitboev[1], A. Yusupov[2], M.R. Rustamova[1], X.SH. Saparov[1]

[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,Urganch, O'zbekiston

[2]Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Quyoshning yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga to'g'ridan-to'g'ri aylantirib beruvchi quyosh elementlarida asosiy muammo samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdir. Yangi materiallardan foydalanish [1] yoki optimal tuzilma yaratish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin. Biroq, ko'plab yangi materiallar barqaror emas [2], qimmat [3] yoki xavfli [4]. Shu sababli kremniy materiali hozirgi kunda quyosh elementlari uchun eng ko'p qo'llaniladigan materiallardan biri bo'lib qolmoqda.

Tarkibida bir nechta p-n o'tishlardan iborat bo'lgan, ko'p o'tishli quyosh elementlari hozirgi kunda yuqori foydali ish koeffitsientiga ega bo'lgan quyosh elementlari sifatida qaralmoqda [5]. Ko'p o'tishli quyosh elementlari samarali ishlashi uchun p-n o'tishlarni o'zaro bog'laydigan kichik ketma-ket qarshilikli va yorug'lik nurlarini yaxshi o'tkazadigan kontaktlar zarur. Bu turdagi kontaktlar vazifasini dastlab metal kontaktlar bajargan bo'lsa, hozirgi kunda tunnel o'tishlar yordamida amalga oshirilmoqda. Masalan, davriy sistemadagi III-V guruh elementlari asosida tayyorlangan ko'p o'tishli quyosh elementlari ichidagi p-n o'tishlarni o'zaro bog'lash uchun tunnel o'tishlar qo'llanilgan [12]. Ammo ko'p o'tishli quyosh elementlarini III-V guruh elementlari asosida ishlab chiqarish kremniy materiali asosida ishlab chiqarishga qaraganda ancha qimmatga tushadi [13].

Kremniy tunnel o'tishlari izlanuvchilar tomonidan SOD (Spin-on dopant), RTA (Rapid thermal annealing), RTD (Rapid thermal diffusion) kabi bir nechta texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan [7] va ular hozirda ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanilmoqda [8]. Ammo modellashtirish orqali tunnel o‘tish xarakteristikalari kamroq o‘rganilgan. Shu sababli ushbu ishda biz Sentaurus TCAD dasturi yordamida turli tunnellanish modellarini tahlil qilib, ularning Si tunnel diodlari xususiyatlarini adekvat akslantirishini o‘rgandik [9].

Ushbu ishda kremniy asosidagi tunnel diod (TD) va tunnel o‘tish orqali bog‘langan vertikal ikki o‘tishli quyosh elementi Sentaurus TCAD platformasida modellashtirildi [10]. Ularning tuzilmalari 1- va 2-rasmlarda, asosiy parametrlar esa 1- va 2-jadvalda keltirilgan. TD parametrlari eksperimental namunaga mos ravishda tanlandi.

Modelni kalibrlash uchun avval izolyatsiyalangan p^{++}/n^{++} Si tunnel diod simulyatsiya qilindi va uning tok – kuchlanish xarakteristikasi [11] da berilgan tajriba ma’lumotlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv simulyatsiya modelining aniqligini baholash imkonini berdi.



Rasm.1. Modellashtirilgan tunnel o‘tish strukturasi.



Rasm.2. Tunnel o‘tishli vertikal ikki qatlamli quyosh elementining tuzilishi.

Tablitsa.1. Tunnel o‘tishni modellashtirishda qo‘llanilgan parametrlar

H (µm)	W_{p+} (µm)	W_{p++} (µm)	W_{n++} (µm)	W_{Al} (µm)	p^{+} (cm^{-3})	p^{++} (cm^{-3})	n^{++} (cm^{-3})
64	0.05	0.02	0.014	0.01	10^{18}	$3.6\cdot10^{20}$	$8\cdot10^{20}$

Tablitsa. 2. Tunnel o‘tishli vertikal ikki qatlamli quyosh elementining modellashtirish parametrlari

H (µm)	W_{n+} (µm)	W_n (µm)	W_{p+} (µm)	W_{p++} (µm)	W_{n++} (µm)	n^+ (cm^{-3})	n (cm^{-3})	p^+ (cm^{-3})	p^{++} (cm^{-3})	n^{++} (cm^{-3})
64	5	185	5	0.02	0.014	10^{19}	10^{14}	$5\cdot10^{18}$	$3.6\cdot10^{20}$	$8\cdot10^{20}$

Si materiali asosidagi tunnel o'tish Sentaurus TCAD da "*Nonlocal Tunneling*" va "*Dynamic Nonlocal Path Band-to-Band Recombination*" modellari asosida modellashtirildi. Modellashtirish jarayonida bu ikkala model aloxida aloxida o'rganilib, Si tunnel o'tishning tajribaviy J-V egri chizig'iga eng mos kelgan modellar va ularga mos parametrlar tanlab olindi (Rasm.1,2). Rasm.3,4 lardan ko'rinib turibdiki "*Dynamic Nonlocal Path Band-to-Band Recombination*" modeli va nuqsonlar konsentratsiyasini xisobga oladigan modellar birgalikda kombinatsiya qilinib qo'llanilsa Si tunnel o'tish tajribaga yetarlicha mos kelishi mumkinligini o'rganildi. Olingan eng mos modellar va ularga mos parametrlar vertikal ikki p-n o'tishli konsentratorli quyosh elementi uchun p-n o'tishlarni bog'lovchi tunnel o'tishni xosil qilishda foydalanildi va J-V egri chiziqlar olindi [Rasm.5].





Rasm.3. Tajriba namunasi J–V xarakteristikasi va nolocal tunnellanish modeli (e/h BarrierTunneling "NLM" (Band2Band = UpsideDown)) asosida

Rasm.4. "*Dynamic Nonlocal Path Band-to-Band Recombination*" modeli va SRH modeli (Hurkx hamda kirishmaga bog'liq modellarni o'z ichiga olgan) kombinatsiyasi

olingan simulyatsiya natijalari, hamda Schenk tunnellanish modeli orqali Shockley–Read–Hall rekombinatsiyasi (Recombination (SRH (Tunneling))).	nuqson yordamidagi rekombinatsiya bilan tajriba J–V xarakteristikalari.



Rasm.5. Bitta o'tishli va ikki o'tishli quyosh elementlarining J–V egri chiziqlari.

Adabiyotlar

1. D. Wang, M. Wright, N. K. Elumalai, A. Uddin, Stability of perovskite solar cells, Sol. Energy Mater. Sol. Cells 147 (2016) 255–275.

2. B. Li, Y. Li, C. Zheng, D. Gao, W. Huang, Advancements in the stability of perovskite solar cells: degradation mechanisms and improvement approaches, RSC Adv. 6 (2016) 38079–38091.

3. Cai M, Wu Y, Chen H, Yang X, Qiang Y, Han L. Cost-Performance Analysis of Perovskite Solar Modules. Adv Sci (Weinh). 2016 Sep 15.

4. Hervé Joël Tchognia Nkuissi and Fransisco Kouadio Konan and Bouchaib Hartiti and Jean-Marie Ndjaka, Toxic Materials Used in Thin Film Photovoltaics and Their Impacts on Environment, Reliability and Ecological Aspects of Photovoltaic Modules, IntechOpen}, Rijeka}, 2020.

5. Fernandez, E.F., Natalia Seoane, Florencia Almonacid, Antonio Garcia Loureiro.: Vertical-tunnel-junction (VTJ) solar cell for ultra high light

concentrations (>2000 Suns). IEEE Electron Device Lett. 40(1), 44–47 (2019).

6. S. Akhil, S. Akash, A. Pasha, B. Kulkarni, M. Jalalah, M. Alsaiari, F. A. Harraz and G. Balakrishna, Review on perovskite silicon tandem solar cells: Status and prospects 2T, 3T and 4T for real world conditions, Mater. Des. 211, 110138 (2021).

7. Fave, Alain; Lelièvre, Jean-François; Gallet, Thibaut; Su, Qiaoyu; Lemiti, Mustapha . (2017). Fabrication of Si tunnel diodes for c-Si based tandem solar cells using proximity rapid thermal diffusion. Energy Procedia,124(2017), 577–583.

8. Guilherme Gaspar, João M. Serra, Jonas Kern, Matthias Müller. TCAD simulation of electrical characteristics of silicon tunnel junctions for monolithically integrated silicon/perovskite tandem solar cells. AIP Conf. Proc. 2826, 070001 (2023).

9. Yan, Y. (2008). Silicon-Based Tunnel Diode Technology (Version 1). University of Notre Dame.

10. TCAD Synopsys Sentaurus, Version O-2018.06.

11. Yan, Y. (2008). Silicon-Based Tunnel Diode Technology (Version 1). University of Notre Dame.

12.Wojciech Dawidowski, Beata Ściana, Iwona Zborowska-Lindert, Miroslav Mikolášek, Jaroslav Kováč, Marek Tłaczała, Tunnel junction limited performance of InGaAsN/GaAs tandem solar cell, Solar Energy, Volume 214, 2021, Pages 632-641, ISSN 0038-092X.

13. Liu H, Ren Z, Liu Z, et al. The realistic energy yield potential of GaAs on Si tandem solar cells: a theoretical case study. Opt Ex press, 2015, 23, 382

FOTON SANOVCHI DETEKTORLAR BILAN JIHOZLANGAN KOMPYUTER RENTGEN TOMOGRAFIYASI YORDAMIDA MATERIALLARNI KLASSIFIKATSIYA USULI

Ismailova N.N.[1*], Jumanazarov D.R.[1], Haydarbayev A.R.[1], Tajiyeva R.O[1].

[1]*Urganch davlat universiteti, Urganch, O'zbekiston*

***email:** ismailovanilufar191@gmail.com*

Ikki energiyali KT ushbu sohada yangi izlanishlar amalga oshirish va bir qator cheklovlarni oldini olishga imkon yaratdi. Ba'zi materiallar, masalan, o'simta va tolali to'qimalar [1], yumshoq to'qimalar [2-4], suyuq moddalar va portlovchi moddalar [5] bir-biriga mos keladigan o'rtacha ChSKlarga ega bo'lishi mumkin, bu esa past kontrastli ma'lumotga olib keladi va yagona energiya KTning tasniflash samaradorligini sezilarli darajada cheklaydi. KT bu cheklovlarni minimallashtirishning eng yaxshi usuli sifatida paydo bo'ldi, bu past va yuqori energiya spektrlarida materiallarning ChSKni tekshirish va ularni elektron zichligi ρ_e va samarali atom raqami Z_{eff} ning energiyaga bog'liq bo'lmagan jismoniy parametrlariga aylantirish orqali paydo bo'ldi. Biz ushbu maqolada materiallarning samarali atom raqami Z_{eff} ni aniqlaymiz. Har xil elementlardan tashkil topgan i har biri bir necha atomga ega bo'lgan α_i birikma uchun o'rtacha atom raqamini hisoblash mumkin va samarali atom raqami, Z_{eff} deb ataladi, bu birikma va elementlarning atom raqamlariga bog'liq. Ularning tegishli miqdorlari bo'yicha Mayneord (1937) va Spiers (1946) sifatida belgilangan Z_{eff} ning klassik parametrlashini taklif qildi.

$$\boldsymbol{Z_{eff}} = \sqrt[1]{\sum_{i=1}^{N} r_i Z_i^l}, \qquad \textbf{(1)}$$

bu yerda r_i har bir elementning nisbiy elektron ulushi:

$$r_i = \frac{a_i Z_i}{\sum_{j=1}^{N} a_i Z_i},$$

bu yerda α_i - bir xil atom raqamiga ega bo'lgan atomlar soni Z_i, bu α_j va Z uchun ham amal qiladi.

Asosiy materiallarga misol sifatida ular polietilen (PE) va polivinilxlorid (PVX) dan foydalanganlar. Maksimal ehtimollik funksiyasi ishlab chiqaradigan ikkita asosiy materialning superpozitsiyasini topish uchun ishlatiladi.

Rentgen KT da materiallar ChSK μ tufayli farqlanadi. Har qanday skanerlangan materialning CHKK mos keladigan kattalikka ega bo'lgan bir nechta asosli materiallarning CHKK larning chiziqli birikmasiga ajralishi mumkin va bu asosiy material dekompozitsiyasi (BMD) modeli deb ataladi

$$\mu(E_k) = a_1\mu_1(E_k) + a_2\mu_2(E_k) + \cdots + a_N\mu_N(E_k), \qquad (2)$$

bu yerda $\mu i(Ek)$ (i = 1, 2, … , N; k = 1, 2, … , K) energiya qutisi Ek uchun asosiy materialning LAC ni i ni bildiradi, K larning umumiy soni bilan va energiya qutilari, mos ravishda. a_i asosiy material uchun fizik birliksiz o'lchamli kattalikni ifodalaydi

Biz tenglamani qayta shakllantiramiz. (2) asosiy materiallar uchun a_i kattaliklarni hisoblash uchun chiziqli tenglamalar tizimi sifatida:

$$(\overrightarrow{\mu_1} \ldots \overrightarrow{\mu_N}) \begin{pmatrix} a_1 \\ \vdots \\ a_N \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \mu(E_1) \\ \vdots \\ \mu(E_k) \end{pmatrix}, \qquad (3)$$

Moddiy xususiyatni kalibrlash va hisoblash

ChSKni ajratib olish va LACning asosiy materialini parchalashdan keyingi quvur liniyasidagi navbatdagi qadam kalibrlash bosqichi bo‘lib, unda mos yozuvlar to‘plami o‘lchanadi va nihoyat materialning Z_{eff}ini hisoblaydi. Baholash uchun polinom egri chizig‘ini o'rnatish texnikasidan foydalanish mumkin

Z_{eff} rentgen-spektrli KTni olishga asoslangan. f_{N} bilan belgilangan parchalanishdagi asosiy materiallar orasida eng yuqori Z_{eff} qiymatiga ega bo‘lgan asosiy material uchun hajm ulushi deb ataladigan narsa materiallarning Z_{eff} qiymatining monoton ravishda ortib borayotgan funktsiyasidir.

$$Z_{\mathrm{eff}} = c_0 + c_1 \cdot f_n + c_2 \cdot f_n^2 + c_3 \cdot f_n^3, (4)$$

Bu erda c - asosiy materiallar va parchalanishdagi energiya qutilari soniga va eksperimental o‘rnatish parametrlariga bog‘liq bo‘lgan polinom regressiya koeffitsientlari to‘plami, tenglamadan ko‘rinib turibdi.(3) Tajribalar Daniyadagi Daniya Texnika Universitetida joylashgan 3D tasvirlash markazida o‘tkazilgan. Tajriba parameterlari to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlarni [1,2] maqolalardan olishingiz mumkin.

Xulosa.

Biz ushbu maqolada yangilik sifatida tasniflash samaradorligini prognozlar soni, energiya kanallari soni va LAC parchalanishidagi asosiy materiallar sonining funktsiyasi sifatida o‘rganib chiqdik. Biz ikkita asosiy materialdan va bo‘shliqlarsiz 6 ta energiya kanalidan foydalangan holda usulni eng aniq deb topdik. Qayta qurish uchun proektsiyalar soni sezilarli darajada kamayishi mumkin, shu bilan birga LAClarni ajratib olish va shu bilan istalgan tasniflash aniqligini saqlab qolish uchun tasvir segmentatsiyasiga erishish mumkin. BMD usuli Z_{eff} ni baholash nuqtai nazaridan SIMCAD usuliga qaraganda plastik materiallarga nisbatan yaxshiroq mustahkamlikni ko'rsatishi aniqladik.

Adabiyotlar.

1. Jumanazarov, D., Koo, J., Busi, M., Poulsen, H. F., Olsen, U. L., & Iovea, M. (2020). System-independent material classification through X-ray attenuation decomposition from spectral X-ray CT. NDT and E International, 116(July), 102336. doi:10.1016/j.ndteint.2020.102336.

2. Jumanazarov, D., Alimova, A., Abdikarimov, A., Koo, J., Poulsen, H. F., Olsen, U. L., & Iovea, M. (2023). Material classification using basis material decomposition from spectral x-ray ct. Nuclear Instruments and Methods in Physics Research Section A: Accelerators, Spectrometers, Detectors and Associated Equipment, 1056, 168637. doi:10.1016/j.nima.2023.168637.

CdTe(001)<110> SIRTIDA ION–ATOM TO‘QNASHUV MEXANIZMLARINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ORQALI TAHLIL QILISH

Sadullayev Shukhrat Ravshanovich[1],Ro‘zmetov Rustam Ramonovich[1,2]*

[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti.

[2]Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi

rustamx1994x@gmail.com

So‘nggi yillarda yuqori aniqlikdagi materialshunoslik va sirt fizikasi sohalarida ion sochilishi spektroskopiyasi (Ion Scattering Spectroscopy – ISS) keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metod materiallarning sirt tuzilishini atomar darajada tahlil qilish imkonini beradi va ayniqsa yarimo‘tkazgich texnologiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi [1–3]. Ion sochilishi jarayonida turli energiyaga ega zaryadlangan zarrachalar sirtga yuboriladi va ularning sochilgan traektoriyalari, energiya yo‘qotishlari va burchaklari o‘lchanadi. Ushbu ma’lumotlar yordamida materialning sirt qatlami, atomlarning joylashuvi va struktura xususiyatlari haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin[4-5].

Ionlarning sirt bilan o‘zaro ta’sirini modellashtirishda turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Klassik juft-to‘qnashuv modeli (pair collision model) ion–atom o‘zaro ta’sirini ikki zarracha orasidagi lokal to‘qnashuv sifatida ko‘rib chiqadi. Bu yondashuv ionlarning trayektoriyalarini, energiya taqsimotini va noelastik energiya yo‘qotishlarini hisoblashda samarali usul sifatida keng qo‘llanadi [6–7]. Shu bilan birga, ionlarning elastik o‘zaro ta’siri Ziegler–Biersack–Littmark (ZBL) potentsiali orqali, noelastik energiya yo‘qotishlari esa Firsov–Kishinevskiy modeli yordamida hisoblab chiqilishi mumkin [8–9].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, CdTe(001)<110> kristall sirtida past energiyali Ar^+ ionlarining kichik sirpanma burchaklarda ($\psi = 3°$

va 7°) sochilishini kompyuter modellashtirish orqali tahlil qilish orqali sirt atomlarining joylashuvi va ionlarning implantatsiya xususiyatlarini aniqlash imkoniyati mavjud. Bu esa CdTe asosida yaratiladigan fotoelektrik va optoelektron qurilmalar samaradorligini oshirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.



1-rasm. Sochilgan ionlarning CdTe(001)<110> sirtining ψ=3° va E_0 = 1 keV sharoitidagi trayektoriyasi

Ionlarning qattiq jism sirti bilan o‘zaro ta’sirini tushuntirishda turli nazariy modellardan foydalaniladi. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani klassik juft-to‘qnashuv modeli (pair collision model) hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ion va sirt atomlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ikkita zarrachaning lokal to‘qnashuvi sifatida qaraladi. Agar ionning boshlang‘ich massasi M_1, atomning massasi M_2, ionning tezligi v_0 va boshlang‘ich energiyasi E_0 bo‘lsa, unda energiya va impulsni saqlanish qonunlari asosida ionning sochilish energiyasi E_1 va burchagi aniqlanadi [1]. Bu yondashuv kichik energiyali ionlar uchun ham, o‘rta energiya diapazonida ham samarali hisoblanadi.

Ionlarning elastik o‘zaro ta’siri Ziegler–Biersack–Littmark (ZBL) potentsiali orqali tavsiflanadi [2]. Ushbu potentsial atom yadrolari va elektron bulutlari o'rtasidagi Coulomb kuchini ekranga olish (screening) jarayonini hisobga oladi. ZBL potentsiali quyidagicha yoziladi:

$$U_r = \frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 r}\Phi\left(\frac{r}{a}\right)$$

bu yerda Z_1,Z_2 – ion va nishon atomining atom raqamlari, r – zarrachalar orasidagi masofa, Φ(r/a) – universal ekranga olish funksiyasi, a – Thomas–Fermi uzunligi. Ushbu model ionlarning sirt atomlari bilan to'qnashuvini turli burchaklarda va masofalarda aniq tasvirlash imkonini beradi.

Ionlarning noelastik energiya yo'qotishlari esa Firsov–Kishinevskiy modeli asosida hisoblandi [3]. Bu yondashuv ionlarning elektron bulut bilan o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan energiya yo'qotishlarni baholash imkonini beradi. Noelastik yo'qotish kattaligi ionning tezligiga, atom raqamiga hamda to'qnashuv masofasiga bog'liq bo'lib, CdTe kabi yarimo'tkazgichlarda sezilarli darajada bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda Cd va Te atomlaridan tashkil topgan CdTe(001)<110> sirtining ikki qatlamli yarimkanal (semichannel) tuzilmasi ko'rib chiqildi. Yarimkanalning kengligi va chuqurligi mos ravishda 4.64 Å va 2.28 Å ga teng bo'lib, bu tuzilma ionlarning sirt bo'ylab harakatini tahlil qilishda asosiy geometriya sifatida qabul qilindi. Ionlarning boshlang'ich energiyasi 1 keV bo'lib, burchak qiymatlari ψ = 3° va ψ = 7° da modellashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. H. Brongersma, M. Draxler, M. Deridder, P. Bauer, *Surface composition analysis by low-energy ion scattering*, Surface Science Reports, 62, 63–109 (2007). https://doi.org/10.1016/j.surfrep.2006.12.002
2. D.R. Baer, S. Thevuthasan, *Characterization of Thin Films and Coatings, Handbook of Deposition Technologies for Films and*

Coatings (3rd Edition), William Andrew Publishing, Boston, pp. 749–864 (2010). https://doi.org/10.1016/B978-0-8155-2031-3.00016-8

3. T. Grehl, E. Niehuis, H.H. Brongersma, *Surface microanalysis by low-energy ion scattering*, Microscopy Today, 19(2), 34–38 (2011). https://doi.org/10.1017/s1551929511000095
4. D.N. Bernardo, W.A. Ausserer, Y.C. Ling, G.H. Morrison, *Secondary ion scattering in dark field ion microscopy*, Journal of Applied Physics, 63, 5638–5646 (1988). https://doi.org/10.1063/1.340346
5. F. Samavat, B.V. King, D.J. O'Connor, *Low energy ion scattering*, Surface Review and Letters, 14, 31–41 (2007). https://doi.org/10.1142/S0218625X07009001
6. C.V. Cushman, P. Brüner, J. Zakel, G.H. Major, B.M. Lunt, N.J. Smith, T. Grehl, M.R. Linford, *Low energy ion scattering (LEIS): A practical introduction to its theory, instrumentation, and applications*, Analytical Methods, 8, 3419 (2016). https://doi.org/10.1039/C6AY00765A
7. D. Primetzhofer, S.N. Markin, J.I. Juaristi, E. Taglauer, P. Bauer, *Crystal effects in the neutralization of He$^+$ ions in the low-energy ion scattering regime*, Physical Review Letters, 100(21), 213201 (2008). https://doi.org/10.1103/PhysRevLett.100.213201
8. D.O. Boerma, *Surface physics with low-energy ion scattering*, Nuclear Instruments and Methods in Physics Research B, 183, 73–87 (2001). https://doi.org/10.1016/S0168-583X(01)00311-1
9. M.K. Karimov, U.O. Kutliev, S.B. Bobojonova, *Investigation of angular spectrum of scattered inert gas ions from the InGaP(001) surface*, Physics and Chemistry of Solid State, 22(4), 742–745 (2021). https://doi.org/10.15330/pcss.22.4.742-745

Kvant texnologiyalaridan biri bo'lgan optikaning signallarini kodlash va dekodlash jarayonlarini algoritmik modellar orqali ifodalash

Jumanazarova Shodiya Otojon qizi
Urganch davlat Pedagogika instituti
Matematika va kompyuter texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:shodiyajumanazarova219@gmail.com

Kvant texnologiyalarining rivojlanishi bilan axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlashda yuqori darajadagi xavfsizlik va samaradorlikka erishish mumkin bo'lmoqda. Ularning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – kvant optikasi bo'lib, u yorug'likning kvantik xossalaridan (masalan, fotonlar holatlari) foydalanadi. Optik signallarni kodlash va dekodlash kvant axborot uzatish tizimlarida muhim o'rin tutadi. Bu jarayonlarni algoritmik modellar orqali ifodalash esa tizimlarning matematik asosda loyihalanishiga va amaliyotda qo'llashiga imkon yaratadi.

Kvant optik signal tushunchasi:

Optik kvant signallar – bu fotonlar orqali uzatiladigan axborot bo'lib, ularning holati (qutblanishi, fazasi, amplitudasi) orqali ma'lumot kodlanadi.

Fotonlar kvant bitlar (qubit) sifatida qaraladi.

Kvant superpozitsiya va intrikatsiya holatlari kodlashni murakkablashtiradi, lekin xavfsizlikni oshiradi.

2. Kodlash algoritmlari:

Kvant optik kodlash algoritmlari ma'lumotni foton holatlariga o'zgartiradi.

BB84 protokoli – kvant kriptografiyada eng mashhur algoritmlardan biri. Kodlashda to'rtta qutblanish holati ishlatiladi (0°, 90°, 45°, 135°).

Algoritmik model:

- Kirish: klassik bitlar ketma-ketligi (0 va 1).

- Chiqish: fotonlarning kodlangan holatlari (masalan, |0⟩, |1⟩, |+⟩, |−⟩).
- Algoritm:
  1. Har bir bit uchun tasodifiy baza tanlanadi (rectilinear yoki diagonal).
  2. Mos ravishda foton holati belgilanadi.
  3. Fotonlar kvant kanal orqali yuboriladi.

3. Dekodlash algoritmlari:

Qabul qiluvchi (masalan, Bob) har bir fotonni qabul qilganda, uni o'zi tanlagan bazaga nisbatan o'lchaydi.

To'g'ri baza tanlangan bo'lsa – to'g'ri bit olinadi, noto'g'ri baza holatida – natija tasodifiy.

Keyinchalik Alice va Bob baza tanlovlarini solishtirib, umumiy kalitni shakllantiradi.

Matematik model va ehtimollar tahlili

Har bir bitning noto'g'ri aniqlanish ehtimoli (error rate) modelini tuzish.

Kanal shovqini va xatolik modelini qo'shish: depolarizatsiya, g'orning dispersiyasi va foton yo'qolishi.

Entropiya, mutual information, Shannon informatsiya nazariyasi va kvant informatsiya nazariyasi elementlari.

Qabul qiluvchi va uzatuvchi o'rtasidagi xavfsizlik darajasini quyidagicha ifodalash:

$$I(A,B) > I(E,B)$$

Algoritmik model asosida ifodalanishi:

```
Algorithm KvantKodlash(bitlar):
   Baza = tasodifiy_baza(bitlar.uzunligi)
   Fotonlar = []
   for i in 0 to bitlar.uzunligi-1:
```

```
        if Baza[i] == "rectilinear":
            if bitlar[i] == 0: Fotonlar[i] = |0⟩
            else: Fotonlar[i] = |1⟩
        else:
            if bitlar[i] == 0: Fotonlar[i] = |+⟩
            else: Fotonlar[i] = |−⟩
    return Fotonlar, Baza
Algorithm KvantDekodlash(Fotonlar, QabulBaza):
    Bitlar = []
    for i in 0 to Fotonlar.uzunligi-1:
        Bitlar[i] = o'lchash(Fotonlar[i], QabulBaza[i])
    return Bitlar
```

Optik kvant signallarni kodlash va dekodlash jarayonlarini algoritmik modellar orqali ifodalash ularni simulyatsiya qilish, tahlil etish va amaliy tizimlarga joriy qilish imkonini beradi.

BB84 kabi algoritmlar xavfsiz aloqa kanallarini yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Algoritmik modellashtirish yordamida kodlash va dekodlashdagi ehtimolliklar, xatoliklar va xavfsizlik darajasi baholanishi mumkin.

Bu sohada ishlash uchun kvant mexanikasi, ehtimollar nazariyasi va algoritmlarni chuqur o'rganish zarur.

Adabiyotlar:

1. Nielsen, M. A., & Chuang, I. L. (2010). *Quantum Computation and Quantum Information*. Cambridge University Press.
2. Gisin, N., Ribordy, G., Tittel, W., & Zbinden, H. (2002). *Quantum cryptography*. Reviews of Modern Physics.
3. Preskill, J. (Lecture notes on quantum computation) – Caltech.edu

CdTe(001)<110> KRISTALL SIRTIDAGI YARIMKANALDA PAST ENERGIYALI AR$^+$ IONLARINING SOCHILISH TRAYEKTORIYALARINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ASOSIDA O'RGANISH

Sadullayev Shukhrat Ravshanovich[1],Ro'zmetov Rustam Ramonovich[1,2*]
[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti.
[2]Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi
rustamx1994x@gmail.com

Ionlarning kristall sirtida sochilish jarayonlari hozirgi zamon materialshunoslik va nanoelektronika sohasida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ionlarning kristall panjarasi bilan o'zaro ta'siri nafaqat nazariy fizika uchun muhim, balki amaliy jihatdan ham keng qo'llaniladi. Xususan, ion implantatsiyasi, sputtering, sirt modifikatsiyasi va nuqsonlar hosil bo'lish jarayonlarining samaradorligi va mexanizmini tushunishda ionlarning sirt bo'ylab harakati va ularning sochilish xususiyatlarini bilish muhim o'rin tutadi [1–3]. Shu bois ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar yarim o'tkazgich texnologiyalari, ionli plazma asosidagi qurilmalar va optoelektronika elementlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

Mazkur ishda tadqiqot obyekti sifatida CdTe(001)<ī10> kristalli tanlandi. CdTe (kadmiy tellurid) yarim o'tkazgich material sifatida keng o'rganilgan bo'lib, u yuqori samarali quyosh batareyalari, optik datchiklar va ionlashtiruvchi nurlanish detektorlarida qo'llaniladi [4,5]. Ushbu materialning (001) yuza tuzilishi va <ī10> kristallografik yo'nalishida hosil bo'ladigan yarimkanallar ionlarning harakati va sochilishini o'rganishda qulay model hisoblanadi. Chunki bunday sirt strukturalari ionlarning kanallar bo'ylab yo'naltirilgan harakatini, ularning bloklanishini yoki fokuslanishini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqotda kompyuter modellashtirish usulidan foydalanildi. Hisoblash ishlari ionlarning kristall panjarasi bilan oʻzaro taʼsirini ifodalashda keng qoʻllaniladigan ikkilik toʻqnashuv approksimatsiyasi (Binary Collision Approximation, BCA) asosida olib borildi [6]. Ushbu metodning mohiyati ionlarning trayektoriyasini ularning kristall atomlari bilan ketma-ket amalga oshadigan juft toʻqnashuvlar sifatida koʻrib chiqishda yotadi. Hisob-kitoblarda ion–atom oʻzaro taʼsir kuchlarini tavsiflash uchun eng ishonchli modellardan biri boʻlgan Ziegler–Biersack–Litmark (ZBL) potensiali qoʻllanildi [7]. Bu yondashuv ionlarning energiya yoʻqotishi, burilish burchagi va kristall ichiga kirish chuqurligini aniq baholash imkonini beradi.



1-rasm. CdTe(001)<ī10> kristall yuzasida hosil boʻlgan yarimkanal tubidan sochilgan Ar^+ ionlarining xarakterli trayektoriyalari: ion tushish burchagi ψ=70° (a) va ψ=130° (b) boʻlganda, boshlangʻich energiya E_0=5 keV.

Natijalar shuni koʻrsatdiki, past energiyalarda (1 keV) ionlar yarimkanal tubidan sirt atomlari tomon qaytarilib, ularning energiya taqsimotida alohida choʻqqi (pik) kuzatilmaydi. Bunday ionlarning energiyasi asosiy pik qiymatlariga yaqin boʻlgani uchun ular umumiy taqsimotga qoʻshilib ketadi. Oraliq energiyalarda (3 keV) esa ionlarning trayektoriyalarida koʻplab past intensivlikdagi qoʻshimcha piksimon taqsimotlar hosil bo‘ldi. Bu esa ionlarning bir qismi sirt orqali qaytishini, boshqa bir qismi esa qisman implantatsiyalanishini ko‘rsatadi. Yuqori energiyalarda (5 keV) ionlarning sochilish xususiyati yanada murakkablashadi. Ular yarimkanal devorlari ta’sirida tubga yo‘naltirilib, qayta sochiladi va energiya taqsimotida past energiyali alohida qism paydo bo‘ladi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, ionlarning boshlang‘ich energiyasi va sirtga tushish burchagi ularning sochilish mexanizmini belgilovchi asosiy parametrlar hisoblanadi. Past energiyalarda ionlarning alohida piki kuzatilmasa-da, energiya ortishi bilan qo‘shimcha past intensivlikdagi cho‘qqilar hosil bo‘ladi. Ushbu natijalar ion fokuslanishi va bloklanishi mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda ion implantatsiyasi va sirt modifikatsiyasi texnologiyalarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Y. Rosandi, H.M. Urbassek, "Glancing ion incidence on Si(100): Influence of surface reconstruction on ion subsurface channeling", *Phys. Rev. B*, 85 (2012). https://doi.org/10.1103/PhysRevB.85.155430
2. S. Wethekam, A. Mertens, H. Winter, "Survival of He^+ ions during grazing scattering from a Ag(111) surface", *Phys. Rev. Lett.*, 90 (2003) 037602. https://doi.org/10.1103/PhysRevLett.90.037602
3. V. Bykov, L. Houssiau, J.W. Rabalais, "Real-space surface crystallography from ion scattering", *J. Phys. Chem. B*, 104 (2000) 6340–6352. https://doi.org/10.1021/jp0001891
4. F. Savamat, B.V. King, D.J. O'Connor, "Low energy ion scattering", *Surface Review and Letters*, 14 (2007) 31–41. https://doi.org/10.1142/S0218625X07009001

5. Y.P. Chen, S. Sivananthan, J.P. Faurie, "Structure of CdTe(111)B grown by MBE on misoriented Si(001)", *Journal of Electronic Materials*, 22(8) (1993) 951–957. https://doi.org/10.1007/BF02817509
6. G. Hobler, K. Nordlund, "Channeling maps for Si ions in Si: Assessing the binary collision approximation", *Nucl. Instrum. Methods Phys. Res. B*, 449 (2019) 17–21. https://doi.org/10.1016/j.nimb.2019.04.029
7. J.F. Ziegler, J.P. Biersack, M.D. Ziegler, *SRIM – The Stopping and Range of Ions in Matter*, SRIM Co., 2008. ISBN 978-0-9654207-1-6

FIZIKA VA INGLIZ TILI DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM IMKONIYATLARI

Razzokova Moxinur Baxodir qizi

Buxoro pedagogika instituti Fizika kafedrasi o'qituvchisi, Buxoro, O'zbekiston

mohinur-razzoqova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika fanini ingliz tili bilan integratsiya qilish imkoniyatlari yoritilgan. Dars jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qiladi. Fizika terminlarini ingliz tili bilan birgalikda o'rganish o'quvchilarning xorijiy tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ilmiy manbalarni o'zlashtirish imkonini kengaytiradi.

Kalit so'zlar:fizika, ingliz tili, integratsiya, interfaol metod, axborot texnologiyalari, terminologiya, ta'lim samaradorligi.

Dars jarayonida axborot texnologiyasi va interfaol metodlardan foydalanish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Interfaol usulning mohiyati shundaki barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadi, ular mavzuni o'z tafakkuri, o'z bilimlarini ishga solgan holda tushunish va anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda fizika fanida tushintiriladigan termin va parametrlarni ingliz tili fani bilan birga o'rganish o'quvchining dunyoqarashini oshirib, xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi.

Fizika darslarida mavzuga kerakli yoki, o'tilgan mavzularda tushuntirilgan terminlarni ingliz tilidagi tarjimalari bilan birga aytib borilishi o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan dunyoqarashini oshiribgina qolmay, texnika taraqqiyotidagi eng sara ingliz tilidagi adabiyotlarni varaqlashga undaydi.

Fizika fanini ingliz tili bilan birlashtirib hamkorlikda darslarni tashkil qilish maqsadida iSpring Suite 8 dasturi asosida o'zbek tilidagi terminlarning ingliz tilidagi tarjimalarini mos holatda joylashtirib chiqish uchun quyidagi test tizimidan foydalanishimiz:

1-rasm. iSpring Suite 8 dasturida test ishlash

O'quvchi berilgan vaqt davomida ajratilgan terminlarni mos holda joylashtirgandan so'ng uning ingliz tili savodxonligini shu vaqtning o'zida bilib olish mumkin:



2-rasm. iSpring Suite 8 dasturida natijani chiqarish

iSpring Suite 8 dasturda berilgan so'zlarning qaysi birida xatolikka yo'l qo'yganini tekshirish uchun bajarib chiqqan savollarni qayta ko'rib chiqishi mumkin:

3-rasm. iSpring Suite 8 dasturida xatolarni qayta ko'rib chiqish

Fan texnika taraqqiyoti rivojlangan bu davrda dars davomida o'tkaziladigan test va savol javoblar orqali o'quvchilarimiz faqatgina o'zbek va rus tillari bilan chegaralanib qolmasdan xorijiy tillarni ham yaxshi o'zlashtira olishlariga ko'maklashgan bo'lar edik.

Maqolada fizika va ingliz tili fanlarini integratsiyalash orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritildi. Interfaol metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etib, ularning mustaqil fikrlash va ilmiy terminologiyani o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Fizika terminlarini ingliz tilida o'rganish esa o'quvchilarda xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularni ilmiy-texnik adabiyotlardan samarali foydalanishga yo'naltiradi. Shu bois fizika va ingliz tili fanlarini uyg'unlashtirish zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Қ. Физика таълимида инновацион технологиялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 215 б.

2. Ходжаева Н. Чет тилларни ўқитиш методикаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020. – 180 б.

3. Назарова Д. Физика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятлари // Замонавий таълим. – 2021. – №4. – Б. 56–60.

4. Razzokova Moxinur Baxodir qizi, "Bo'lajak fizika o 'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari va baholash mezonlar", Multidisciplinary Journal of Science and Technology. 2025. 5-son (6), – B. 602-606.

KVANT TEXNOLOGIYALARINING KOSMIK TADQIQOTLARDA QO'LLANISHI

Sh.I.Atajanov[1], U.V.Palyazova[2], L.S.Erkayeva[2]

[1]*Urganch Davlat Pedagogika Instituti, Gurlan 1, 220100, Urganch, Uzbekiston*

[2]*Urganch Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich magistrlari*

Annotatsiya: So'nggi yillarda kvant texnologiyalari fan va texnikaning eng ilg'or yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Ularning kosmik tadqiqotlarda qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, kvant kommunikatsiyalari yordamida fazoviy apparatlar va Yer stansiyalari o'rtasida xavfsiz axborot almashinuvi ta'minlanadi. Kvant sezgichlari va kvant radar tizimlari esa koinotdagi nozik o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, kvant kompyuterlari orbitadagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlashda samaradorlikni oshiradi. Ushbu tadqiqotda kvant texnologiyalarining kosmik izlanishlarga kiritayotgan yangiliklari va istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kvant texnologiyalari, kosmik tadqiqotlar, kvant kommunikatsiyasi, kvant kompyuteri, kvant sezgichlari, kosmik xavfsizlik, ilmiy izlanishlar.

Abstract: In recent years, quantum technologies have been developing as one of the most advanced fields in science and technology. Their application in space research is of particular significance. Specifically, quantum communications enable secure information exchange between spacecraft and Earth stations. Quantum sensors and quantum radar systems allow for the detection of subtle changes in the cosmos. Additionally, quantum computers enhance efficiency in rapidly processing large volumes of data in orbit. This study scientifically analyzes the innovations and prospects that quantum technologies are introducing to space exploration.

Keywords: quantum technologies, space research, quantum communications, quantum computer, quantum sensors, space security,

scientific research.

Аннотация: В последние годы квантовые технологии развиваются как одно из самых передовых направлений науки и техники. Их применение в космических исследованиях имеет особое значение. В частности, с помощью квантовых коммуникаций обеспечивается безопасный обмен информацией между космическими аппаратами и наземными станциями. Квантовые датчики и квантовые радиолокационные системы позволяют обнаруживать тонкие изменения во Вселенной. Кроме того, квантовые компьютеры повышают эффективность быстрой обработки больших объемов данных на орбите. В данном исследовании научно анализируются инновации и перспективы, вносимые квантовыми технологиями в космические исследования.

Ключевые слова: квантовые технологии, космические исследования, квантовая коммуникация, квантовый компьютер, квантовые датчики, космическая безопасность, научные исследования.

Kirish. XXI asr ilm-fan taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri – bu kvant texnologiyalaridir. Mazkur texnologiyalar hozirgi kunda nafaqat axborot xavfsizligi, balki kosmik izlanishlar, astronomiya va astrofizika sohalarida ham katta imkoniyatlarni ochib bermoqda. Kosmosni o'rganish jarayonida mavjud an'anaviy usullar ma'lum chegaralarga ega bo'lib, ulardan foydalanishda yuqori aniqlik, tezkorlik va ishonchlilik yetarli darajada ta'minlanmaydi. Shu sababli kvant kommunikatsiyasi, kvant sezgichlari va kvant hisoblash texnologiyalarini joriy etish zamonaviy kosmik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa kosmik apparatlar o'rtasida mutlaq xavfsiz ma'lumot almashish, koinotdagi nozik fizik jarayonlarni aniqlash va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini beradi. Shu tariqa, kvant texnologiyalarining kosmik tadqiqotlarga integratsiyasi kelajak ilmiy izlanishlari va kosmik xavfsizlikning yangi bosqichini belgilab bermoqda.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv va texnologiyalar asrida kosmik tadqiqotlar insoniyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. An’anaviy texnologiyalar asosida olib borilayotgan kosmik izlanishlar yuqori aniqlik va xavfsizlik talablariga doimo javob bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan, kvant texnologiyalarining qo‘llanishi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kvant kommunikatsiyalari yordamida orbitadagi sun’iy yo‘ldoshlar bilan Yer stansiyalari o‘rtasida mutlaq xavfsiz axborot almashinuvi ta’minlanadi. Kvant sezgichlari esa koinotdagi gravitatsion to‘lqinlar, magnit maydonlar va boshqa fizik hodisalarni aniqlashda yangi imkoniyatlar ochadi. Shuningdek, kvant kompyuterlari yordamida katta hajmdagi kosmik ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa insoniyatning kelajakda Mars va boshqa sayyoralarga uchish, koinot resurslaridan foydalanish hamda kosmik xavfsizlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarini samarali amalga oshirishga zamin yaratadi. Shu bois mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati beqiyosdir.

Kvant kommunikatsiyalarining kosmik tadqiqotlarda qo‘llanilishi.

- sun’iy yo‘ldoshlar va Yer stansiyalari o‘rtasida mutlaq xavfsiz axborot almashinuvi imkonini beradi;
- kvant kriptografiyasi yordamida uchinchi tomon aralashuvi va axborot o‘g‘irlanishi ehtimoli yo‘q qilinadi;
- Xitoy, AQSH va Yevropa mamlakatlari kvant kommunikatsiya yo‘ldoshlari loyihalarini amalga oshirishmoqda (masalan, “Micius” yo‘ldoshi);

Kvant sezgichlari va ularning kosmosdagi ahamiyati.

- gravitatsion to‘lqinlarni aniqlashda yuqori aniqlikka erishish;
- kosmik kemalar navigatsiyasini mustaqil ravishda amalga oshirish;

- magnit maydon va vaqtning nozik o'zgarishlarini qayd etish orqali kosmik izlanishlarni chuqurlashtirish;

Kvant kompyuterlari va kosmik ma'lumotlarni qayta ishlash.

- orbitadan yig'iladigan katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish;
- astronomik kuzatuvlarda aniqlik va tezkorlikni oshirish;
- murakkab modellashtirish va prognozlash jarayonlarida samaradorlikni ta'minlash;

Kosmik xavfsizlik va kvant texnologiyalarining roli.

- fazoviy apparatlar harakatini kuzatishda xavfsizlikni mustahkamlash;
- kiberxavfsizlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratish;
- harbiy va strategik kosmik faoliyatda kvant texnologiyalarining alohida ahamiyat kasb etishi;

Kvant texnologiyalarining istiqbollari.

- kelajakda Mars va boshqa sayyoralarga parvozlarda ishonchli aloqa tizimini yaratish;
- koinot resurslarini samarali o'zlashtirishda yuqori aniqlikdagi hisob-kitoblarni ta'minlash;
- yangi ilmiy kashfiyotlarga zamin yaratish va astrofizik tadqiqotlarda yangi bosqichni boshlab berish;

Kvant texnologiyalarining kosmik tadqiqotlarda qo'llanish yo'nalishlari

1-jadval:

Yo'nalish	Qo'llanish sohasi	Afzalligi
Kvant kommunikatsiyasi	Sun'iy yo'ldosh–Yer stansiyasi aloqa tizimlari	Mutlaq xavfsizlik, tezkorlik
Kvant sezgichlari	Gravitatsion to'lqin, magnit maydon aniqlash	Yuqori aniqlik va sezgirlik

Kvant kompyuterlari	Kosmik ma’lumotlarni qayta ishlash	Katta hajmli ma’lumotlarni tez tahlil
Kvant radar texnologiyalari	Fazoviy obyektlarni aniqlash	Past signalni ham qayd etish
Kvant metrologiyasi	Vaqt va masofa o‘lchovlari	Ultra-aniq o‘lchash imkoniyati

Kvant kriptografiyasi asosiy tenglamasi.

Kvant kalitlarni taqsimlashda **Shannon entropiyasi** tushunchasi ishlatiladi:

$$H(X) = -\sum_{i=1}^{n} p_i \log_2 p_i$$

Bu yerda:

$H(X)$ – ma’lumotning entropiyasi,

p_i – ehtimollik,

n – kvant tizimining mumkin bo‘lgan holatlari soni.

Muhokama: Kvant texnologiyalarining kosmik tadqiqotlarda qo‘llanishi bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalish ilm-fan va texnika taraqqiyotining eng dolzarb sohalaridan biridir. Hozirgi kunda Xitoy, AQSH va Yevropa mamlakatlari kosmosda kvant kommunikatsiyalarini sinovdan o‘tkazib, amaliy natijalarga erishmoqda. Masalan, Xitoyning “Micius” kvant yo‘ldoshi yordamida Yerning ikki nuqtasi o‘rtasida mutlaq xavfsiz aloqa o‘rnatilgan. Bu esa xalqaro miqyosda kvant texnologiyalarining amaliy samaradorligini isbotlab berdi.

Shuningdek, kvant sezgichlari koinotdagi murakkab jarayonlarni, jumladan, gravitatsion to‘lqinlar va magnit maydonlarning nozik o‘zgarishlarini qayd etishda ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa kelgusida yangi astronomik kashfiyotlarga asos bo‘lishi mumkin. Kvant kompyuterlari esa kosmik kuzatuvlardan keladigan ulkan hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beradi, natijada ilmiy izlanishlarning samaradorligi keskin ortadi.

Biroq mazkur texnologiyalarni keng joriy etishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, kvant tizimlarining yuqori sezgirligi sababli tashqi ta’sirlarga bardoshliligi past bo‘lishi, qurilmalarning murakkabligi va yuqori xarajatlarni talab qilishi asosiy to‘siqlardan biridir. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham kosmik izlanishlarda kvant texnologiyalaridan keng foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Demak, kvant texnologiyalarining kosmik tadqiqotlarda qo‘llanilishi katta istiqbolga ega bo‘lib, bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish va texnologik muammolarni hal qilish zarur.

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, kvant texnologiyalarining kosmik tadqiqotlarda qo‘llanilishi zamonaviy ilm-fan va texnikaning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Kvant kommunikatsiyalari kosmik apparatlar va Yer stansiyalari o‘rtasida mutlaq xavfsiz aloqa tizimini ta’minlasa, kvant sezgichlari koinotdagi eng nozik fizik jarayonlarni aniqlash imkonini beradi. Kvant kompyuterlari esa kosmik kuzatuvlardan keladigan ulkan hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va samarali qayta ishlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur texnologiyalar kosmik xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro kosmik hamkorlikni kengaytirish va kelajakdagi sayyoralararo parvozlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois kvant texnologiyalarining ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish, amaliyotga tatbiq etish va bu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurdir. Umuman olganda, kvant texnologiyalarini kosmik tadqiqotlarga keng joriy etish insoniyatning koinotni chuqurroq o‘rganishi va kelajak avlodlar uchun yangi kashfiyotlarga yo‘l ochishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Kvant texnologiyalari va ularning istiqbollari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022. – 212 b.

[2]. I.Raxmonov, Z.Abduqahhorov, Kvant fizikasiga kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.

[3]. M.Jo‘rayev, Astrofizika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 312 b.

[4]. A.Murodov, D.Abdurahmonov, Kvant hisoblash tizimlari va ularning qo‘llanilishi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 198 b.

[5]. Q.Xudoyberganov, Kosmik tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Universitet, 2019. – 275 b.

[6]. B.Tursunov, Axborot xavfsizligi va kvant kriptografiyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 224 b.

KVANT NUQTA VA ULARNING NOCHIZIQLI OPTIK XUSUSIYATLARI

Jamilov Yusuf Yunus o‘g‘li
NavDU “Fizika va astronomiya” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
(tel: +9989973044577, e-mail: yusufjamilov@gmail.com)
To‘yboyev Fazliddinjon Faxriddin o‘g‘li
NavDU “Fizika va astronomiya” kafedrasi o‘qituvchisi
(tel: +998990083452, e-mail: fazliddinto91@gmail.com)

Bugungu kunda, yangi nanostrukturali, kompozit optik materiallar asosida lazer nurlanishi modifikatsiyasiga ega yuqori effektivlikdagi lazer sistemalarini ishlab chiqish va yasashning yangi imkoniyatlarini o’rganishga e’tibor kuchaymoqda, shuningdek turli energiya turlarini lazer nurlanishi energiyasiga almashtirishning samaradorligini oshirishga qaratilgan lazer fizikasining dolzarb masalalari bo’yicha ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlar olib borilmoqda jumladan nanoo’lchamli strukturalar-kvant nuqtalari (1-rasm) va ularning bo’yoqlar bilan birikmalarining kvant o’lchamli effektlar sababli yuzaga keladigan, shuningdek komponentlarning kimyoviy tarkibini o’zgartirish orqali emas, balki sistemani tashkil etuvchi zarrachalarning o’lchami va shaklini tartibga solish orqali yangi materiallarni yaratish uchun keng imkoniyatlarning paydo bo’lishi ularning noyob elektron strukturalari va xossalari ularni sintez qilish va optik va nochiziqli optik xususiyatlarini tadqiq qilishga bo’lgan qiziqish ortib bormoqda (2-rasm).



Bu kabi yangi materiallarni turli xil masalalarda qo’llash, jumladan lazer fizikasi va nochiziqli optika sohasida ularning optik va nochiziqli optik xarakteristikalarini va turli spektral va vaqt diapazonlarida ularning optik javobini shakllanishini aniqlovchi mexanizmlarini o'rganishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kvant nuqtalari va ularning bo'yoqlar bilan birikmalarini o'z ichiga olgan eritmalarda ultraqisqa lazer impulslarining tarqalish jarayonida sodir bo'ladigan nochiziqli jarayonlar yuqori bo'lgan shunday aralashmalardagi optik cheklash jarayonini tadqiq qilish, ularning nochiziqli optik parametrlarini aniqlash muhim ahamiyatni kasb etadi [1].

1-rasm kvant nuqtalar (KN) yarimo'tkazgichli nanozarrachalar bo'lib, ular hajmi(o'lchami) va tarkibiga bog'liq ravishda o'ziga xos optik va elektronik (optoelektronik) xususiyatlarni namoyish etadi. KNlar juda kichik bo'lib, odatda 2 nm dan 10 nm gacha bo'lgan o'lchamlarga to'g'ri keladi, hamda bir necha yuz va minglab atomlardan tashkil topadi. KN fotodetektorlar, displeylar, biosensorlar, bioimijing, kvant kompyuterlar, quyosh panellari va lazer sohalarida keng qo'llaniladi.



2-a rasmda har xil o'lchamli CdSe kvant nuqtalarining zonali strukturasining sxematik tasviri. b) CdSe KN taqiqlangan zona kengiligning radiusiga bog'liqligi tasvirlangan.

Kvant nuqtalarini yaratishning bir necha yo'li mavjud. Mumkin bo'lgan usullar orasida kolloid sintez, o'z-o'zini yig'ish va elektr to'siqlari mavjud.

(Kolloid - suyuqlikda suzib yurgan juda kichik zarrachalar (nanozarralar) tizimi. Bu zarrachalar suyuqlikda cho‘kmaydi va dispers holatda bo‘ladi). Kolloid kvant nuqta bu o‘lchami nanometr darajasida bo‘lgan yarimo‘tkazgich nanokristallari bo‘lib, ular kolloid shaklda, ya’ni suyuqlik muhitida tayyorlanadi). Ularni "kvant nuqtalar" deb atalishining sababi - o‘zining kvant cheklanish xossalariga ega bo‘lishidir. Ya’ni, o‘lchami juda kichik bo‘lgani sababli, ulardagi elektronlar harakati kvant mexanik qonunlariga bo‘ysunadi.

Kvant nuqtalari va ularning bo’yoqlar bilan birikmalarini o’z ichiga olgan eritmalarda ultraqisqa lazer imulslarining tarqalish jarayonida sodir bo’ladigan nochiziqli jarayonlarni (nochiziqli yutilish va nochiziqli sinish) koeffitsientlari yuqori bo’lgan shunday aralashmalardagi optik cheklash jarayonini tadqiq qilish, ularning nochiziqli optik parametrlarini aniqlash muhim ahamiyatni kasb etadi.

Nochiziqli optikaning paydo bo‘lishi XX asrning 60-yillarida quvvatli lazerlarning kashf etilishi bilan bog‘liq. Chunki o‘sha paytgacha ma’lum bo‘lgan yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘yicha tarqalishi, turli muhitlar chegarasida sinish va qaytish, muhitda tarqalayotgan yorug‘lik nurlarining mustaqillik qonuni kabi geometrik optikaning qonunlari juda kichik intensivlikli nurlanish uchun o‘rinli ekanligi ko‘rindi. Katta intensivlikli nurlanishlar diapazonida bu qonunlar bajarilmaydi. Odatiy simob lampasining intensivligi $I = 10^4 Vt/m^2$ ga teng bo‘lsa, standart impulsli lazerning intensivligi esa $I = 10^{14} Vt/m^2$ va o‘ta quvvatli lazer nurlanishining intensivligi $I = 10^{24} Vt/m^2$ ga teng. Bunday katta intensivlikli nurlanish ta’sirida yangi optik effektlar paydo bo‘ladi. Shunga ko‘ra kichik intensivlikli "chiziqli" o‘zaro ta’sirga qaraganda, katta intensivlikli o‘zaro ta’sir “nochiziqli”lik xarakteriga ega bo‘ladi (3-rasm). Ana shundan chiziqli va nochiziqli optika tushunchalari kelib chiqqan.

Chiziqli optikadan farqli ravishda nochiziqli optikada asosiy vazifani



mikroskopik, atom darajasidagi hodisalar belgilaydi va superpozitsiya prinsipi bajarilmaydi. Unga ko‘ra chastotasi, yo‘nalishi, qutblanishi farqlanuvchi turli yorug‘lik to‘lqinlari bir-biridan mustaqil ravishda tarqaladi va muhit bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Shunday qilib, nochiziqli optika-quvvatli yorug‘likning muhitda tarqalishi va modda bilan ta’sirlashuvi natijasida paydo bo‘lgan, xarakteri nurlanish intensivligiga bog‘liq bo‘lgan optik hodisalarni o‘rganuvchi fizikaviy optikaning bo‘limi hisoblanadi. Shunday qilib, nochiziqli optikada optik hodisalarning ro‘y berish jarayonini sifat va miqdor jihatidan o‘zgartiruvchi yorug‘likning intensivligining bo‘sag‘aviy qiymati mavjud bo‘ladi (4-rasm) [3].

Nochiziqli optik hodisalarning paydo bo‘lishiga olib keluvchi asosiy fizikaviy sabablar:

- optik jihatdan shaffof muhitdagi nochiziqli refraksiya, ya’ni muhit sindirish ko‘rsatkichining yorug‘lik maydoni amplitudasiga bog‘liq bo‘lishi;
- yorug‘lik maydoni intensivligining katta qiymatlarida yorug‘lik sochilishining nochiziqli xarakteri paydo bo‘lishi;
- kuchli intensivlikli optik nurlanish ta’sirida moddada ko‘p fotonli yutilish;
- yorug‘likni qayta nurlatishda yuqori garmonika generatsiyasi;

Yorug‘likning yutilishi - muhitdan o‘tayotgan yorug‘lik intensivligining muhitdagi zarralar bilan o‘zaro ta’siri natijasida kamayishidir. Bunda, odatda, muhit isishi, ionlanishi yoki atom va molekulalari g‘alayonlanishi mumkin. Yorug‘lik biror moddadan o‘tganda unda yorug‘likning bir qismi yutiladi. Yutilish selektivlik xarakteriga ega, ya’ni turli to‘lqin uzunliklariga tegishli yorug‘lik turlicha yutiladi. Bo‘yalmagan, shaffof jismlarda ko‘zga ko‘rinadigan nurlar intervaliga tegishli yorug‘lik to‘lqinlari juda kam yutiladi. Ko‘pchilik metallarning past bosimli bug‘larining (bunda atomlar oraligi ancha katta bulib, atomlar amalda yakkalangan deb xisoblanishi mumkin) yorug‘lik yutishi juda ajoyibdir Bunday bug‘larning yutish koeffitsienti deyarli xamma joyda juda kichik (nolga yaqin) va fakat juda ensiz (eni angstremning yuzdan bir necha ulushlaricha bo‘lgan) spektral soxalardagina keskin maksimumlarga ega buladi. Masalan kadmiy rux sulfidning ($Cd_{0.5}Zn_{0.5}S$) yutilish spektri [2].



Kadmiy rux sulfiding yutilish spektri ($Cd_{0.5}Zn_{0.5}S$)

Yorug‘lik bir muhitda ikkinchi muhitga o‘tganda yorug‘lik nur sindirish ko‘rsatkichi katta bo‘lgan muhitga og‘adi. Buger o‘z tajribasida nur sindirish ko‘rsatkichi va muhitning sindirish ko‘rsatkichi o‘zgarishini hisobga olmagan. Agar muhitga tushayotgan yorug‘lik nurining intinsivligi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borsa, muhitning nur sindirish ham ko‘rsatkichi o‘zgaradi. Muhitning o‘z-o‘zini yoritishi (self-focusing) va o‘z-o‘zini qorong‘ulashtirishi (self-defocusing) - bu holatlar muhitning sinish ko‘rsatkichi yorug‘lik intensivligiga bog‘liq bo‘lganida yuzaga keladi. Tushayotgan yorug‘lik kuchining intinsivligi moddani tashkil etgan molekula atomlarining elektronlarini nochiziqli tebratadi, agar yorog‘lk kuchi yetralicha bo‘lmasa elektronlar chiziqli tebranadi va chizikli optik qonunlariga bo‘ysunadi. 6.a rasmda. Agar yorug‘lik intinsivligi yuqori bo‘lsa masalan attosekundli $(10^{-18}s)$ lazer nuri bilan yoritilsa atomlarining elektronlarini ionlanishiga sabab bo‘ladi va ekistremal nochiziqli jarayon kuzatiladi. Moddadan yorug‘lik o‘tayotganda to‘lqinning elektromagnitik maydoni tasirida muhitning elektronlari tebranadi va bu to‘lqin energiyasining bir qismi elektronlarni tebrantirishga sarf bo‘ladi.

Kuchli intensivlik ta’siri natijasida muhitda nochiziqli effektlar paydo bo‘ladi va ularni o‘rganidigan fizikaviy optikaning bo‘limi nochiziqli optika deb ataladi. Nochiziqli optikada, chiziqli optikadan farqli ravishda atom darajasidagi mikroskopik hodisalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, superpozitsiya prinsipi bajarilmaydi va natijada muhitda tarqalayotgan turli chastotali, qutblanishli va yo‘nalishga ega bo‘lgan yorug‘lik to‘lqinlari bir-biridan alohida holda muhit bilan ta’sirlashishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda kvant nuqtalar (KN) va ularning nochiziqli optik xususiyatlari batafsil o‘rganildi. KNlar o‘ziga xos elektron va optik xususiyatlarga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgichli nanozarrachalar bo‘lib, ularning o‘lchami va shakli asosida yangi materiallar yaratish imkoniyati mavjudligi ta’kidlangan. Ayniqsa, KN va bo‘yoqlar bilan birikmalari asosida tuzilgan sistemalarda yuqori intensivlikdagi lazer impulslar ta’sirida sodir bo‘ladigan nochiziqli optik jarayonlar - nochiziqli yutilish, sinish, o‘z-o‘zini fokuslash kabi hodisalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Nochiziqli optika lazer texnologiyalari rivoji natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, bu sohada yorug‘likning intensivligi muhit xossalariga kuchli ta’sir ko'rsatadi. Natijada yorug'likning tarqalishi chiziqli qonunlarga bo'ysunmaydi. Shuning uchun kuchli lazer nurlari bilan ishlaydigan zamonaviy optik tizimlarda KNlarning nochiziqli optik ko'rsatkichlarini aniqlash, bu materiallarni samarali qo'llashda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'yboyev F.F. Development and scientific and practical significance of laser technologies. Conference On The Role And Importance Of Science In The Modern World. Volume 02, Issue 02, 2025. -P. 126-128.

2. To'yboyev F F. Dissertatsiya "kadmiy ruh va ruh sulfidlari kvant nuqtalarining bo'yoqlar bilan birikmalarining nochiziqli optik xususyatlarini tadqiq qilish" Toshkent 2023 -P. 31-38, 48-50

3. Eshonqulov G'.B., Vildanov R.R., Qosimjonov M.A. Lazer fizikasi va nochiziqli optika asoslari. Toshkent 2021-y. 3-5 b.

4. F. A.Korolev. Fizika kursi. Atom Optika va Yadro fizikasi. O'qituvchi nashriyoti. Toshkent 1978 -y. 42-422 b.

THE INFLUENCE OF ABSORPTION ON THE PARAMETRIC AMPLIFICATION PROCESS OF LASER RADIATION IN MgO:LiTaO$_3$ CRYSTAL

O.I. Sobirov, A.E. Rajabov

Urgench State University, Kh. Alimjan Str. 14, Urgench, 220100, Khorezm Region, Uzbekistan

*e-mail: obid7432505@gmail.com

Abstract

Special attention is given to analyzing the influence of basic factors such as linear absorption and dispersion on the process efficiency. It is found that in the infrared spectral range, linear absorption and dispersion effects significantly affect the signal wave amplification coefficient, determining the energy redistribution dynamics and spectral characteristics of the resulting radiation. The study introduces a novel approach to optimizing domain length relative to coherence length, achieving up to 18% efficiency through precise tuning, which surpasses previously reported results for similar materials.

Key words: parametric amplification, nonlinear crystal MgO:LiTaO$_3$, infrared range, laser technologies, nonlinear optics, quasi-phase matching.

1. Introduction

The concept of parametric amplification, initially introduced through theoretical models in nonlinear optics, was later validated experimentally with the advent of laser technologies capable of producing high-intensity radiation. The primary motivation for investigating this effect was the development of lasers that could trigger pronounced nonlinear interactions within optical media [1-2]. From the first experimental realizations, parametric amplification has advanced considerably—shifting from conventional nonlinear crystals to state-of-the-art nanostructured materials.

Breakthroughs in material science, especially in nonlinear photonic crystal design and nanoscale fabrication techniques, have significantly broadened the scope of this phenomenon, opening new opportunities for light manipulation in optical systems [3].

2. Equations of Parametric Amplification under Nonstationary Conditions

The system of equations describing the evolution of complex amplitudes A_p, A_s, and A_i (for pump, signal, and idler waves, respectively) is [4]:

$$\frac{\partial A_p}{\partial z}+\frac{1}{v_p}\frac{\partial A_p}{\partial t}+\frac{\alpha_p}{2}A_p = -i\frac{\omega_p}{2n_p c}\chi^{(2)}A_s A_i \exp(i\Delta kz),$$
$$\frac{\partial A_s}{\partial z}+\frac{1}{v_s}\frac{\partial A_s}{\partial t}+\frac{\alpha_s}{2}A_s = -i\frac{\omega_s}{2n_s c}\chi^{(2)}A_p A_i^* \exp(-i\Delta kz),$$
$$\frac{\partial A_i}{\partial z}+\frac{1}{v_i}\frac{\partial A_i}{\partial t}+\frac{\alpha_i}{2}A_i = -i\frac{\omega_i}{2n_i c}\chi^{(2)}A_p A_s^* \exp(-i\Delta kz),$$

where:

2. Results and Discussion



Fig.1. Dependence of refractive index on wavelength.

Figure 1 shows the dependence of the refractive index of this crystal on wavelength. Our calculations, based on the Sellmeier equations for the extraordinary wave (e-e-e interaction) as described in [5], agree with experimental data, confirming the reliability of our model. The refractive index was computed using the formula

Next, we studied the role of pulse duration in signal wave efficiency formation. We examined this at different input pulse durations (100 fs, 50 fs, and 10 fs). The results are shown in Figure 4. Pulse duration influences the interaction time and peak intensity of the waves, with shorter pulses (e.g., 10 fs) enhancing nonlinear effects due to higher intensity ($I \propto E^2/\tau$), but requiring careful domain tuning to mitigate dispersion, as quantified below.



Fig.4. Numerical calculation results of signal wave generation efficiency, considering all limiting factors, at pulse durations of 100 fs, 50 fs, and 10 fs .

Figure 4 quantifies the combined effects of absorption and dispersion on signal wave formation. Here, the dependence of signal wave efficiency on crystal length with a regular domain structure is presented for different input pulse durations, denoted τ. The results indicate that dispersion limits signal wave efficiency only when the main pulse duration is less than 10 fs. Thus, achieving maximum efficiency requires considering dispersion effects and selecting an appropriate pulse duration. For this range, an optimal domain length must be used, as shorter pulses (10 fs) achieve peak efficiency of 15% with $d = 0.9L_c$, while longer pulses (100 fs, 50 fs) stabilize at 8–10% due to reduced dispersion but lower peak intensities.

4. Conclusion

Thus, this work studied the parametric amplification process of femtosecond pulses in MgO:LiTaO_3 crystals with periodic modulation of quadratic nonlinear susceptibility. By optimizing domain length to $0.9d_o$, we achieved a signal wave efficiency of 18%, a significant improvement over the baseline 4.8%, demonstrating the potential of precise domain tuning to mitigate dispersion and absorption effects.

REFERENCES

1. Kroll H. Parametric amplification in spatially extended media and application to the design of tunable oscillation at optical frequencies. *Physical Review*, 1962, 127, 1207.

2. Yakovlev I.A., Akhmanov S.A., Khokhlov R.V. Problems of nonlinear optics. *Advances in Physical Sciences*, 1965, 85 (3), 579–581.

3. Kingston R.H. Parametric amplification and oscillation at optical frequencies. *Proceedings of the Institute of Radio Engineers*, 1962, 50 (4), 472.

4. Sabirov O.I., et al. High efficient optical parametric amplification of femtosecond pulses in MgO doped PPLN crystals at 3.4 μm. *Optical and Quantum Electronics*, 2023, 55 (8).

5. Dolev I., et al. Linear and nonlinear optical properties of MgO:LiTaO_3. Applied Physics B, 2009, 96, 423–432.

ASTRONOMIYA FANINING RIVOJLANISHIDA FOTONIKANI RO'LI.

O.Avezmuratov[1], Z.Avezmuratova[2], A.Yo'ldosheva[3], M.Jumaniyozova[4], M.Ro'ziyeva[5]

[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch, O'zbekiston

[2,3,4,5]Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O'zbekiston

Ollayor1951@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada astronomiyada osmon yoritgichlarini yulduz kattaliklarini aniqlashda fotonikani ro'li korsatilgan.

Kalit so'zlar: Fotonika, foton, lazer, astronomiya, optika, kvant, Elektromagnit to'lqinlar shkalasi, yulduz kattalik, FEU-fotoelektron ko'paytirgich.

XX asrning boshlarida yorug'lik elektromagnit to'lqinlarni kvantlar, fotonlardan iborat ekanligiga asos solindi. Optikani tarixiy rivojlanishiga fotonika qo'shilib ketdi. N.Bor postulatlari atomning nurlanishiga, Atomni nurlanishida Plankning elektromagnit to'lqinlarning kvantlanish nazariyasi, fotoeffekt uchun

$$h\nu = \frac{m\vartheta^2}{2} + A$$

(1)

A.Eynshteyn formulasi, bular yorug'likni foton zarrasini asoslari edi. Ayniqsa 1960-yillar kvant generatorida amerikalik olimlar Ch.Taunis, T.Meyman, rus olimlari N.Basov va A.Proxorovlar tomonidan lazer nurlarini kashf qilinganligi fotonikaning keng rivojlanishiga olib keldi. Fotonika bu yorug'lik haqidagi fandir. Shunday ekan astronomiyada osmon jismlari, koinotni o'rganishda bu fan katta ahamiyatga egadir [1]. Osmon jismlardan bizga faqat yorug'lik kvantlari, fotonlar keladi. Mana shu yorug'lik kvantlari xossalariga qarab yulduzlar klassifikatsiyasi, ularni temperaturalari, ximiyaviy tarkibi, massasi, o‘lchamlari, uzoqligi xaqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

1-rasmda Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi keltirilgan. Osmondagi obyektlar, yulduzlar, gallaktikalar, tumanliklar, qora o‘ralar, kvazarlarni spektrini o‘rganish, ulardan keladigan nurlanishlarda elektromagnit to‘lqinlar shkalasidagi barcha to‘lqin uzunlikdagi kvantlar mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Yulduzlarni ko‘rinma xolatini ko‘rib chiqaylik. Yulduzlardan kelayotgan yorug‘ligini o‘rganib, ularga ko‘rinma yulduz kattaliklar belgilandi [2]. Yulduzning Yer yuzidagi tekislikda yoritilganligi E har 1^m bir kattalikdagi yoritilganlik intervali 2,512 marta farq qiladi. Ya’ni $\frac{E_1}{E_2} = 2{,}512$ (2) bunda E_1 - biror $\propto_1$ yulduzni Yer sirtida yoritilganligi. $E_2 - \propto_2$ yulduzni yoritilganligi desak,





1-rasm. Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi.	**2-rasm.Fotoelektron ko‘paytirgich.(FEU)**

va unii o‘nli logarifmik masshtabda ifodalasak

$$\lg\frac{E_1}{E_2} = \lg 2{,}512 = 0{,}4 \quad (3)$$ ifoda hosil bo‘ladi,

bundan 5^m yulduz kattalikka farq qilgan yulduzlarni yoritilganligi uchun

$$\frac{E_1}{E_5} = 100 \quad (4)$$ ifodani olish mumukin.

Shunday qilib yulduzlarni yoritilganligi yoki ularni charaqlab ko‘rinishiga qarab ko‘rinma yulduz kattaligi quyidagiga nisbiy belgilanadi.

-26^{m}, …-12^{m}, …-4^{m},-3^{m},-2^{m},-1^{m}, 0^{m}, $+1^{m}$,$+2^{m}$,$+3^{m}$,$+4^{m}$,$+5^{m}$…20^{m} [2].

Bunga Quyosh eng yorug', uni Yer sirtini yoritilganligi eng katta, uni yulduz kattaligi -26^{m} –deb qabul qilingan. To'lin Oyniki – 12^{m}, Veneraniki – 4^{m}, Yupiterniki -3^{m}, Marsniki -2^{m} va hakoza -1^{m} ,0^{m}, $+1^{m}$, $+3^{m}$, $+4^{m}$. Bu ketma ketlikdagi -4^{m} kattalikdagi yulduz eng xira, bizni ko'zimizga zo'rg'a ko'rinadi. $+5^{m}$ kattalikdagi va undan katta yulduzlarni biz yaxshi ko'rolmaymiz. (3)- formula umumiy ko'rinishda quyidagicha yoziladi $\lg\frac{E_1}{E_2}=-0{,}4(m_1 - m_2)$ (5) bunga Pagson formulasi deyiladi [2].

Agar $m_1 - m_2 =1$ bo'lsa ya'ni yulduz o'z kattaligi 1^{m} ga farq qilsa, ularni Yer yuzidagi E_1 va E_2 yoritilganligi nisbati o'nli logarifmga 0,4 ga teng va (2) formula kelib chiqadi. Astronomik xisoblashlarda 0^{m} – kattalikdan yulduz Yer yuzida $2{,}78*10^{-8}$ lyuks yoritilganlik beradi. Bu yulduz Yer sirtiga har sm^2 yuzaga 1 sekuntda 10^6 kvant (foton) beradi.[1. 197 bet]. Agar biz yulduz kattaligi $+5^{m}$ yulduzdan bizni ko'zimizga tushayotgan fotonlar sonini xisoblasak ko'zimizni gavhari qorachig'ini 1 cm^2 deb olsak Pagson (4) formulasidan $m_1 - m_2=5$ bundan $\lg\frac{E_0}{E_5}=2$ yoki $\frac{E_0}{E_5} = 100,$ kelib chiqadi. Agar $E_0=\frac{W}{S*t}$, ekanligidan $W=N h\nu$ bunda N-fotonlar soni. $h\nu$ –bitta kvant energiyasi. W-yulduzdan tushayotgan to'la energiya, 0^{m} kattalikdagi yulduzdan kelayotgan energiya $W_0=N_0 h\nu$,desak va $+5^{m}$ kattalikdagi yulduzdan kelayotgan energiya esa $W = Nh\nu$, bularni 4-formulaga qo'ysak Bunda N_0-0^{m} kattalikdagi yuluzdan kelayotgan fotonlar soni. N esa -5^{m} kattalikdagi yulduzdan kelayotgan fotonlar soni desak.

$100 = \frac{E_0}{E_5} = \frac{N_0 h\nu}{N h\nu} = \frac{N_0}{N}$; $\frac{N_0}{N} = 100$ (6) ifoda kelib chiqadi.

Bundan $N=\frac{N_0}{100} = \frac{10^6}{100} = 10^4 = 10000$

Bundan ko'rinadiki, yuqorida aytilgan bizni ko'zimiz eng xira $+5^m$ – kattalikdagi yulduzni ko'ra olmaydi. Demak $+5^m$ kattalikda yulduz ko'zimizni ko'rish chegarasi deb qarasak, shu kattalikdagi yulduzlardan bizni ko'zimizga har sekunda, 10000 ta foton tushar ekan. Xulosa qilsak, agar yulduzdan kelayotgan har sekunda fotonlar soni 10000 dan oshsa biz shu yulduzni ko'ramiz. Agar fotonlar soni 10000 dan kam bo'lsa, biz bu yulduzlarni ko'zimiz bilan vizual kuzata olmaymiz. Endi bizga fotonlarni qayd qiladigan asboblar kerak bo'ladi. Agar bu hisoblashni davom etsak $+10^m$ kattalikdagi yulduzdan bizni ko'zimizga kelayotgan fotonlar soni 10000:100=1000 ga teng bo'lib chiqadi. $+15^m$ kattalikdagi yulduzdan bizni ko'zimizga kelayotgan fotonlar soni 1000:100=10 ga teng bo'lib chiqadi. $+20^m$ kattalikdagi yulduzdan bizni ko'zimizga kelayotgan fotonlar soni 10:100=0,1 ga teng bo'lib chiqadi. Bu esa mavjud bolmaydi chunki foton butun bo'lishi kerak. Bunday kattalikdagi yulduzlarni kuzatish uchun spektral qurilmalardan foydalaniladi. Ularni ekspozitsiya vaqtini uzaytirish kerak boladi. Fotoko'paytirgich yordamida sanoqli fotonlarni ham qayd qilish mumkin (2-rasm).

2-rasmda fotoko'paytirgichni ishlash prinsipi ko'rsatilgan, unga ko'ra agar yoritkichdan sanoqli foton (kvant) unga tushsa ham uni million marta(keraklicha) ko'paytirib keyingi spektral qayd qilgich asboblarga uzatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fotonikaning fizik nazariyasi asosida yaratilgan, qonunlari, qurilmalari astronomiya fanini rivojlanishida katta ro'li borligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] П. И. Бакулин, Э. В. Кононович, В. И. Мороз. «Курс общей астрономии».

[2] Mamadazimov M.M. «Umumiy Astronomiya». T.: "Yangi asr avlodi', 2008y.

ELEKTROMAGNETIZM FANIDAN TALABALARINING AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Kamolov I.R. - t.f.n., professor, Navoiy davlat Universiteti
Ochiltosheva D.Z. – Bekobod tuman, maktab fizika o'qituvchisi

Oliy ta'limda Elektromagnetizm fanidan ma'ruza, amaliy va talabaning mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish asosida oliy ta'lm muassasasida (OTM) tayyorlanayotgan mutaxassislarni elektromagnetizmning asosiy qonuniyatlari hamda nazariy va amaliy masalalarni bajarish uchun zarur bo'lgan fizikaviy bilimlar bilan tanishtirish, nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, talabaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishi bilan birga, fanga oid amaliy kompetentligi rivojlanadi.

Masalan, ma'ruza davomida Om va Joul-Lens qonunlarining mazmun-mohiyati va matematik ifodasi yozilgandan so'ng, talaba ushbu mavzularni mukammal o'zlashtirib olishi uchun Om va Joul-Lens qonunlarining differensial ko'rinishini keltirilib chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bu qonunlarning differensial ko'rinishi umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylar fizika fani dasturlarida kiritilmagan. Agar ma'ruza davomida bu ish bajarilsa, talabalar uchun ham yangilik, ham fanga qiziqish ortadi, buni quyidagicha amalga oshiramiz:

1. Om qonunining differensial ko'rinishini tok zichligi formulasidan keltirilib chiqariladi: tok zichligi – o'tkazgichning ko'ndalang kesimi yuzasidan oqib o'tgan tokning kuchi bilan ifodalanadi, ya'ni $J = \frac{I}{S}$ (1)

agar zanjir elektr yurituvchi kuchga ega bo'lmagan holda bo'lsa, tok kuchi $I = \frac{U}{R}$ ekanligini inobatga olsak, u holda → $J = \frac{U}{R \cdot S}$ bo'ladi. Shuningdek, o'tkazgich qarshiligi R = $\frac{\rho \cdot l}{S}$ ekanligini nazarda tutsak, shunda → J = $\frac{U \cdot S}{\rho \cdot l \cdot S}$ bo'ladi. Elektr maydon kuchlanganligi va potensial orasidagi bog'lanish uchun E = $\frac{U}{d}$ o'rinli bo'lsa, unda → J = $\frac{E \cdot d \cdot S}{\rho \cdot l \cdot S}$ ko'rinishga ega bo'ladi. Formuladagi o'xshash fizik kattaliklarni qisqartirib olsak, → J = $\frac{E}{\rho}$ matematik ifodaga ega bo'lamiz va solishtirma elektr o'tkazuvchanlik o'tkazgichning solishtirma qarshiligiga teskari proporsional, ya'ni $\sigma = \frac{1}{\rho}$ ekanligini bilgan holda $J = \sigma \cdot E$ (2)

tengligini ko'ramiz va bu Om qonunining differensial ko'rinishini beradi [1,2,3,].

2. Joul-Lens qonunining differensial ko'rinishini o'tkazgichdan elektr toki o'tganda undan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori formulasidan keltirilib chiqariladi. Bunda o'tkazgichning birlik hajmidan birlik vaqt ichida ajralib chiqqan issiqlik miqdori hisoblaniladi, ya'ni $\omega = \frac{Q}{V \cdot t}$ (3)

→ agar o'tkazgichdan elektr toki o'tganda undan ajralib chiqqan issiqlik miqdori Q = $I^2 \cdot R \cdot t$ ekanligini e'tiborga olsak, → $\omega = \frac{I^2 \cdot R \cdot t}{V \cdot t}$ bo'ladi. agar zanjir elektr yurituvchi kuchga ega bo'lmagan holda tok kuchining I = $\frac{U}{R}$ ekanligini inobatga olsak va undan R = $\frac{U}{I}$ ga tengligidan → $\omega = \frac{I^2 \cdot U \cdot t}{V \cdot t \cdot I}$ bo'ladi. Ushbu formuladan o'xshash kattaliklarni qisqartirsak, u holda → $\omega = \frac{I \cdot U \cdot t}{V \cdot t}$ bo'ladi. Agar $V = S \cdot d$ teng bo'lsa, → $\omega = \frac{I \cdot U \cdot t}{S \cdot d \cdot t}$ ko'rinishga ega bo'ladi. Elektr maydon kuchlanganligi va potensial orasidagi bog'lanish E = $\frac{U}{d}$ bo'lsa, yuqoridagi formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: → $\omega = \frac{I \cdot E \cdot d}{S \cdot d}$ yoki

$\rightarrow \omega = \frac{I \cdot E}{S}$. tokning zichligi $j = \frac{I}{S}$ hamda uning differensial ko'rinishi j $= \sigma \cdot$ E ekanligi inobatga olinsa, $\rightarrow \omega = \sigma \cdot$ E·E yoki $\omega = \sigma \cdot E^2$ (4)

ko'rinishda bo'ladi va bunga Joul-Lens qonunining differensial ko'rinishi deyiladi [1,3].

Barcha amaliy mashg'ulotlarda nazariy jihatdan o'rganilgan mavzular isbotlanadi, tasdiqlanadi, barcha formulalarni matematik hisoblashlar orqali qonun va hodisalarni tasdiqlanishi ko'rsatiladi. Barcha talabalar amaliy mashg'ulotlarida fizik qonuniyatlarni amalda aniq qo'llash malakalari hosil bo'ladi. Demak, talabalarda amaliy kompetentlik to'liq shakllanadi, ya'ni yetuk mutaxassis bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izbosarov B.F., Kamolov I.R. Elektromagnetizm. Toshkent. Iqtisod-moliya nashriyoti. 2006.
2. Kamolov I.R., Bisenova B.T., Kanatbayev S.S. "Jalpi fizika"(elektromagnetizm). Toshkent. Iqtisod-moliya, 2020.
3. Kamalova D.I., Kamolov I.R., Nabiyeva F.O., Mardanova Y.O'. Elektr va magnetizm (amaliy mashg'ulotlar). O'quv qo'llanma. - Navoiy.: "Aziz kitobxon" nashriyoti, 2025-yil.

KO‘P O‘TISHLI QUYOSH ELEMENTLARIDA QO‘LLASH UCHUN KREMNIY TUNNEL O‘TISHINI MODELLASHTIRISH

A.E. Atamuratov[1], B.Q. Jumaboev[1], M.M. Khalilloev[1], D. Sh. Satimova[1], E. Sh. Xaitboev[1], A. Yusupov[2], M.R. Rustamova[1], X.SH. Saparov[1]

[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,Urganch, O‘zbekiston

[2]Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Quyoshning yorug‘lik energiyasini elektr energiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aylantirib beruvchi quyosh elementlarida asosiy muammo samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdir. Yangi materiallardan foydalanish [1] yoki optimal tuzilma yaratish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin. Biroq, ko‘plab yangi materiallar barqaror emas [2], qimmat [3] yoki xavfli [4]. Shu sababli kremniy materiali hozirgi kunda quyosh elementlari uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan materiallardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tarkibida bir nechta p-n o‘tishlardan iborat bo‘lgan, ko‘p o‘tishli quyosh elementlari hozirgi kunda yuqori foydali ish koeffitsientiga ega bo‘lgan quyosh elementlari sifatida qaralmoqda [5]. Ko‘p o‘tishli quyosh elementlari samarali ishlashi uchun p-n o‘tishlarni o‘zaro bog‘laydigan kichik ketma-ket qarshilikli va yorug‘lik nurlarini yaxshi o‘tkazadigan kontaktlar zarur. Bu turdagi kontaktlar vazifasini dastlab metal kontaktlar bajargan bo‘lsa, hozirgi kunda tunnel o‘tishlar yordamida amalga oshirilmoqda. Masalan, davriy sistemadagi III-V guruh elementlari asosida tayyorlangan ko‘p o‘tishli quyosh elementlari ichidagi p-n o‘tishlarni o‘zaro bog‘lash uchun tunnel o‘tishlar qo‘llanilgan [12]. Ammo ko‘p o‘tishli quyosh elementlarini III-V guruh elementlari asosida ishlab chiqarish kremniy materiali asosida ishlab chiqarishga qaraganda ancha qimmatga tushadi [13].

Kremniy tunnel o'tishlari izlanuvchilar tomonidan SOD (Spin-on dopant), RTA (Rapid thermal annealing), RTD (Rapid thermal diffusion) kabi bir nechta texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan [7] va ular hozirda ko'plab tadqiqotlarda qo'llanilmoqda [8]. Ammo modellashtirish orqali tunnel o'tish xarakteristikalari kamroq o'rganilgan. Shu sababli ushbu ishda biz Sentaurus TCAD dasturi yordamida turli tunnellanish modellarini tahlil qilib, ularning Si tunnel diodlari xususiyatlarini adekvat akslantirishini o'rgandik [9].

Ushbu ishda kremniy asosidagi tunnel diod (TD) va tunnel o'tish orqali bog'langan vertikal ikki o'tishli quyosh elementi Sentaurus TCAD platformasida modellashtirildi [10]. Ularning tuzilmalari 1- va 2-rasmlarda, asosiy parametrlar esa 1- va 2-jadvalda keltirilgan. TD parametrlari eksperimental namunaga mos ravishda tanlandi.

Modelni kalibrlash uchun avval izolyatsiyalangan p^{++}/n^{++} Si tunnel diod simulyatsiya qilindi va uning tok – kuchlanish xarakteristikasi [11] da berilgan tajriba ma'lumotlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv simulyatsiya modelining aniqligini baholash imkonini berdi.



Rasm.1. Modellashtirilgan tunnel o'tish strukturasi.



Rasm.2. Tunnel o'tishli vertikal ikki qatlamli quyosh elementining tuzilishi.

Tablitsa.1. Tunnel o'tishni modellashtirishda qo'llanilgan parametrlar

H (μm)	W_{p+} (μm)	W_{p++} (μm)	W_{n++} (μm)	W_{Al} (μm)	p^{+} (cm^{-3})	p^{++} (cm^{-3})	n^{++} (cm^{-3})
64	0.05	0.02	0.014	0.01	10^{18}	$3.6 \cdot 10^{20}$	$8 \cdot 10^{20}$

Tablitsa. 2. Tunnel oʻtishli vertikal ikki qatlamli quyosh elementining modellashtirish parametrlari

H (μm)	W_{n+} (μm)	W_n (μm)	W_{p+} (μm)	W_{p++} (μm)	W_{n++} (μm)	n^+ (cm^{-3})	n (cm^{-3})	p^+ (cm^{-3})	p^{++} (cm^{-3})	n^{++} (cm^{-3})
64	5	185	5	0.02	0.014	10^{19}	10^{14}	$5\cdot10^{18}$	$3.6\cdot10^{20}$	$8\cdot10^{20}$

Si materiali asosidagi tunnel oʻtish Sentaurus TCAD da "*Nonlocal Tunneling*" va "*Dynamic Nonlocal Path Band-to-Band Recombination*" modellari asosida modellashtirildi. Modellashtirish jarayonida bu ikkala model aloxida aloxida oʻrganilib, Si tunnel oʻtishning tajribaviy J-V egri chizigʻiga eng mos kelgan modellar va ularga mos parametrlar tanlab olindi (Rasm.1,2). Rasm.3,4 lardan koʻrinib turibdiki "*Dynamic Nonlocal Path Band-to-Band Recombination*" modeli va nuqsonlar konsentratsiyasini xisobga oladigan modellar birgalikda kombinatsiya qilinib qoʻllanilsa Si tunnel oʻtish tajribaga yetarlicha mos kelishi mumkinligini oʻrganildi. Olingan eng mos modellar va ularga mos parametrlar vertikal ikki p-n oʻtishli konsentratorli quyosh elementi uchun p-n oʻtishlarni bogʻlovchi tunnel oʻtishni xosil qilishda foydalanildi va J-V egri chiziqlar olindi [Rasm.5].



Rasm.3. Tajriba namunasi J–V xarakteristikasi va nolocal tunnellanish modeli (e/h BarrierTunneling "NLM" (Band2Band =



Rasm.4. "*Dynamic Nonlocal Path Band-to-Band Recombination*" modeli va SRH modeli (Hurkx hamda kirishmaga bogʻliq modellarni

UpsideDown)) asosida olingan simulyatsiya natijalari, hamda Schenk tunnellanish modeli orqali Shockley–Read–Hall rekombinatsiyasi (Recombination (SRH (Tunneling))).	o'z ichiga olgan) kombinatsiyasi nuqson yordamidagi rekombinatsiya bilan tajriba J–V xarakteristikalari.



Rasm.5. Bitta o'tishli va ikki o'tishli quyosh elementlarining J–V egri chiziqlari.

Adabiyotlar

1. D. Wang, M. Wright, N. K. Elumalai, A. Uddin, Stability of perovskite solar cells, Sol. Energy Mater. Sol. Cells 147 (2016) 255–275.

2. B. Li, Y. Li, C. Zheng, D. Gao, W. Huang, Advancements in the stability of perovskite solar cells: degradation mechanisms and improvement approaches, RSC Adv. 6 (2016) 38079–38091.

3. Cai M, Wu Y, Chen H, Yang X, Qiang Y, Han L. Cost-Performance Analysis of Perovskite Solar Modules. Adv Sci (Weinh). 2016 Sep 15.

4. Hervé Joël Tchognia Nkuissi and Fransisco Kouadio Konan and Bouchaib Hartiti and Jean-Marie Ndjaka, Toxic Materials Used in Thin Film Photovoltaics and Their Impacts on Environment, Reliability and Ecological Aspects of Photovoltaic Modules, IntechOpen}, Rijeka}, 2020.

5. Fernandez, E.F., Natalia Seoane, Florencia Almonacid, Antonio Garcia Loureiro.: Vertical-tunnel-junction (VTJ) solar cell for ultra high light

concentrations (>2000 Suns). IEEE Electron Device Lett. 40(1), 44–47 (2019).

6. S. Akhil, S. Akash, A. Pasha, B. Kulkarni, M. Jalalah, M. Alsaiari, F. A. Harraz and G. Balakrishna, Review on perovskite silicon tandem solar cells: Status and prospects 2T, 3T and 4T for real world conditions, Mater. Des. 211, 110138 (2021).

7. Fave, Alain; Lelièvre, Jean-François; Gallet, Thibaut; Su, Qiaoyu; Lemiti, Mustapha . (2017). Fabrication of Si tunnel diodes for c-Si based tandem solar cells using proximity rapid thermal diffusion. Energy Procedia,124(2017), 577–583.

8. Guilherme Gaspar, João M. Serra, Jonas Kern, Matthias Müller. TCAD simulation of electrical characteristics of silicon tunnel junctions for monolithically integrated silicon/perovskite tandem solar cells. AIP Conf. Proc. 2826, 070001 (2023).

9. Yan, Y. (2008). Silicon-Based Tunnel Diode Technology (Version 1). University of Notre Dame.

10. TCAD Synopsys Sentaurus, Version O-2018.06.

11. Yan, Y. (2008). Silicon-Based Tunnel Diode Technology (Version 1). University of Notre Dame.

12.Wojciech Dawidowski, Beata Ściana, Iwona Zborowska-Lindert, Miroslav Mikolášek, Jaroslav Kováč, Marek Tłaczała, Tunnel junction limited performance of InGaAsN/GaAs tandem solar cell, Solar Energy, Volume 214, 2021, Pages 632-641, ISSN 0038-092X.

13. Liu H, Ren Z, Liu Z, et al. The realistic energy yield potential of GaAs on Si tandem solar cells: a theoretical case study. Opt Ex press, 2015, 23, 382

MOLEKULALARNI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT VA KVANT HISOBLASH TEXNOLOGIYALAR

Ro'zmetova Sevara Oktamboyevna
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
e-mail: rozmetovasevara15@gmail.com

Annatatsiya: Maqolada molekulalarning fazoviy va energetik tuzilishi ularning kimyoviy xossalari, reaktivligi va biologik faoliyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. An'anaviy hisoblash yondashuvlari, jumladan molekulyar dinamika simulyatsiyalari va kvant kimyo metodlari, kichik molekulalarni modellashtirish va ularning strukturasini tahlil qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq, murakkab molekulalar, oqsillar va biologik tizimlarning energetik landshaftlarini aniqlashda ushbu klassik metodlarning hisoblash resurslari va vaqt talablari sezilarli darajada oshadi, bu esa ularning amaliy qo'llanilishini cheklaydi. Ushbu yondashuv katta ma'lumotlar bazasini o'rganish orqali molekulalarning optimal konformatsiyalarini aniqlash, energetik barqarorlikni baholash va yangi kimyoviy tizimlarni modellashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: molekula strukturalari, sun'iy intellekt, kvant hisoblash, molekulyar modellashtirish, kvant kimyo

Molekulalar tuzilishi va ularning xossalari kimyoviy reaksiyalar, biologik jarayonlar va materialshunoslik sohalarida markaziy ahamiyatga ega. Molekula tuzilishi – bu molekulani tashkil qiluvchi atomlar, ularning o'zaro kimyoviy bog'lanishlari va fazoviy (uch o'lchovli) joylashuvini ifodalaydi. Molekula tuzilishi uning kimyoviy, fizik va biologik xossalarini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Molekulalar atomlarning bir-biri bilan bog'lanishi orqali hosil bo'ladi. Molekuladagi bog'lanishlar turlicha bo'lishi mumkin: kovalent, ion, vodorod va dispersiya bog'lanishlari molekulaning barqarorligini va xossalarini belgilaydi. Atomlar molekula ichida uch o'lchovli shaklda joylashadi va bu ularning fazoviy konfiguratsiyasini belgilaydi. Masalan, suv (H_2O) molekulasi burchak shaklga ega bo'lsa, uglerod(IV) oksidi (CO_2) to'g'ri chiziqli shaklga ega.

Molekula har bir konfiguratsiyada o'z energiyasiga ega bo'ladi va eng barqaror tuzilish minimal energiya holatida aniqlanadi. Molekuladagi atomlar va bog'lanishlarning joylashuvi uning reaktsiyaga kirish qobiliyatini belgilaydi. Shuningdek, elektronlar taqsimoti molekulani qutbli yoki qutbsiz qiladi va molekulaning optik xossalari, jumladan nurni yutish yoki so'ndirish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy yondashuvlarda, xususan chuqur o'rganish algoritmlari, molekulalarning optimal konformatsiyasini bashorat qilish va katta ma'lumotlar bazasini tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, kvant hisoblash texnologiyalari molekulalarning energiya landshaftini tezkor va samarali tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu yondashuvlar molekulalarning tuzilishini o'rganish, ularning xossalarini aniqlash va yangi kimyoviy tizimlarni modellashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Molekulalarning tuzilishi va xossalarini aniqlash turli ilmiy va sanoat sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Molekulalar tuzilishi ularning kimyoviy, fizik va biologik xossalarini belgilovchi asosiy omil bo'lib, kimyo, biologiya va materialshunoslik sohalarida markaziy o'rinni egallaydi. Farmatsevtika sohasida dorivor moddalar molekulalarining uchlamchi va energetik tuzilishi ularning biologik faolligi hamda farmakologik xususiyatlarini belgilaydi. Molekulyar modellashtirish va kompyuter hisoblash metodlari dorilarning samaradorligini oshirish, ularning maqsadli biomakromolekulalar bilan o'zaro ta'sirini prognoz qilish hamda yangi dori birikmalarini yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv farmatsevtika sanoatida yangi avlod dorilarini ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [1].

Materialshunoslikda molekulalar tuzilishini aniqlash va modellashtirish yangi materiallar, polimerlar hamda kompozitlarni loyihalashda asosiy ahamiyatga ega. Molekulalarning fazoviy konfiguratsiyasi va kimyoviy bog‘lanishlari materiallarning mexanik, termal va optik xossalarini belgilaydi. Shu sababli materialshunoslikda molekulyar darajadagi tadqiqotlar yuqori samarali, barqaror va funksional materiallarni yaratishga yo‘naltirilgan [2].

Bioinformatika sohasida esa oqsil va nuklein kislotalar kabi murakkab biomakromolekulalarning strukturasini modellashtirish molekulyar biologiya, genomika va proteomika tadqiqotlarida katta ahamiyat kasb etadi. Molekulalarning uchlamchi tuzilishini aniqlash biologik funksiyalarni chuqur tushunish, yangi terapevtik maqsadlarni belgilash hamda biomolekulyar tizimlarni yuqori aniqlikda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Bu esa biologik jarayonlarni yanada kengroq anglash va tibbiyotda innovatsion yechimlar yaratishga xizmat qiladi.

Molekulalar tuzilishi haqidagi bilimlar kimyo, biologiya va materialshunoslikning rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Ularning fazoviy va energetik konfiguratsiyasini o‘rganish nafaqat nazariy fan, balki farmatsevtika, yangi materiallar yaratish va bioinformatika kabi amaliy yo‘nalishlarda ham beqiyos ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt va kvant hisoblash texnologiyalarining rivojlanishi murakkab molekulalarning strukturaviy tahlilini tezkor va aniq bajarish imkoniyatini yaratib, ilm-fan va texnologiyalarning yangi ufqlarini ochmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumper, J., Evans, R., Pritzel, A., et al. (2021). Highly accurate protein structure prediction with AlphaFold. *Nature*, 596(7873), 583–589.

2. N.S.Boboyarova Tabiiy fanlar natural sciences anorganik kimyoda atomlar va molekulalarning fazoviy tuzilishining 3 o‘lchamli (3d) tasvirlari. Qo ‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 3-son

A NEW COMPUTING PARADIGM: THE IMPACT OF QUANTUM ADVANCES ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Akbar Yermekov

PAfoS.AI – Predictive Analytics for Science

Subject: A strategic overview of recent, tangible breakthroughs in quantum computing and their immediate implications for Artificial Intelligence and industry.

Introduction: A Critical Inflection Point

The period from 2024 to 2025 marks a critical inflection point for quantum computing, defined by two parallel and significant developments that have moved the field from theoretical promise to engineering reality. The first is the dawn of **Quantum Utility**, where current-generation quantum processors have delivered the first documented instances of commercial advantage. The second is a foundational breakthrough on the path to **Fault Tolerance**, characterized by a strategic pivot in error-correction architecture. This abstract summarizes these state-of-the-art advances and their transformative impact on the future of Artificial Intelligence.

Key Finding: The Emergence of Quantum Utility

The primary breakthrough of 2025 is the demonstration of tangible value from noisy, intermediate-scale quantum (NISQ) hardware. Landmark trials, such as the **IBM and HSBC collaboration in algorithmic bond trading**, have shown performance improvements of up to 34% by using quantum processors as specialized co-processors in hybrid classical- quantum workflows. This is complemented by new application-centric benchmarks, like **IonQ's #AQ 64**, which directly link hardware performance to the ability to solve commercially relevant problems in finance, logistics, and drug discovery. These results prove that the era of extracting business value from quantum computers has begun.

Qubit Counts of Leading Platforms (2024-2025)

IBM "Heron" (2024)

[~133 Qubits]
IonQ "Tempo" (2025)
[#AQ 64]
Quandela (2025)
[~4,000 Qubits]
<---- Scale (Each ≈ 100 Qubits) >

This chart visually represents the massive leap in computational scale, which, combined with improved quality, underpins the new era of Quantum Utility.

Key Area: The Quantum-AI Symbiosis

The most promising application of this new hardware is in augmenting Artificial Intelligence. State-of-the-art research in Quantum Machine Learning (QML) has shifted to addressing key training challenges. The most innovative mitigation strategies for the "barren plateau" problem now involve a powerful symbiosis, using **classical AI—specifically Large Language Models (LLMs) and Reinforcement Learning**—to intelligently initialize the parameters of quantum circuits, dramatically improving their trainability.

The table below outlines the leading QML algorithms being unlocked by these advances:

Algorithm	How It Works & Its Quantum Advantage	Potential Impact (1-10)	Near-Term Viability (1-10)
VQE (Variational Quantum Eigensolver)	Finds the lowest energy state of a molecule using a hybrid quantum-classical loop. **Advantage:** Simulates nature with quantum-native precision, far beyond classical methods. Ideal for drug and material discovery.	9	8
QSVM (Quantum Support Vector Machine)	Maps data into a massive quantum feature space to find optimal classification boundaries. **Advantage:** Identifies subtle, non- linear patterns invisible to classical SVMs. Crucial for advanced fraud detection and risk analysis.	7	7
Quantum PCA (Principal Component Analysis)	Uses quantum algorithms to find the most significant features within a complex dataset exponentially faster than classical PCA. **Advantage:** Drastic speedup in dimensionality reduction, essential for feature extraction in medical diagnostics.	9	7
Quantum Generative Models	Leverages quantum circuits to learn a probability distribution from data and generate new samples. **Advantage:** Potential to create more powerful and efficient generative models for financial modeling and synthetic data generation.	8	6

Foundational Breakthrough: The New Architecture for Fault Tolerance

The long-term viability of quantum computing depends on error correction. The definitive breakthrough of this era is a strategic pivot in Quantum Error Correction (QEC) architecture. Industry leaders like **IBM have moved from the resource-intensive surface code to novel, highly efficient quantum low-density parity-check (qLDPC) codes**. This new approach promises an **order-of-magnitude reduction in qubit overhead**, fundamentally reshaping hardware roadmaps toward modular, long-range connected systems and creating a more viable path to a large-scale, fault-tolerant quantum computer by 2029.

Conclusion & Outlook

The convergence of near-term Quantum Utility and a credible path to long-term Fault Tolerance signals the maturation of the quantum industry. The implications for sectors reliant on complex simulation, optimization, and AI are profound. The era of passive observation is over; organizations must now actively develop quantum-readiness strategies to harness this new computational paradigm.

LASER-INDUKSIYALANGAN PLASMA YORDAMIDA TAYYORLANGAN ($Cu_{1–x}$:Al_x) QOTISHMALARIDA PLAZMA PARAMETRLARINI HISOBLASH

Matkarimova Shoira Umidbekovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Lazer-induksiyalangan plazma (LIP) nanomateriallar sintezida samarali va nazorat qilinadigan usullardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda hosil bo‘ladigan plazmaning asosiy parametrlari elektron zichligi (n_e) va elektron harorati (T_e) ablyatsiya jarayonining intensivligi hamda yakuniy nanostrukturalarning morfologiyasi va kristallik darajasini belgilaydi [1,2]. Shuning uchun lazer energiyasi va target (nishon) tarkibining plazma parametrlariga ta’sirini o‘rganish nanokompozitlarning fizik-mexanik xossalarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda turli nisbatlardagi mis-alyuminiy (Cu:Al) qotishmalari (x = 0.3, 0.5, 0.7) yuzasida Nd:YAG lazeri (λ = 1064 nm, E = 400–800 mJ) yordamida hosil qilingan plazma parametrlarini aniqlash hamda ularning nanokristallit o‘lchamlariga ta’siri o‘rganildi. Eksperimentda optik emissiya spektroskopiyasi (OES) usuli qo‘llanilib, Cu I, Cu II, Al I va Al II spektral chiziqlari tahlil qilindi.

Plazma harorati Boltsman grafik usuli bilan, elektron zichlik esa Stark kengayishi asosida aniqlangan [3]. Hosil bo‘lgan nanostrukturalar XRD yordamida tahlil qilinib, Debye–Scherrer tenglamasi asosida kristal o‘lchamlari hisoblab chiqildi [4]. Lazer energiyasi oshishi bilan T_e va n_e muntazam o‘sdi: $Cu_{0.7}$:$Al_{0.3}$ namunasi uchun T_e 0.36 eV dan 0.63 eV gacha, n_e esa 2.12×10^{18} sm^{-3} dan 2.88×10^{18} sm^{-3} gacha ortdi. $Cu_{0.3}$:$Al_{0.7}$ namunalarida esa T_e 0.46 eV dan 0.73 eV gacha, n_e esa 2.71×10^{18} sm^{-3} dan 3.30×10^{18} sm^{-3} gacha yetdi. Bu natijalar alyuminiy miqdori ortishi plazmaning yuqori ionlashuviga olib kelishini ko‘rsatadi [5]. Alyuminiy nisbati yuqori bo‘lgan $Cu_{0.3}$:$Al_{0.7}$ namunalarida T_e va n_e qiymatlari boshqa nisbatlarga qaraganda yuqoriroq qayd etildi. Bu farq materiallarning ishchi funksiyasi bilan bog'liq: alyuminiyning ishchi funksiyasi (4.3 eV) misnikiga (4.7 eV) qaraganda past bo'lib, u kamroq energiya bilan elektron emissiyasini boshlaydi [6].



1-rasm: Aralash nishonlar (Cu:Al)ning turli nisbatlarida impulsli lazer energiyasi ta'sirida Al-I (309,27 nm) va Cu-I (324,75 nm) chiziqlari intensivlik nisbatining o'zgarishi.

Al I (309.27 nm) va Cu I (324.75 nm) chiziqlari intensivligi nisbati (I_{Al}/I_{Cu}) > 1 bo'lgani kuzatildi. Bu natija Al tarkibi ko'proq bo'lgan namunada lazer energiyasi past bo'lganda ham alyuminiy chiziqlari kuchliroq bo'lishini tasdiqlaydi [7]. XRD natijalariga ko'ra, kristallit o'lchamlari plazma harorati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ravishda o'sdi. Alyuminiy kristallitlari 12.4-21.0 nm gacha, mis kristallitlari esa 12.3-29.1 nm diapazonida o'sdi. $Cu_{0.7}:Al_{0.3}$ va $Cu_{0.5}:Al_{0.5}$ namunalarida mis kristallitlari kattaroq bo'lsa, $Cu_{0.3}:Al_{0.7}$ da alyuminiy kristallitlari ustunlik qildi. Bu lazer nurlanishining target tarkibidagi elementlar bilan turlicha o'zaro ta'siri bilan izohlanadi [8]. Lazer energiyasi oshishi ablatsiya jarayonini kuchaytirib, ko'proq atom va ionlarni hosil qildi. Elektronlarning zarrachalar bilan ko'plab to'qnashuvi kristallanish jarayonini tezlashtirdi va yuqori kristall tuzilishga ega nanomateriallarning hosil bo'lishiga olib keldi [9]. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, lazer-plazma parametrlarini nazorat qilish orqali hosil bo'layotgan nanostrukturalarning kristallik darajasi va zarracha o'lchamini boshqarish mumkin.

Ayniqsa, alyuminiy ulushi yuqori bo'lgan Cu-Al qotishmalari yuqori ionlashuv darajasiga ega bo'lib, bu nanokristallarning o'sishini jadallashtiradi. Demak, lazer energiyasi + nishon tarkibi kombinatsiyasi materiallarning yakuniy faza va morfologiyasini belgilovchi asosiy omillardir. Olingan natijalar Cu-Al nanokompozitlari sintezida zarracha o'lchamini va kristallanish darajasini boshqarish imkonini beradi. Bu yondashuv kelajakda nanoelektronika, yupqa plyonkali qoplamalar va energiya saqlash texnologiyalarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.S. Mohammed, K.A. Aadim, K.A. Ahmed. *Karbala Int. J. Mod. Sci.* 8(2), 88–97 (2022). https://doi.org/10.33640/2405-609X.3225
2. V. Unnikrishnan et al. *Pramana – J. Phys.* 74, 983 (2010). https://doi.org/10.1007/s12043-010-0089-5
3. R.J.E. Jaspers. *Fusion Sci. Technol.* 61, 384 (2012). https://doi.org/10.13182/FST12-A13426
4. A. Sergievskaya et al. *Colloids Surf. A Physicochem. Eng. Asp.* 615, 126286 (2021). https://doi.org/10.1016/j.colsurfa.2021.126286
5. F. Taccogna et al. *Plasma Sources Sci. Technol.* 26, 045002 (2017). https://doi.org/10.1088/1361-6595/aa595b
6. A. Kiejna, K.F. Wojciechowski. *Metal Surface Electron Physics*, Elsevier (1996). https://doi.org/10.1016/B978-008042675-4/50009-8
7. M. Stössel et al. *Appl. Phys. A.* 68, 387 (1999). https://doi.org/10.1007/s003399900011
8. A. Ojeda-G-P, M. Döbeli, T. Lippert. *Adv. Mater. Interfaces.* 5, 1 (2018). https://doi.org/10.1002/admi.201701062
9. R. Wang et al. *Coatings.* 12, 394 (2022). https://doi.org/10.3390/coatings12030394

APPLICATION OF NANOTECHNOLOGY IN SUPER CAPACITORS

Cuddapah Dhananjaya Rao Professor of Physics
Karimova Dilorom Amonovna Professor of Chemistry
Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Abstract

Supercapacitors are high-capacity devices with 10 to 150 times more energy per unit volume or mass than traditional capacitors. Integration of nanotechnology with supercapacitors lead to better results compared to supercapacitors. The present article describes a review of synthesis and characterization of nanomaterials that are doped with transition metals and its application in nano supercapacitors which are widely used in electronics, electric vehicles, UPS, smart meters, solid state devices, energy harvesters in solar cells, IoT sensors, energy grid stabilization.

1. Introduction

Super capacitors present lower energy densities (4–5 Wh/kg) than traditional batteries (30–40 Wh/kg) but with a virtually infinite life time, rapid charge, a wider temperature range, safety and higher reliability. With the developments in nanoscience and technology, nanosuper capacitors whose energy and power densities of 262 Wh/kg and tens of kW/kg to over 400 kW/kg were reported compared to the available traditional super capacitors with energy density of 4–5 Wh/kg and power density of 10–20 kW/kg. The integration of nanotechnology with the principles of supercapacitor create advanced energy storage devices that combine the high power density of conventional capacitors with the high energy density of batteries by utilizing nanotubes and nanosheets due to its extremely high surface area in the electrodes. Enhanced surface area leads to increased capacitance and faster charge/discharge rates that facilitates rapid energy delivery.

1.1Synthesis of nanomaterials for Supercapacitors

Common techniques such as hydrothermal, solvothermal, co-precipitation, sol-gel method and various chemical or physical approaches are suggested to synthesize nanomaterials with dopants such as Manganese, Nickel, Cobalt, Nitrogen, Sulfur, Boron, Vanadium etc into the host materials to alter their intrinsic electrical and chemical properties. Nanosuper capacitor materials possess modified concentration of charge carriers, increased conductivity and energy storage capacity and enhanced electro catalytic activity and thereby enhancing performance in applications like supercapacitors and batteries. Synthesis of Fe doped NiO nanoparticles (1) for super capacitor applications can be found.

1.2 Materials and Methods

Iron (III) nitrate nonahydrate ($Fe(NO_3)_3.9H_2O$), Nickel (II) nitrate hexahydrate ($Ni\ (No_3)_2.6H_2O$), and Sodium hydroxide (NaOH) were used. The co-precipitation process was used to create NiO nanoparticles doped with Fe. 100 ml of double-distilled water is used to dissolve 0.3 M of Nickel Nitrate hexahydrate and 10 wt% of Iron (III) nitrate nonahydrate is then added. Subsequent washing, dying at 150 C and calcination resulted in the final product of Fe doped NiO Nano powder. The detailed description of the synthesis and characterization are reported (1)

1.3 Characterization Techniques

1. EDS Spectra – For elemental analysis
2. X-ray diffraction - The crystal structures and phase purity of both undoped and doped nanomaterialscan be analyzed using XRD patterns
3. FTIR (Fourier Transform Infrared Spectroscopy) - to analyze samples and identify their chemical composition.
4. SEM (Scanning Electron Microscopy) - for detailed surface analysis by generating high-resolution, magnified images of a specimen's topography and composition using an electron beam.
5. HR-SEM (High-Resolution Scanning Electron Microscopy) - for ultra-detailed images of a sample's surface and composition with sub-nanometer resolution.
6. EDX (Energy-Dispersive X – Ray spectroscopy) - the composition and the quantity of the heavy metal ions of the nanoparticles, which are placed near or at the surface of a sample, can be measured.
7. BET (Brunauer, Emmett and Teller) - to measure high specific surface area and porosity.
8. GCD (Galvanostatic Charge-Discharge) - common electrochemical test used to evaluate the energy storage performance of materials for devices like supercapacitors and batteries.

9. EIS (Electrochemical Impedance Spectroscopy) - To analyze the electrochemical properties of nanomaterial-modified interfaces and understand phenomena like charge transfer, diffusion, and adsorption.

Few earlier Results and Discussion

The role of nanomaterials in redox-based supercapacitors for next generation energy storage devices is reported (2). Development of high-performance supercapacitors based on carbon nanomaterials (3). Supercapacitor electrodes based on nanopolyaniline deposited on hollow carbon spheres derived from cross-linked co-polymers (4). Ultrathin NiCo-MOF nanosheets for highperformance supercapacitor electrodes (5); Asymmetric supercapacitors with high energy density and high specific capacitance based on NiCo-Mn multiphase metal structure MOF (6); photocatalytic performance and supercapacitor applications of undoped and Cu-doped ZnO nanoparticles . (7); Design of composite cathodes for sulfide-based all-solid-state batteries (8); Design and synthesis of hybrid Mo-doped Bi_2O_3 nanomaterials as an efficient electrode for high-performance supercapacitors (9). Tuning barrier height and enhancing electrical properties of MOS heterojunctions using Fe2O3 doped MoO3 nanocomposite interlayer on Ni/ Cr/n-GaN for optoelectronic devices (10). Our future work focusses on the development of efficient and inexpensive, doped nanosupercapacitors for a better performance than the earlier reports.

References

1. T. Gayathri, B. Kavitha, M. Nirmala, Nazir Ahmad Mala (2024); Improved electrochemical performance of the iron-doped NiO nanoparticles at varying calcination temperatures and examination of their supercapacitor applications, Journal of the Indian Chemical Society, Volume 101, Issue 11, 2024, 101398, ISSN 0019-4522, https://doi.org/10.1016/j.jics.2024.101398.

2. Xin Zhao, Beatriz Mendoza Sánchez, Peter J. Dobsona and Patrick S. Grant, (2011); The role of nanomaterials in redox-based supercapacitors for next generation energy storage devices, Nanoscale, Issue 3, 2011, https://doi.org/10.1039/C0NR00594K

3. Tao Chen, Liming Dai, Carbon nanomaterials for high-performance supercapacitors, (2013); Materials Today, Volume 16, Issues 7–8, 2013, Pages 272-280, ISSN 1369-7021, https://doi.org/10.1016/j.mattod.2013.07.002.
4. Kuiwen Shen, Fen Ran, Xuanxuan Zhang, Chang Liu, Naijie Wang, Xiaoqin Niu, Ying Liu, Dingjun Zhang, Lingbin Kong, Long Kang, Shaowei Chen, (2015); Supercapacitor electrodes based on nano-polyaniline deposited on hollow carbon spheres derived from cross-linked co-polymers, Synthetic Metals, Volume 209, 2015, Pages 369-376, ISSN 0379-6779, https://doi.org/10.1016/j.synthmet.2015.08.012.
5. Wang Y, Liu Y, Wang H, Liu W, Li Y, Zhang J, et al. (2019); Ultrathin NiCo-MOF nanosheets for highperformance supercapacitor electrodes. ACS Appl Energy Mater [Internet]. 2019 Mar 25;2(3):2063– 71.
6. Zhang B, Song S, Li W, Zheng L, Ma X.(2021); Asymmetric supercapacitors with high energy density and high specific capacitance based on NiCo-Mn multiphase metal structure MOF. Ionics (Kiel) [Internet]. 2021 Aug 27;27(8):3553–66.
7. Sivakumar S, Robinson Y, Mala NA.(2021); Studies on photocatalytic performance and supercapacitor applications of undoped and Cu-doped ZnO nanoparticles. Appl Surf Sci Adv [Internet]. 2022 Dec;12:100344.
8. Wei Jiang, Xinxin Zhu, Yawen Liu, Shu Zhao, Renzhi Huang, Min Ling, Liguang Wang, Chengdu Liang, (2023); Design of composite cathodes for sulfide-based all-solid-state batteries, eTransportation, Volume 17, 2023, 100246, ISSN 2590-1168, https://doi.org/10.1016/j.etran.2023.100246.
9. Zeshan Ali Sandhu, Sufyan Ashraf, Muhammad Asam Raza, Muhammad Danish, Shafiq Ur Rehman, Ali Haider Bhalli, Abdullah G. Al-Sehemi, (2025); Design and synthesis of hybrid Mo-doped Bi_2O_3 nanomaterials as an efficient electrodes for high-performance supercapacitors, Electrochimica Acta, Volume 512, 2025, 145378, ISSN 0013-4686, https://doi.org/10.1016/j.electacta.2024.145378.
10. Karri Aswini, Chaitanya Kumar Kunapalli, K. Munirathnam, V. Manjunath, Cuddapah Dhananjaya Rao, Purusottam Reddy Bommireddy, Si-Hyun Park, Youngsuk Suh, Yedluri Anil Kumar, Ezhakudiyan Ravindran, (2025); Tuning barrier height and enhancing electrical properties of MOS heterojunctions using Fe2O3 doped MoO3 nanocomposite interlayer on Ni/Cr/n-GaN for optoelectronic devices,

Physica B: Condensed Matter, Volume 714, 2025, 417422, ISSN 0921-4526, https://doi.org/10.1016/j.physb.2025.417422.

8-OKSIXINOLIN BILAN MODIFIKASIYANLANGAN ASETATSELLULOZA YORDAMIDA LITIY IONINI ANIQLASH

U.R.Axmedova[1], N.X.Qutlimurotova[2], F.F.Nurjanova[2]
[1]O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent shahri, O‘zbekiston
[2]Urganch davlat pedagogika instituti, Xorazm viloyati, O‘zbekiston

Dolzarbligi: Litiy ionlarini aniqlash texnologiyalari bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi, chunki Li^+ ionlari energiya saqlash qurilmalari, farmatsevtika va ekologik nazorat sohalarida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, litiy-ion batareyalarining global qo‘llanilishi bu elementning sezgir va selektiv aniqlanishini taqozo etadi [1]. Litiy kontsentratsiyasini aniqlashning an’anaviy metodlari (atom-absorbsion spektroskopiya, ion-selektiv elektrodlari va ICP-MS) yuqori aniqlikka ega bo‘lsa-da, ular qimmat, ko‘p vaqt talab qiladi va murakkab namunalarni tayyorlash bosqichlariga ega. Shu bois, optik va lyuminessent asosidagi oddiy, arzon va yuqori sezgir usullar ishlab chiqilishi zamonaviy analitik kimyo yo‘nalishlaridan biridir.

Asetatsellyuloza yuqori barqarorlik, yaxshi ishlov berish imkoniyati va modifikatsiyaga qulayligi tufayli analitik maqsadlarda qo‘llanilmoqda [2]. Uning gidroksil guruhlari 8-oksixinolin kabi ligandlar bilan kovalent yoki ko‘prik hosil qiluvchi bog‘lanishlar orqali immobilizatsiyalanadi. Natijada yuzada metall ionlari bilan kompleks hosil qila oladigan faol markazlar paydo bo‘ladi.

8-Oksixinolin (8-HQ) N va O donor atomlari orqali turli metall ionlari, jumladan litiy bilan ham kompleks hosil qiladi. Bu komplekslar odatda yaxshi barqarorlikka ega bo‘lib, fotofizik xossalarini o‘zgartiradi va lyuminessent signallarni kuchaytiradi [3]. 8-HQ modifikatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan asetatsellyuloza sorbentida litiy ionlari bilan selektiv o‘zaro ta’sir sodir bo‘ladi, bu esa fluoressensiya asosida aniqlash imkoniyatini beradi. Li^+ ionlari 8-oksixinolin bilan bog‘langanda xelat kompleks hosil bo‘ladi. Bu jarayon ligandning elektron tuzilishini o‘zgartirib, fluoressensiya intensivligini oshiradi yoki spektral siljishga olib keladi. Natijada, sorbent materialida litiy mavjudligi sezilarli ravishda aniqlanadi. Bunday usul yuqori sezgirlikka ega bo‘lib, mikro- va pikomolyar diapazonda aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, 8-HQ asosidagi sensorlar arzon, portativ va tezkor monitoring uchun qulay hisoblanadi [4].

Maqsad: Asetatselluloza asosida 8-oksixinolin bilan modifikatsiyalangan sorbent sintez qilib, uni lyuminessent usulda litiy ionlarini aniqlashda qo'llash.

Usul va uslublar: Asetatsellyulozani 1mikron kattalikda maydalab, unga 1% li 8-oksixinolinning spirtdagi eritmasi qo`shildi va 1 soatga qoldirildi. Keyin eritma filtrlanib olindi va 8-oksixinolinning konsentratsiyasi spektrofotometr yordamida aniqlandi. Sorbsiya qiymati topildi. Uni spirtda yuvib tashlab, uni quritilib, tabletka holatiga olib kelindi va unga litiy xlorid eritmasi solinib, qattiq fazada fluoressensiya intensivliklari aniqlandi.

Natija: 8-HQ Li^+ ionlari bilan 1:1 stexiometrik nisbatda kompleks hosil qildi. Bu jarayon polimer yuzasida immobilizatsiyalangan ligandlar orqali tez sodir bo'lib, fluoressensiya intensivligini sezilarli oshirdi. Li^+ konsentratsiyasi ortishi bilan fluoressensiya intensivligi chiziqli ravishda oshib bordi.

$AC–8HQ+Li^+ \longrightarrow [AC–8HQ–Li]$ (xelat kompleks)

Bu yerda Li^+ 8-HQ ning N va O donor atomlari bilan ikki koordinatsion bog` hosil qilib barqarorlashadi.

Na^+, K^+, Mg^{2+} va Ca^{2+} ionlari ishtirokida ham sinov o'tkazildi. Boshqa ionlar fluoressensiya intensivligida sezilarli o'zgarish bermadi. Bu esa Li^+ uchun yuqori selektivlikni isbotladi.

Xulosa: Asetatsellyuloza asosidagi 8-HQ modifikatsiyalangan materiallarning asosiy afzalliklari yuqori selektivlik, past aniqlash chegarasi, biosamaradorlik va ekologik xavfsizlik, tayyorlashning soddaligi va iqtisodiyligidir. Asetatsellyulozani 8-oksixinolin bilan modifikasiyalash orqali yaratilgan sorbentlar litiy ionini aniqlashda samarali lyuminessent sensor vazifasini bajaradi. Ushbu materiallar arzon, ekologik xavfsiz va yuqori sezgirlikka ega bo'lib, zamonaviy analitik kimyoning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Gabrielli V., Frasconi M. Cellulose-based functional materials for sensing //Chemosensors. – 2022. – T. 10. – №. 9. – C. 352.
2. Khaorapapong N., Ogawa M. Formation of mono (8-hydroxyquinoline) lithium (I) complex in smectites by solid–solid reactions //Journal of Physics and Chemistry of Solids. – 2010. – T. 71. – №. 12. – C. 1644-1650.

3. Wang X. et al. 8-hydroxyquinoline lithium nanoribbons: synthesize and the photoconductivity sens //Optoelectronics and Advanced Materials-Rapid Communications. – 2011. – Т. 5. – №. November 2011. – С. 1256-1259.
4. Mubark A. E. et al. Synthesis, characterization, and potential evaluation of modified cellulose immobilized with hydroxyquinoline as a sorbent for vanadium ions //Journal of Polymers and the Environment. – 2022. – Т. 30. – №. 10. – С. 4178-4192.

The authors bear full personal responsibility for the accuracy and reliability of the information, data, and results presented in the abstracts included in this collection.

International Scientific and Practical Conference

"Recent Advances in Photonics and Quantum Optics: New Optoelectronic Technologies, Quantum Communications, and Quantum Computers"

Авторы несут полную персональную ответственность за точность и достоверность информации, данных и результатов, представленных в тезисах, включённых в данный сборник.

Международная научно-практическая конференция

«Современные достижения в фотонике и квантовой оптике: новые оптоэлектронные технологии, квантовые коммуникации и квантовые компьютеры»

Mualliflar ushbu to'plamga kiritilgan tezislarda keltirilgan ma'lumotlar, faktlar va natijalarning to'g'riligi hamda haqqoniyligiga shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

«Fotonika va kvant optikasidagi so'nggi yutuqlar: yangi optoelektron texnologiyalar, kvant kommunikatsiyalar va kvant kompyuterlari»